ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

5-son
(sentabr-oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

	4	Ilm – mashaqqat, mas'uliyat va majburiyat
R. Isyanov	6	Ilm – mashaqqat, mas'uliyat va majburiyatligi ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

Sh. Ergashev	10	Uzluksiz ta'lim tizimida kasbga yo'naltirishning nazariy asoslari
Z. Otaboyeva, R. Mamatov	14	Talabalarda hamkorlik madaniyatini rivojlantirish
M. Kayumova	17	Oliy ta'lim muassasalari talabalarida korporativ madaniyatni rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlari
M. Mamatqulova	22	Ta'lim muassasalarida yoshlarni ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish
Sh. Yunusov, E. Ashiraliyev	28	Xalq ta'limi tizimida kadrlar masalasi: muammo va yechimlar (Sirdaryo viloyati xalq ta'limi tizimi misolida)
M. To'qliyeva, U. Karimova	33	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish darslari vositasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda PIRLS xalqaro tadqiqotlarning ahamiyati
M.Pardayeva	36	Maktabda tabiiy fanlarni integratsion o'qitish: ''Science''ni joriy etishning muammo va yechimlari
Z. Madrahimova, K. Eshonqulova, M. Altibayeva	39	Yoshlar tarbiyasida harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

D. Rahmatullayeva	44	Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida tizimli yondashuv asosida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish
S. Turdiboyev	49	Geometrik masalalarni yechishda o'quvchilarning konstruktiv qobiliyatini rivojlantirish
M.Mirzayeva	53	Bo'lajak muhandislarning chet tili kommunikativ kompetentligini shakllantirish
U. Bazarova	60	Texnika oliygohi talabalarini chet tili vositasida tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari
Z. Beknazarova	64	Fizika o'qitish metodlarining o'ziga xos tomonlari

TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

B. Berdiyev	67	Talabalar mustaqil ishining o'ziga xos xususiyatlari ta'lim sifatini ta'minlash omili

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Sh. Botirova	71	Adabiy ta'lim klasterida ''maktab laboratoriya'' tuzilmasi
L. Rajabova	75	Integrativ – differensial yondashuv asosida bo'lajak ijtimoiy soha mutaxassislarini o'qitish nazariyasi

MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Sh. Hamroyev **81** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval” darsligidan foydalanish imkoniyatlari

TA’LIMDA MENEJMENT

M. Baybayeva **86** Rahbarning kasbiy ijodkorligini rivojlantirishning akmeologik xususiyatlari

JISMONIY TARBIYA VA SPORT

H. Maxmarizayev **91** Suzish turlari va uni o‘qitish metodikasi

S. Shodiqulov **95** Kurash turlari bo‘yicha texnik usullarning klassifikatsiyasi, sistematikasi va ularning terminologiyasi

MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

M. Shodiyeva **99** Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini kasbiy ehtiyojlar asosida takomillashtirish imkoniyatlari

MAKTABGACHA TA’LIM

N. Tulyaganova **105** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqaruv sifatini oshirishda axborot texnologiyalari

A. Abdualimov **108** Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi

G. Sidikova **113** Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirish va ularda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish

ILM, MA’RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

B. Djurayeva **116** Bo‘lajak tabiiy fanlar o‘qituvchilarining axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirishning metodologik jihatlari

TA’LIMDA MUTOLAA MADANIYATI

D. Baxritdinova, Z. Yuldasheva **120** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobga muhabbat hissini tarbiyalash

QIYOSIY PEDAGOGIKA

X. Ibraimov, K. Todjibayeva **124** Inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy etishda xorijiy mamlakatlar tajribasi: AQSH va Yevropa misolida

ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

М. Хошимова **129** Формирование нравственного воспитания на основе интегрированного подхода

М. Абдухаликова **134** Использование приёмов инновационной технологии при формирование критического мышления школьников как средство саморазвития личности

ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ И ПЕРЕПОДГОТОВКА

А. Магрупов **139** Управленческая деятельность – как необходимая составная часть руководителья

ILM – MASHAQQAT, MAS'ULIYAT VA MAJBURIYAT

Ilm-fan bilan shug'ullanish, yangi kashfiyot va ixtirolar qilish igna bilan quduq qazishdek gap. Shunday ekan, bu mashaqqatli sohada fidokorona mehnat qilayotgan olimlarimizni mehnati tahsin va rag'batga munosib.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Ilm-fan – har qanday davlatning bugungi kuni va kelajagini belgilaydigan muhim sohadir. O'zbekiston zamini jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyoti yo'nalishini ma'lum darajada belgilab bergan ulug' allomalari, buyuk mutafakkirlari bilan shuhrat qozongan.

Mustaqil davlatimizning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash ilg'or ilmiy ishlanmalar va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning yutuqlarini samarali joriy etish bilan bevosita bog'liq.

Mamlakatimiz Prezidenti davlat rahbari sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, yetakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, respublikamizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg'unlantirishga qaratganligi bejiz emas. Shu bilan birga, ilmiy-texnik salohiyatning hozirgi kundagi ahvoli, kadrlar bilan ta'minlanganligi, ilmiy-tadqiqot faoliyatining moddiy-texnik, tajriba va laboratoriya bazalarining rivojlanish darajasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidan ortda qolmoqda. Ilmiy-tadqiqot muassasalarini moliyalashtirish borasida ham muammolar mavjud. Shu sababli ilmiy faoliyat nufuzi biroz pasayib, iqtidorli yoshlarning boshqa sohalarga ketib qolish holatlari kuzatilmoqda.

Bugungi kunda davlat ilmiy-texnika dasturlarini shakllantirish, olimlarga keng ko'lamli ilmiy izlanishlarni amalga oshirishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida olimlar, jumladan, yoshlar uchun ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari, texnoparklar tashkil etish, ilmiy izlanishlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning real muammolariga yo'naltirish, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy integratsiyani ta'minlash, akademiklar bilan xorijiy mamlakatlardagi akademiyalar, ilm-fan markazlari o'rtasida hamkorliklarni kuchaytirish kabi masalalarni amalga oshirish asosiy vazifalari sifatida belgilangan.

Bunday vazifalarni hal etish esa bo'lajak mutaxassislarni, ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashga bog'liq bo'lib, bular bevosita ijodiy jarayon va unga asoslangan ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek, bunday vazifalarni hal qilishning samarali yo'llaridan biri ham bo'lajak mutaxassislarni ijodiy faoliyat bilan bemalol shug'ullana oladigan qilib, ya'ni ilmiy tadqiqot asoslari bilan shug'ullana olish ko'nikma va malakalariga ega qilib tayyorlashga to'g'ri keladi. Bunga sabab ijodiy faoliyat inson aqliy faoliyatining ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ijodiy ongli – harakatlari majmuasidan iborat. Bundan ko'zlangan maqsad – hodisa va jarayonlar to'g'risida yangi bilimga ega bo'lish, uni takomillashtirish va ular asosida qo'yilgan muammo yechimi bo'yicha yangi usul, uslubiyat, texnika, texnologiya kabilarni yaratishdan iboratdir.

Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash jarayonlarining shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi izlanuvchilarga falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalarini Oliy ta'limdan keyingi ta'limga qo'yiladigan davlat talablari umumiy qabul qilingan xalqaro standartlarni hisobga olgan holda falsafa doktori

PhD va fan doktori DSc ilmiy darajalari izlanuvchilarining dissertatsiya ishi mazmuniga va sifatiga qo‘yiladigan talablardan kelib chiqib belgilangan.

Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur.

Ilmiy tadqiqot olib borish uchun birlamchi shart – chuqur bilim sohibi bo‘lish. Bilim odatda, o‘qish-o‘rganish orqali egallanadi. Talaba o‘rta maktabda olgan bilimini oliy ta’limda o‘zi tanlagan fanlar bo‘yicha chuqurlashtiradi. Ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanuvchi ana shu bilim poydevorini o‘z mustaqil mehnati, o‘qib-o‘rganishi bilan boyitadi. Buning uchun o‘zi tanlagan soha, mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy-metodik adabiyotni chuqur o‘rganishi zarur.

Bilim har bir yosh tadqiqotchida bor, lekin bu bilimning miqyosi, chuqurlik darajasi har xil bo‘ladi. Ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan talabgor o‘zi tanlagan soha, mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy-metodik adabiyotni mustaqil mutolaa qilib, o‘z bilim saviyasini kengaytirishi va chuqurlashtirishi zarur, ayniqsa, magistrlik dissertatsiyasi sifatida tanlangan mavzuning adabiyotini har tomonlama sinchiklab o‘rganishi shart.

Ilmiy tadqiqot olib borish uchun zarur shartlardan biri – mehnatsevarlik. Ilm qunt bilan uzluksiz mehnat qilishni talab qiladi. Ilmiy tadqiqot kishining ko‘p vaqtini egallab qo‘yadi, boshqa ishlar bilan shug‘ullanishga vaqt oz qoladi. Ilm fidoyisigina bunga ko‘nikadi, havoyi kishi ilm dargohidan tezda surilib chiqib ketadi. Yosh tadqiqotchi o‘zida mehnat intizomini tarbiyalashi va mehnat intizomiga qat’iy rioya qilishi lozim. Ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanish kundalik zaruriyatga aylanishi darkor. Asli haqiqiy shoir she’r yozmasdan tura olmaganidek, haqiqiy olim ham ilmiy ijod bilan shug‘ullanmasdan tura olmaydi.

Tadqiqotchi har kungi vaqtini reja bilan, o‘rinli sarflashga o‘rganishi darkor. Kun tartibi tuzib, har bir ishga zarur darajada vaqt ajratishi, bunda ilmiy ish bilan shug‘ullanish uchun har kuni, albatta, maxsus vaqt ajratishi kerak.

Mavzu tanlashda ilmiy ishning barcha turlarida mas’uliyat bilan yondashish zarur, chunki bajariladigan ishning samarali yakunlanishi ko‘p jihatdan mavzuning to‘g‘ri tanlanganiga bog‘liq.

Mavzuni ko‘pincha ilmiy rahbar yoki ilmiy maslahatchi tavsiya qiladi. Bu – tabiiy, chunki ustoz, ayniqsa, ko‘p yillik ilmiy-pedagogik tajribasi bor olim o‘zi ilmiy tadqiqot olib borayotgan sohaning yutuq-kamchiliklarini yaxshi biladi, shundan kelib chiqib, o‘z shogirdiga ijobiy natija bilan yakunlanadigan mavzu tavsiya qila oladi.

Ilmiy tadqiqot mavzusining o‘ta keng, o‘ta umumiy bo‘lishi qoralanadi. Tanlangan mavzu mumkin qadar aniq maqsadli bo‘lishi kerak. Mavzuni bajarishdan kutiladigan natija iloji boricha mavzuning nomlanishida o‘z aksini topgani ma’qul. Dastlab ilmiy ishning nomi nisbatan shartli belgilanadi. Xullas, mavzu tanlashda har tomonlama chuqur o‘ylab ish tutish kerak, chunki olib boriladigan tadqiqotning samarali yakunlanishi avvalo, mavzuning to‘g‘ri tanlanganiga bog‘liq.

Barcha turdagi ilmiy matnlar oldiga qo‘yiladigan talablardan tashqari, ayrim o‘ziga xos talablar ham mavjud. Ilmiy matnga ishlov berishning ayrim jihatlari quyidagilardan iborat:

Vaqtni va mehnatni tejash, yozishda tezlikka erishish maqsadi bilan ilmiy matnning qoralamasida ayrim so‘zlar va qo‘shimchalarni shaxsiy qisqartma bilan ifodalash mumkin, lekin ilmiy matnni oqqa ko‘chirishda bunday shaxsiy qisqartmalarni ishlatish mumkin emas. Umuman, ilmiy matnda shartli qisqartmalar qancha oz bo‘lsa, bunday matnni o‘qish va tushunish shuncha yengil ko‘chadi.

Barcha turdagi matnlar har jihatdan ravon va savodli yozilishi shart. Buning uchun til uslubiyoti qoidalarini, imlo qoidalarini (orfografik qoidalarni va punktuatsion qoidalarni) puxta o‘rganish hamda amaliyotda ulardan samarali foydalanish lozim.

Ravil ISYANOV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

ILM – MASHAQQAT, MAS’ULIYAT VA MAJBURIYATLIGI IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada ilmiy tadqiqotlarni fundamental va amaliy, miqdoriy va sifatiy, noyob va kompleks tarzda olib borilishi dolzarb bo‘lib qolayotganligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif ilmiy tadqiqotlarning metod va tajribalaridan tadqiqot olib borish jarayonida emas, balki, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda ham keng qo‘llanilishi to‘g‘risida so‘z yuritgan.

Kalit so‘zlar. Mashaqqat, mas’uliyat va majburiyat, tadqiqot, ilmiy ishlanmalar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, integratsiya, integratsiyani ta’minlash.

В статье рассматривается проблемы фундаментальных и практических научных исследований. Автор также отмечает, что методы и результаты научных исследований должны использоваться не только в самих научных изысканиях, но и при решении многих экономических и социальных проблем.

Ключевые слова. Трудолюбие, ответственность и обязательство, целеустремленность, научные разработки, научно-технический прогресс, интеграция, обеспечение целостной интеграции.

This article argues that scientific research remains fundamental and practical, quantitative and qualitative, unique and complex. The author also spoke about the wide application of scientific research methods and practices not only in the research process, but also in solving economic and social problems.

Key words. Hard work, responsibility and commitment, research, scientific development, scientific and technological progress, integration, ensuring seamless integration.

Bugungi kunda shiddat bilan o‘zgarayotgan zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda. Jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni yechishda fan va ishlab chiqarish hamkorligini mustahkamlash, ta’lim tizimini rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyot taraqqiyotiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri – mazkur sohani va olimlarni qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

Ilm-fan – har qanday davlatning bugungi kuni va kelajagini belgilaydigan muhim sohadir. O‘zbekiston zamini jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyoti yo‘nalishini ma’lum darajada belgilab bergan ulug‘ allomalari, buyuk mutafakkirlari bilan shuhrat qozongan.

Mustaqil davlatimizning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash ilg‘or ilmiy ishlanmalar va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning yutuqlarini samarali joriy etish bilan bevosita bog‘liq.

Shu bilan birga, ilmiy-texnik salohiyatning hozirgi kundagi ahvoli, kadrlar bilan ta'minlanganligi, ilmiy-tadqiqot faoliyatining moddiy-texnik, tajriba va laboratoriya bazalarining rivojlanish darajasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidan ortda qolmoqda. Ilmiy-tadqiqot muassasalarini moliyalashtirish borasida ham muammolar mavjud. Shu sababli ilmiy faoliyat nufuzi biroz pasayib, iqtidorli yoshlarning boshqa sohalarga ketib qolish holatlari kuzatilmoqda. Shuningdek, mamlakatimizdagi akademik fanning xalqaro miqyosda nufuzini oshirish, dunyo ilm-fani bilan hamkorligini mustahkamlash ham bugungi kun talabiga aylandi.

Zamonaviy mutaxassis, ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tizimi asosida faoliyat yurita oladigan bo‘lsak, ijodiy faoliyat bilimlarning algoritmik tuzilmasidan iborat ekanligi kelib chiqadi. Buni ilm-fan va texnika-texnologiyalarning rivojlanishida yangi bilimlar va ularni o‘zlashtirishda shakllangan bilimlar tizimini ma'lum qonuniyat asosida asoslashda hamda ulardan bilish faoliyatini takomillashtirishda foydalanishlarda sezish mumkin bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqot – yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri. Unga obyektivlik, ishonchlilik, aniqlik xos. Ilmiy tadqiqot hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, bahs etilayotgan masalani isbotlashi lozim. Ilmiy tadqiqot bir-biri bilan bog‘langan ikki asos – tajriba va nazariyadan iborat. Ilmiy tadqiqotning asosiy komponentlari: mavzuni belgilash, mavjud axborotni, tadqiqot sohasidagi shart-sharoit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan tahlil etish, tajriba o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil etish va umumlashtirish, kelib chiqqan farazlarni olingan dalillar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish. Ilmiy tadqiqotlarni fundamental va amaliy, miqdoriy va sifatiy, noyob va kompleks tadqiqotlarga ajratish keng tarqalgan. Ilmiy tadqiqotlarning metod va tajribalari fanning o‘zidagina emas, balki ko‘pgina iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda ham keng qo‘llaniladi.

Ilmiy daraja olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya, bilimlarning tegishli tarmog‘ida muhim ahamiyatga ega masalaning yangi yechimidan iborat yoki dolzarb ilmiy masalaning yechimiga qaratilgan ilmiy asoslangan ilmiy-texnik yoki ijtimoiy-iqtisodiy tavsiyalar ishlab chiqilgan tugallangan shakldagi ilmiy ish bo‘lishi lozim. Shuningdek, fan doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya tugallangan ilmiy ish bo‘lishi va unda muhim ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy yoki amaliy muammolar yechimi keltirilgan yoki tegishli fan sohasining istiqbolli yo‘nalishini rivojlantirish uchun yirik yutuq sifatida baholanadigan yangi nazariy qoidalar ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim.

Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan, o‘zgaruvchan mexanizmga, amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur.

Ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanish – mashaqqatli va ayni vaqtda sharafli mehnat. Olim bo‘lishni havas qiluvchi yoshlar ko‘p bo‘ladi, shular orasida o‘z umrini ilm yo‘liga bag‘ishlaganlari ham uchraydi. Olim bo‘lishni orzu qilgan kishida ma'lum imkoniyatlar va bu imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish uchun ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo‘lishi lozim.

Ilmiy tadqiqot olib borish uchun birlamchi shart – chuqur bilim sohibi bo‘lish. Bilim odatda, o‘qish-o‘rganish orqali egallanadi. Talaba o‘rta maktabda olgan bilimini oliy ta'limda o‘zi tanlagan fanlar bo‘yicha chuqurlashtiradi. Ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanuvchi ana shu bilim poydevorini o‘z mustaqil mehnati, o‘qib-o‘rganishi bilan boyitadi. Buning uchun o‘zi tanlagan soha, mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy-metodik

adabiyotni chuqur o‘rganishi zarur. Ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan talabgor o‘zi tanlagan soha, mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy-metodik adabiyotni mustaqil mutolaa qilib, o‘z bilim saviyasini kengaytirishi va chuqurlashtirishi zarur, ayniqsa, magistrlik dissertatsiyasi sifatida tanlangan mavzuning adabiyotini har tomonlama sinchiklab o‘rganishi shart.

Har qanday ilmiy-metodik adabiyotni mutolaa qilishda uni yozgan kishing mehnatini qadrlash lozim. Siz ham yaqin kelajakda shunday asarlar yozasiz, bo‘lajak magistrantlar siz yozgan asarlarni o‘qib, bilimini oshiradi va sizning mehnatingizni munosib qadrlaydi. Boshqalar yaratgan ilmiy asarlarga yaxshi munosabatda bo‘lish olimlarga xos fazilatlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ilm-fanni, ilmiy-tadqiqot muassasalari va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bilan bog‘liq mexanizmning barcha bosqichlari to‘la ishlashi uchun imkoniyatlar yaratilgan. Endilikda ilm-fanni, ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish uchun barcha sharoitlar mavjud. Demak, endi jiddiy ishlash, yangiliklar, ilmiy kashfiyotlar yaratish davri keldi.

Ulug‘ alloma va shoir Abubakr Abulxayrdan “Haqiqat nima?” deb so‘rabdilar. “Haqiqat – barcha narsalarning ilmda zohir bo‘lishi”, deb javob beribdi u. “U holda ilm nima?”, deb so‘rashibdi atrofidagilar. “Ilm – barcha narsalarning haqiqatga aylanishi”, debdi u. Bugungi kun hayotimizda barcha narsalar ilmiy asosda zohir bo‘layotgan, ilm esa haqiqatga aylanayotgan ekan, demak, bu hayotimizning, jamiyatimizning nihoyatda to‘g‘ri yo‘ldan taraqqiy etayotganligidan, kelajak haqqoniy asosda belgilanayotganidan darak beradi.

Ilmiy izlanuvchilar uchun ayrim tavsiyalar

Ilmiy va o‘quv adabiyotlarni qidirishda siz O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarning ayrim Internet-resurslaridan, ilmiy tadqiqot bazalaridan foydalanishingiz mumkin, jumladan:

1. https://library.tsul.uz yoki https://sirus.uz/ – TSUL elektron kutubxonasi;
2. https://www.natlib.uz/ – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti;
3. https://www.scomachirect.com/ – dunyo bo‘ylab taniqli mualliflar va olimlarning ilmiy nashrlaridan foydalanishga imkon beruvchi sayt;
4. https://www.ssrn.com – ijtimoiy va gumanitar fanlar bo‘yicha maqolalar bazasi mavjud bo‘lgan sayt;
5. http://www.rasl.ru/ – Rossiya Fanlar akademiyasining kutubxonasi;
6. https://www.elibrary.ru/ – ilmiy elektron kutubxonasi.

Garvard universitetining tavsiyalari:

1. https://gsas.harvard.edu/degree-requirements/dissertations/formatting-your-dissertation.
2. https://www.extension.harvard.edu/resources-policies/completing-your-degree/thesis-process.

Oksford universitetining tavsiyalari:

1. http://www.robots.ox.ac.uk/~gari/teaching/ThesisTemplate/GuideToWritingYourThesis.pdf.

Batafsil tahlil qilish uchun siz universitetlar va ilmiy-tadqiqot muassasalarining elektron kutubxonalaridagi adabiyotlardan, ilmiy jurnallardan ham foydalanishingiz zarur.

G‘arbiy Avstraliya universitetining tavsiyalari:

1. https://www.student.uwa.edu.au/__data/assets/pdf_file/0007/1919239/How-to-

write-a-thesis-A-working-guide.pdf.

Otago universitetining tavsiyalari:

1. https://www.otago.ac.nz/graduate-research/study/otago467801.html.

2. Leychester universitetining tavsiyalari:

3. https://www2.le.ac.uk/departments/doctoralcollege/training/eresources/study-guides/thesis/plan.

4. https://www2.le.ac.uk/departments/doctoralcollege/training/eresources/study-guides/thesis/format-guidelines.

5. https://gradresearch.unimelb.edu.au/preparing-my-thesis/writing-my-thesis.

Plagiat va o‘ziga xoslilarni baholash maqsadida ishlar https://www.turnitin.com/ tizimi orqali tekshirish mumkin, u avtomatik ravishda o‘ziga xoslik, ko‘chirma olish va havola darajasini aniqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. /Rasmiy nashr/ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2017. – 112-b.

2. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. /1-jild/ – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 592-b.

3. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 48-b.

4. Saifnazarov I., Nikitchenko G., Kasimov B, “Ilmiy ijodiyot metodologiyasi”. – T. Yangi asr avlodi, 2004.

5. Kumar R. 2005. Research Methodology A step by step guide for beginners. Second edition. SAGE Publications. London.

6. Verschuren P., Doorewaard H. 1999. Textbook “Designing a Research Project’’. Lemma Utrecht.

Sharibboy ERGASHEV,
Namangan muhandislik-qurilish instituti rektori

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA KASBGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada muallif o'quv-tarbiyaning ajralmas birligi va yetuk shaxsning shakllanish jarayoniga bo'ysundirilganligi, ta'limning ko'p bosqichliligi, ketma-ketligi va uzviyligi: tanlashga keng imkoniyatlar yaratilganligi, shaxsning qobiliyati va xohishlariga mos keladigan o'quv-tarbiya shakllarining mavjudligi, o'quv-tarbiya jarayonini individualliligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Uzviylik, individuallik, pedagogik faoliyat, qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon.

В статье автор говорит о том, что обучение подчинено целостному единству и процессу формирования зрелой личности, о многоступенчатости, последовательности и непрерывности обучения: о широких возможностях выбора, о наличии форм обучения, соответствующих способностям и желаниям личности, об индивидуализации учебно-воспитательного процесса.

Ключевые слова. Последовательность, индивидуальность, педагогическая деятельность, талантливый, творческий, инициативный.

The author in the article gives information about the integral unit of education and the process of forming a mature personality, a large number of educational activities, consistency and continuity: a wide range of choices, individual abilities and forms of learning that correspond to the presence speaks about the individuality of the educational process.

Key words. Membership, individuality, pedagogical activity, talent, creativity, entrepreneurship.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya mazmunini fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvini dual tizimi asosida shakllantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "ta'lim sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim xizmatlarining mavjudligi va samaradorligini oshirish" va "zarur bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olish va kadrlar malakasini oshirish ishlarini keng ko'lamda yo'lga qo'yish" kabi ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlashda ta'lim oluvchilarda yaxlit va tizimli integrativ bilim, kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va ta'lim natijalarini diagnostik baholash muhim o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan kasb ta'limi mutaxassislarni va ishlab chiqarish xodimlarini kasbiy faoliyatga tayyorgarlik holatini o'rganish, ularning ixtisoslik sohalari va ishlab chiqarish yo'nalishlari bo'yicha kasbiy kompetentligini tadqiq etish, pedagogik tashxislashning innovatsion usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri, 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lim

tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmonlari, 2019-yil 10-iyundagi PQ-4356-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi professional ta’limida o‘qitishning dual tizimini tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmonlari, 2012-yil 28-maydagi “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1761-son, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Yangi qonunning asosiy farqlari haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tamiz. Bular: **birinchidan,** ta’lim olish shakllarining tasnifi kengaytirilishi:

– ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy);

– nazariy – ta’lim tashkiloti negizida, amaliy-ta’lim oluvchining ish joyida birga olib boriladigan dual ta’lim;

– oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish;

– katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish va h.k.

Ikkinchidan, Vazirlar Mahkamasi, ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Ta’lim inspeksiyasi), Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi, shuningdek, soha vazirliklari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari tafsilotlari bilan aniqlashtirildi.

Uchinchidan, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarining huquqiy maqomiga ko‘proq e’tibor qaratilishi:

– ta’lim tashkilotlari – ularni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish, ustavga talablar;

– pedagogik xodimlar, ta’lim oluvchilar, ularning ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari – huquqlar, majburiyatlar va kafolatlar bo‘yicha. Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari belgilangan.

To‘rtinchidan, davlat ta’lim standartlari va talablari, o‘quv jarayoniga o‘quv rejalari va dasturlarini, ta’lim sohasiga tajribali va innovatsion faoliyat ta’limini joriy etish bilan bog‘liq masalalar tartibga solingan. O‘qishga qabul qilish, jumladan, maqsadli qabul qilish mexanizmi bayon etilganligi va h.k.larni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4145-son qaroriga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2019-yil 10-iyundagi PQ-4356-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi professional ta’limida o‘qitishning dual tizimini tashkil etish Nizomi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda: dual ta’limni tashkil etishning maqsad va vazifalari, dual ta’limni tashkillashtirish, dual ta’limni tashkil etishda korxona (tashkilot), ta’lim muassasasi va o‘quvchilarning asosiy vazifalariga katta e’tibor qaratilishi ko‘zda tutilgan.

Uzluksiz ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatish tamoyillari quyidagilardan iborat:

– ta’limning ustuvorligi – ta’lim taraqqiyotining birinchi navbatlilik xarakteri, jamiyatning ta’limga, ilmga, aql-zakovat va idrokka bo‘lgan yangi munosabati;

– ta’limning demokratiyalashuvi – ta’lim va o‘qitish uslublarini tanlashda o‘quv yurtlarining avtonom bo‘lishi; ta’limni boshqaruvning davlat-jamoatchilik tizimiga o‘tishi – bunda shaxs, jamiyat va davlat teng huquqli subyekt bo‘ladi.

– ta’limni insoniylashtirish – odamning eng yuqori ijtimoiy qadriyat ekanligini tasdiqlash, shaxsning qobiliyatlarini ochish va turlicha ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish; umuminsoniy qadriyatlarni ustuvorligi, atrof-muhit bilan inson munosabatlarining uyg‘unlashuvini ta’minlash;

– ta’limni insonparvarlashtirish – o‘quvchilarda yuqori madaniyat, yuksak ma’naviyat, dunyoviy fikrlash va tabiatning bir butunliligini shakllantirish;

– ta’limning milliyligi – ta’limning xalq udum marosimlari, milliy tarixi bilan hamohang birlikda bo‘lishi; O‘zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlash va boyitish, boshqa xalqlarning madaniyati va tarixiga hurmat; ta’limni milliy taraqqiyotning eng muhim vositasi deb tan olinishi;

– o‘quv-tarbiyaning ajralmas birligiga, bu birlikning har tomonlama rivojlangan va yetuk shaxsning shakllanish jarayoniga bo‘ysundirilganligi;

– ta’limning ko‘p bosqichliligi – ta’lim bosqichlarining ketma-ketligi va uzviyligi: navbatdagi bosqich – ta’lim negizida davom ettirilishi, ta’lim shaklini, o‘quv-tarbiya muassasalarini (shuningdek, nodavlat o‘quv yurtlarini) tanlashga keng imkoniyatlar yaratilishi, shaxsning qobiliyati va xohishlariga mos keladigan o‘quv-tarbiya shakllarining mavjudligi, o‘quv-tarbiya jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish;

– ommaviy ta’limni elitar ta’lim bilan barcha bosqichlarda birgalikda olib borilishi, iqtidorli va iste’dodli yoshlarni tanlab olish, fundamental bilimlar va ta’limning yuqori bosqichlarida maxsus bilimlarni ketma-ketlikda olish uchun shart-sharoitlarning yaratilishi; shu bilan birga rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi o‘quv yurtlarida bilim olishga sharoitlar yaratilganligi;

– ta’limning uzluksizligi – umumta’lim va professional tayyorgarlikning doimo yangilanib va chuqurlashtirib turilishi, o‘quv-tarbiyaning ketma-ketliligiga erishish, faollik ko‘rsatayotgan kadrlarning zamonaviy texnologiyalar asosida kasbkorlik mahoratini oshirish.

Biror kasbning haqiqiy ustasi bo‘lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma’lum jismoniy va ruhiy xislatlar bo‘lishi zarur. Masalan, artist bo‘lish uchun tabiiy ovoz, eshitish qobiliyati, bejirim surat, jismonan sog‘lom bo‘lish talab etiladi. Rahbarlik vazifasini yaxshi bajarish uchun tashkilotchilik, odamlar bilan muomala-murosa qila olish kabi qobiliyatlarga ega bo‘lish kerak. Aks holda kasbi va ishidan boshqalar ham, o‘zi ham qanoat hosil qilmaydi. Kishi kasbni noto‘g‘ri tanlagan bo‘lsa, unga qiziqmasa, o‘zi ham, boshqalar ham undan baraka topmaydi.

Pedagogik, o‘qituvchilik faoliyatini, yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarish, ota-onalar va o‘quvchilarning izzat-hurmatiga sazovor bo‘lish uchun ham kishida bu ishga layoqat, qobiliyat, qiziqish bo‘lmog‘i lozim. Boshqa kasblar kabi o‘qituvchilik kasbiga ham yoshlar orasidan pedagogik faoliyatga layoqatli, bolalar bilan til topib muomala qila oladigan, ilmli kishilarni tanlab olish kerak.

Pedagoglik kasbini tanlagan kishi, avvalo, sog‘lom bo‘lishi, so‘zlarni to‘g‘ri va yaxshi talaffuz qila olishi, asablari joyida, vazmin bo‘lishi darkor. Shuningdek, bolalarni yoqtirishi, ular bilan ishlashga mayli borligi, boshqalar bilan muloqot qila olishi,

xushmuomalaliligi, kuzatuvchanligi, keng fikrlay olishi, o‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchanligi ham kishining pedagogik ishga yaroqliligini ko‘rsatadi. Bu sifatlar kishida bor-yo‘qligini tibbiyot xodimlari, ruhshunos, pedagoglar og‘zaki va yozma savol-javoblar yordamida aniqlay oladi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta’lim-tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. Maktab o‘qituvchilarining faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan.

Har bir bola o‘z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. Bolalarni tarbiyalashda ularning ana shu o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o‘rganish nihoyatda murakkab. Bunda odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o‘zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko‘rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim. O‘qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning professiogrammasida ifodalanadi: o‘qituvchi shaxsining xususiyatlari; o‘qituvchining ruhiy-pedagogik tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar; maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni; ixtisosga oid uslubiy tayyorgarlikning mazmuni.

O‘qituvchi quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim – g‘oyaviy sohada; ilmiy dunyoqarash va e’tiqod; ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish; ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash; ijtimoiy-siyosiy faollik.

Pedagog kasbi sohasida: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish; ruhiy-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik takt, pedagogik tasavvur; tashkilotchilik qobiliyati; haqqoniylik; dilkashlik; talabchanlik; qat’iylik va maqsadga intilish; vazminlik; o‘zini tuta bilish; kasbiy layoqatlilik.

Keng ilmiy saviya, ma’naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish; pedagogik ma’lumotni oshirishga intilish esa bilish sohasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мамирова Н.Т. Применение блочно-модульной технологии в развитии профессиональной деятельности студенческого коллектива // Молодой ученый, 2013. № 9. – С. 385-387.

2. Sharipov Sh.S. Talabalar ixtirochiligini shakllantirishning pedagogik sharoitlari: Diss…. ped.fan. nomz. – T.: 2001. – 140-b.

3. Abduquddusov O. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.: Fan, 2005, – 157-b.

4. Ashurova S.Y. Maxsus fanlarni modul texnologiyasi asosida o‘qitish. Kasb-hunar ta’limi. – 2004. – 14-15-betlar.

Zulfiya OTABOYEVA,
Ravshanbek MAMATOV,
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, “O‘zbek tili pedagogika va jismoniy madaniyat” kafedrasi o‘qituvchilari

TALABALARDA HAMKORLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada hamkorlikda o‘qitish metodlaridan foydalanib o‘tiladigan mashg‘ulot turi, mashg‘ulotning tuzilishini loyihalashi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif o‘tgan va yangi mavzular yuzasidan talabalar bilimini nazorat qilish uchun test topshiriqlarini tuzishi, talabalarining hamkorlikdagi tahliliy faoliyati tahliliy mashqlar va muammoli topshiriqlarni bajarish jarayoni bo‘yicha o‘z fikrlarini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Hamkorlik madaniyati, bilimini nazorat qilish, faoliyat, tahliliy mashqlar, muammoli topshiriqlar.

В статье рассматривается тип обучения, структура и дизайн обучения с использованием совместных методов обучения. Автор также обсуждает разработку тестовых заданий для контроля знаний учащихся по прошлым и новым темам, совместную аналитическую деятельность учащихся, аналитические упражнения и процесс выполнения заданий.

Ключевые слова. Культура сотрудничества, контроль знаний, активность, аналитические упражнения, постановки задач.

The article discusses the type of training, the structure and course of the training using collaborative teaching methods. The author also discusses the development of test assignments to monitor students knowledge of past and new topics, the collaborative analytical activities of students, analytical exercises, and the process of completing problem assignments.

Key words. Collaboration culture, knowledge control, activity, analytical exercises, problem assignments.

Bugungi kunga qadar o‘qituvchi bilan o‘quvchi hamkorligi o‘z-o‘zidan vujudga keladigan mustaqil hodisa sifatida baholanadi. O‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik hamkorlikni vujudga keltirish uchun birinchi navbatda, o‘qituvchida o‘z talabalari bilan hamkorlik qilish istagining mavjudligi hamda o‘quv dasturlari va darsliklarda ularni hamkorlikka undovchi o‘quv topshiriqlari, mashqlar, masalalar va savol-javoblarning bo‘lishi ham nihoyatda zarur. Ta’kidlash kerakki, faoliyatli o‘qitish metodologiyasi o‘z-o‘zidan o‘qituvchining yangi nuqtayi nazari va mavqeining tarkibiy qismiga aylana olmaydi.

Yosh avlodga zamonaviy ta’lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak iqtisodiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ongi va qalbini mafkuraviy

va ma’naviy tahdidlardan ishonchli himoya qilish, ularda g‘oyaviy immunitet va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalalari davlatimizning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

Ushbu mas’uliyatli ishlarni amalga oshirishda o‘zaro chambarchas bog‘liq uch omil – oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ular orasidagi samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish o‘smirlar orasida turli salbiy illatlarning oldini olishda, bugungi kunning ma’naviy yetuk yoshlarini tarbiyalashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy faolligi ularning axloqiy madaniyat, milliy ma’naviy, umuminsoniy qadriyatlar asosida amalga oshirilgandagina uning mazmuni yanada boyib boradi. Chunki, milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar, shuningdek, insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg‘otish, ongli intizomli yoshlarni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish kabilar axloqiy madaniyatning asosiy omillari hisoblanadi. Axloqiy madaniyatni shakllantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri – insonni jamiyatga bo‘lgan munosabatini yuqori pog‘onaga ko‘tarish va ularning ijtimoiy-ma’naviy faolligini oshirishdir. Bu esa bevosita oila va mahalla jarayonida amalga oshadi.

Hozirgi kunda olib borilayotgan, tashkil etilayotgan barcha jarayonlar ta’lim va tarbiya asosiga qurilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan dasturlarimizning asosini ham mana shu ikki jarayon asosida tuzilgan deyishimiz mumkin. Sababi, yoshlar tarbiyasi, ma’naviyat masalalari, ta’lim berish kabi vazifalar davlatimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan farmon, qaror va farmoyishlarida o‘z aksini topganligi barchamizga ayon. Shu bois, ta’lim va tarbiya masalalari davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan ekanligini barchamiz to‘g‘ri anglashimiz zarur.

Hamkorlikda o‘qitish metodlaridan foydalanib o‘tiladigan mashg‘ulot turi, mashg‘ulotning tuzilishi va borishini loyihalashi; O‘tgan va yangi mavzular yuzasidan talabalar bilimini nazorat qilish uchun test topshiriqlarini tuzishi kerak.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining bir nechta metodlari mavjud: Guruhda o‘qitish (R.Slavin) da talabalar teng sonli ikkita guruhga ajratiladi. Har ikkala guruhda bir xil topshiriqni bajaradi. Guruhda a’zolari o‘quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir talaba mavzuda ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishiga e’tiborni qaratadi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo‘lgan R.Slavinning ta’kidlashicha, talabalarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish bo‘yicha ko‘rsatma berilishi yetarli emas. Talabalar o‘rtasida tom ma’nodagi hamkorlik, har bir talabaning qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur.

Mazkur texnologiyada talabalarning bilimlarni o‘zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir talabaning kundalik natijasi, avval, qo‘lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina talabalar o‘zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas’uliyatni his qilib, ko‘proq izlanishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta o‘zlashtirishga intiladi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining bir nechta metodlari mavjud: kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish (R.Slavin). Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta talabadan tashkil topadi. O‘qituvchi, avval, mavzuni tushuntiradi, so‘ngra talabalarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. Talabalarga berilgan o‘quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir talaba topshiriqning ma’lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har

bir talaba o‘zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o‘rtoqlarini o‘qitadi, so‘ngra guruh a’zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O‘qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test topshiriqlari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. Talabalarning kichik guruhlardagi o‘quv faoliyati o‘yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining bir nechta metodlari mavjud: hamkorlikda o‘qitishning zigzag yoki arra metodi (E.Aronson). Pedagogik amaliyotda bu metod qisqacha “arra” metodi deb nomlanadi. Mazkur metodda kichik guruhlar 6-8 ta talabadan tashkil topadi. Dars davomida o‘rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qism (blok yoki modul)larga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan talabalar bajarishi lozim bo‘lgan o‘quv topshiriqlar tuziladi. Har bir talabalar guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo‘yicha “mutaxassis”ga aylanadi. So‘ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruhlarda har bir qism (blok yoki modul) “mutaxassisi” bo‘lishi shart, mazkur “mutaxassis”lar o‘zlari egallagan bilimlarni huddi “arra” tishlari ketma-ket kelganidek, navbat bilan o‘rtoqlariga bayon qiladi. Mazkur guruhlarda o‘quv materiali mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarining hamkorlikdagi tahliliy faoliyati tahliliy mashqlar va muammoli topshiriqlarni bajarish jarayonida samarali rivojlanadi. Talabalar muloqot jarayonida o‘zaro dialogga kirishadi, muammolarni muhokama qiladi, vaziyatlarni tahlil etadi, o‘zlari va yonidagilarining harakatlarini baholaydi, o‘zaro tajriba almashadi va o‘zlarining turli nuqtayi nazarlarini o‘rtaga tashlaydi, ijodiy quvvatlarini faollashtirishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari /Seminar trening materiallari (trenerlar uchun qo‘llanma). – T.: O‘MKHTM, 2002. – 181-b.

2. Ta’lim texnologiyasi /Roziqov O. va boshqalar. – T.: O‘qituvchi, 1999. – 71-b.

3. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006. – 261-b.

4. Umaraliyeva M.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari // O‘quv-qo‘llanma. – T., 2012-yil. 100-b.

5. Umaraliyeva M.A. Uzluksiz ta’lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish omillari // Uzluksiz ta’lim ilmiy-uslubiy jurnal. – T., 2013 №3. 23-27-betlar.

Mexribonu KAYUMOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA KORPORATIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli rivojlanish davrida shiddatli tarzda rivojlanayotgan zamon bilan hamnafas tarzda zamon talabiga mos, milliy an'analarni o'zida saqlab qolgan holda rivojlangan mamlakatlar talabiga mos ravishda oliy ta'lim muassasasi rivojiga o'z hissasini korporativ madaniyati orqali qo'shadigan kadrlarni yetishtirish, madaniyat, tashkiliy madaniyat, korporativ madaniyat xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Madaniyat, tashkiliy madaniyat, korporativ madaniyat, universitet madaniyati.

В данной статье рассматриваются вопросы подготовки кадров, культуры, организационной культуры, корпоративной культуры, которые в эпоху цифрового развития, наряду с бурно развивающимся временем, в соответствии с требованиями развитых стран, сохраняя национальные традиции, вносят свой вклад в развитие высшего учебного заведения посредством корпоративной культуры.

Ключевые слова. Культура, организационная культура, корпоративная культура, культура высшего образования.

This article focuses on the development of culture, organizational culture, corporate culture, which through corporate culture contribute to the development of higher education in accordance with the requirements of developed countries, keeping pace with the rapidly developing era of digital development.

Key words. Culture, organizational culture, corporate culture, culture of higher education.

Zamonaviy sharoitda doimiy rivojlanish uchun kadr oliy darajadagi muvaffaqiyatning asosiy omillari ularning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan ta'lim muassasalarida rentabellik, harakatchanlik, moslashuvchanlik bo'lib hisoblanadi. Oliy ta'limda muammoni hal qilish jiddiy va qiyin, tan olish kerakki, inert tizim hamda uning harakatchanligi muhitga moslashishi-ijtimoiy muhitning yangi o'zgaruvchan tashqi shartlari quyidagilardir. Kuchli satr-barcha subtitrlarni boshqarishga imkon beruvchi texnik vosita-professor-o'qituvchilarga bo'linmalar, professor-o'qituvchilar tarkibi-maqsadlar, xodimlarning tashabbusini rag'batlantirish, ta'minlash, raqobatbardoshlik oliy ta'limning korporativ madaniyatiga kiradi.

Zamonaviy globallashuv sharoitida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi yangi innovatsion sharoitlarga va iqtisodiyot talablariga muvofiqligini ta'minlashga barcha ta'lim muassasalari amalda harakat qilmoqda.

Korporativ madaniyat "Oliy ta'lim"ning qanchalik samarali yoki samarasiz ishlashini belgilovchi muhim tarkibiy qism bo'lib, ta'lim sifatini ta'minlovchi asosiy vosita sanaladi. Shuning uchun ham oliy ta'limning korporativ madaniyatini o'rganish eng jadal rivojla-

nayotgan ilmiy yo‘nalishlardan biridir.

Ta’lim xizmatlari bozorida yaxshi mavqega ega oliy ta’limni faol isloh qilishni boshlanishi bilan oliy ta’limlar sifat menejmenti tizimi jadal rivojlantirilmoqda, iste’molchilarning talablarini hisobga olish bu faoliyat samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Lekin aksariyat hollarda uning faoliyati amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar oliy ta’lim muassasasining-dasturlari, boshqaruv uslubi, ishni bajarish usullari oliy ta’lim muassasasining korporativ madaniyatini tashkil qiladi, shuning uchun ham pirovard natijada, oliy ta’limning faoliyati past deb baholanadi.

“Madaniyat” tushunchasi keng ma’noda insoniyatning tarixiy rivojlanish tendensiyasi jarayonida yaratgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarining yig‘indisini aks ettiradi. Tor ma’noda esa, jamiyatning ma’naviy hayotini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Lotin tilidan olingan “kultura” atamasi esa “yerga ishlov berish, parvarish qilish, o‘stirish, yer mehnati” ma’nolarini anglatib, insonlar harakatining o‘zgarishi, o‘sishi va inson mehnati bilan bog‘liq jarayonlarini anglatadi.

Tashkiliy madaniyat – bu tashkilot a’zolarining e’tiqodlari, odatlari, qadriyatlari, qarashlari va an’analarining to‘plamidir.

Tashkiliy madaniyat uning strategiyasi, tuzilmalari va tizimi orqali namoyon bo‘ladi. Aniq qadriyatlar va me’yorlarga ega bo‘lgan tashkilot ijobiy xulq-atvorni targ‘ib qiladi, bu esa, tashkilot ichidagi katta mahsuldorlikka va uning tashqarisida tashkilotning yetarli proyeksiyasiga aylanadi.

Tashkilotning qadriyatlari – menejment tomonidan taraqqiy ettiriladigan va rasman e’lon qilinadigan qadriyatlar yig‘indisi bo‘lib, u ishchilarning kommunikatsion tajribasi hamda firma menejerlari tomonidan ko‘rsatiladigan ongli maqsadli ta’sirlar asosida umumiy qadriyatlarning ichki transformatsiyalashuvi natijasi ko‘rinishida va ma’lum vaqt davomida namoyon bo‘ladi. Ayrim mutaxassislar tashkilot qadriyatlarini “korporativ DNK” deb nomlab, shu tashkilotning o‘ziga xos jihatlari, ichki madaniyat uslubi va firmaning mavqeini ajratib ko‘rsatadi.

Korporativ madaniyat – bu tashkilot yo‘lining natijasi, hal qilingan muammolar tarixi va kelajakka ko‘rsatmadir. Yaxshi tashkil etilgan va samarali ishlaydigan tashkilot madaniyati undagi salbiy o‘zgarishlarning oldini oladi va ijobiy tomonlarini saqlashga yordam beradi.

Korporativ madaniyat – bu tashkilot imijining asosi, uning tashqi muhitga va xodimlar nazarida ishonchliligi, tashkilot uchun samarali bo‘lishi juda muhimdir. Ta’minlovchilar va uning sheriklarining tashkilotga bo‘lgan munosabati tashkilotning imijiga, shuningdek, mijozlar va mijozlarning tashkilotga va uning mahsulotiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Mahsulotlarga bo‘lgan talab korporativ madaniyatga bog‘liq va umuman korporativ madaniyat, umuman tashkilotning mavjudligi masalasiga qadar butun tashkilot faoliyatiga ta’sir qiladi.

Korporativ madaniyat – bu muayyan tashkilotning barcha a’zolari tomonidan tasdiqlanmagan va tashkilotning ko‘pchilik tomonidan qabul qilinadigan xulq-atvorining umumiy doirasini belgilab beruvchi murakkab taxminlar to‘plami hisoblanadi. U o‘zini boshqarish falsafasi va mafkurasida, qiymat yo‘nalishlari, e’tiqodlar, taxminlar, xulq-atvor standartlarida namoyon bo‘ladi. Insonning xatti-harakatlarini tartibga soladi va tanqidiy vaziyatlarda uning xatti-harakatlarini oldindan aniqlashga imkon beradi.

Oliy ta’lim muassasasi madaniyati esa – bu oliy ta’lim muassasasining barcha a’zolari tomonidan qabul qilinadigan taxminlar, e’tiqodlar, qadriyatlar va normalar to‘plamidir.

Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib, Oliy ta’lim muassasasi korporativ madaniyati –

bu muassasa faoliyatining mahsuli, sifat ko‘rsatkichi, muassasa a’zolarining e’tiqodlari, odatlari, qadriyatlari, qarashlari va an’analarining to‘plami, muassasaga xos bo‘lgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar, namoyon bo‘lishlar tizimi, o‘ziga xosligini, ijtimoiy-moddiy muhitda o‘zini va boshqalarni idrok etishini aks ettiruvchi, o‘zini tutish, o‘zaro munosabat, o‘zini va atrofni idrok etishdir, degan mualliflik ta’rifini ishlab chiqdik.

Oliy ta’limning korporativ madaniyati ta’lim tizimining turli xil hayotiy shakllari, oliy ta’lim haqida o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizim sifatida gapirish ilm-fanning o‘ziga xosligi, ta’lim berish erkinligi tamoyillariga asoslangan va g‘oyani amalga oshirishning aniq usulini tushunish mumkin.

Bizning nazarimizda oliy ta’lim muassasasi madaniyatining asosiy belgilari quyidagilar:

– oliy ta’limning ko‘p funksionalligi (gen sifatida qobiliyat-zamonaviy bilimlarni olish va ularning transferlarini ta’minlash);

– ilmiy tadqiqotlarga aniq e’tibor (asosan fundamental tadqiqotlar) berish;

– “ilg‘or” ilmiy darajaga ega bo‘lgan ta’lim tizimining mavjudligi, shu jumladan, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlar sonini oshirish;

– iqtisodiyot, fan-texnologiyalardagi innovatsion ilm-fanining zamonaviy yo‘nalishlariga, yuqori sektor ko‘rsatkichlariga e’tibor berish;

– keng mutaxassisliklar, fizika-matematika fanlari, ijtimoiy-gumanitar fanlar bilim va innovatsion ta’limni rivojlantirish;

– xalqaro miqyosda ishlaydigan yuqori malakali o‘qituvchilarni tayyorlash;

– xalqaro fan va ta’lim tizimida oliy ta’lim muassasasida axborotning ochiqligi, integratsiyasining yuqori darajasi;

– o‘qituvchi metodologiyasining yangi yo‘nalishlari dunyo tajribasi va moslashuvchanligi, ilmiy tadqiqotlar;

– talabalarni jalb qilishda tanlov va interaktiv yondashuv;

– oliy ta’lim tizimida maxsus intellektual atrof-muhitni shakllantirish;

– ilm-fanga asoslangan korporativ axloqning mavjudligi, demokratik qadriyatlar va ilmiy erkinliklar;

– texnik-iqtisodiy makon, shu jumladan, texno-mashinalar tuzilmalarini oliy ta’limning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olib, mamlakatlar ichida ilmiy shakllantirish;

– jahonning ilmiy va ta’lim hamjamiyatida barcha yetakchilikka intilish kabilar.

Oliy ta’limda korporativ madaniyatini o‘rgatish zarurligi bir tomondan, ilmiy bilimlarni tarjima qilish va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash vazifasini bajaradigan, boshqa tomondan esa, o‘z an’analari, tarixi, g‘oyasi bo‘lgan madaniy hodisaning bir turi bo‘lgan ijtimoiy-madaniy muassasa hisoblanadi. Bundan tashqari, universitetlar oliy ta’lim tizimining markaziy aloqasi, shuningdek, bilim, axborot va xizmat ko‘rsatish sanoati markazi; asosiy ishlab chiqaruvchi va eng yangi madaniy, ijtimoiy, ta’lim, ilmiy va biznes axborot texnologiyalarining birinchi iste’molchisi shuning uchun universitetning korporativ madaniyati doimo eng katta qiziqish uyg‘otadi.

Korporativ madaniyatni har qanday oliy ta’lim muassasasining strategik vazifasini hal etishning asosiy vositasi sifatida hamda oliy ta’lim muassasasining zamonaviy talaba-qizlarining korporativ madaniyati va shaxsni shakllantirish sohasidagi ijtimoiy-madaniy salohiyatning yetarli darajada amalga oshirilmasligi o‘rtasidagi ziddiyatlarni aniqlash mumkin; oliy ta’lim muassasasining madaniy-ma’rifiy makonida mavjud bo‘lgan oliy ta’lim muassasalari, ularning faoliyati oliy ta’lim muassasasi madaniyatiga talaba-qizlarni jalb qilish va ular bilan bevosita Toshkent davlat Iqtisodiyot

universiteti muhitida hamkorlik qilish zaruriyati hisoblanadi.

Kontent komponenti dastlabki ikkitadan kelib chiqadi va oliy ta’lim muassasasida qabul qilingan qadriyatlar, xulq-atvor normalarini shaxsning motivatsion tuzilishiga interiolizatsiya qilish natijasidir. Interiolizatsiya vertikal ravishda amalga oshiriladi:

– moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish tizimining ta’siri (gorizontal);

– jamoa ichidagi o‘zaro ta’sirida.

Kontent komponentining yuqori darajada rivojlanishi oliy ta’lim muassasasi a’zosi o‘z faoliyatini tashkil etganligi, oliy ta’lim muassasasida qabul qilingan tamoyillar va me’yorlarga ongli ravishda tayanishi bilan namoyon bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasasiga nisbatan rivojlangan korporativ identifikatsiya quyidagi belgilari orqali aniqlanishi mumkin:

– tarix, qadriyatlar, universitet me’yorlari haqida yuqori darajadagi xabardorlik;

– ta’lim muassasasi bilan tanishish;

– universitetga ijobiy munosabatning mavjudligi;

– institutning me’yoriy qadriyatlarini qabul qilish va unga rioya qilish.

Oliy ta’lim muassasasining korporativ madaniyat tashuvchilari bu professor-o‘qituvchilar, talabalar, ma’muriy apparat va xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlaridir. Har bir aloqa muayyan holatlar tufayli oliy ta’lim muassasasida shakllanadigan muayyan qadriyatlar va xatti-harakatlar majmuasiga ega. Ushbu korporativ madaniyat jamoaning ma’naviy va moddiy hayoti hodisalarining katta maydonini qamrab oladi: unda hukmronlik qiluvchi me’yorlar va qadriyatlar, rasmiy yoki norasmiy ravishda qabul qilingan xatti-harakatlar kodeksi va ildiz marosimlari oliy ta’lim muassasasining har bir elementi orqali o‘tadi va shu bilan uning faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim darajasida tashkiliy madaniyat manfaatdor tomonlarning qadriyatlari, urf-odatlari, e’tiqodlari to‘plami sifatida belgilanishi mumkin: rahbariyat xodimlari, pedagoglar, talabalar, boshqaruv a’zolari, ko‘pincha oliy ta’lim muassasasidan biriktirilgan xodimlar. Qadriyatlar va e’tiqodlar qarorlar qabul qilishda, shaxsiy va tashkiliy xatti-harakatlarning shakllariga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim madaniyati – barcha ishtirokchilar (rahbariyat, yordamchi xodimlar va talabalar) korporativ madaniyatni shakllantirishga hissa qo‘shadigan jamoadir. Bundan tashqari, jamiyatning tashqi madaniyati umuman universitetning korporativ madaniyatini shakllantirishga ta’sir qiladi. Akademik tizimning an’analari, mentaliteti, tarixini chuqur tushunish universitet faoliyatining farovonligini ta’minlaydi, bu esa, tashqi va ichki o‘zgarishlarni tushunishga imkon beradi.

Oliy ta’lim madaniyati mavhum tuzilish sifatida qaralishi mumkin. Oliy ta’lim korporativ madaniyatning atributlari, shuningdek, ta’lim va tadqiqot jarayonining barcha ishtirokchilari, aloqa modellarida, tasvir tadbirlarini o‘tkazish usullari ko‘rinishida ifoda etadi. Sorbonna, Garvard, Oksford, Kembrij, Berkli kabi Yevropa va Shimoliy Amerikaning eng qadimgi universitetlarida korporativ madaniyatning tashqi belgilari ularning obro‘siga alohida hissa qo‘shadi. Ushbu universitetlarning ko‘plab binolari, kiyim-kechagi, logotipi, boshqa universitetlar uchun nishon va rol modellari markaziga aylandi.

Yana bir yo‘nalish samaradorligini oshirish xodimlarni boshqarish sifatini oshirish bilan bog‘liq, ijtimoiy tadqiqotlar instituti, o‘rganish va shakllantirish oliy ta’limning obro‘si, boshqaruvni optimallashtirish ilmiy dasturlarni tarqatishdir. Tajriba ishlari shuni ko‘rsatadiki, dasturlar kutilgan natijani bermaydi. Quyidagi sifat mezonlari orqali uni innovatsion korporativ madaniyatini shakllantirish va universitet ichki raqobat muhiti baholanishi mumkin:

– oliy ta’limda korporativ madaniyatning innovatsion monitoring va shakllantirish tizimining mavjudligi;

– innovatsion faoliyat xodimlarini rag‘batlantirish, tizimining mavjudligi;

– xodimlar zaxirasini shakllantirish tizimining mavjudligi;

– oliy ta’limda korporativ ijtimoiy mas’uliyat tizimining mavjudligi.

Oliy ta’lim muassasasidagi mavjud urf-odatlar, ish uslubi va obro‘si ko‘p jihatdan avvalgi tajribalarga asoslanadi. Shuning uchun ham tashkiliy madaniyatni shakllantirishning eng muhim manbai bu – oliy ta’lim muassasasi asoschilarining falsafasiga murojaat qilishidadir. An’anaga ko‘ra, oliy ta’lim muassasasining asoschilari asl madaniyatni shakllantirishga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Ularning orzularini amalga oshirish orqali u kelajakdagi oliy ta’lim muassasasining ideal qiyofasini yaratishga harakat qilinadi. Xodimlarga katta ta’sir ko‘rsatadigan jozibali g‘oyani ilgari surish orqali ular kuchli madaniyatga ega bo‘lgan, birlashgan oliy ta’lim muassasasini yaratadi.

Shunday qilib, korporativ madaniyatning markazida oliy ta’lim muassasasining yaratuvchilari ushbu oliy ta’lim muassasasining nima ekanligini, nima uchun bu sohada faoliyat yuritayotganini, mijozlar uchun qanday majburiyatlarni bajarayotganini, boshqalar bilan muloqotda qanday xatti-harakatlar normalari mavjudligini anglatadi. Oliy ta’lim muassasasining maqsadini aniqlash-rahbar tomonidan hal qilinishi kerak bo‘lgan eng muhim axloqiy masaladir. R. Merton bu axloqiy tanlov “asosan korporativ faoliyat yuritadigan qadriyatlar tizimi tomonidan belgilanadi”, bu qadriyatlar, o‘z navbatida, korporativ madaniyatning iqtisodiy funksiyalariga emas, balki hozirgi iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy vaziyatda topilgan rahbarlarning madaniyati, an’analari, o‘z tajribasi va shaxsiy moyilligi”dadir deb, ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-sonli Qarori.

3. Falsafa qomusiy lug‘at, (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq 2004 – 230-b.

4. Ташходжаев М.М., Бегматова Д.Б. Корпоративная культура. – T.: Iqtisodiyot – 2019.

5. Belyayev A. Universitetning korporativ madaniyati: nazariyadan amaliyotga// Rossiyada oliy ma’lumot. – № 10.

6. Andree Sursock va Hanne Smidttrends 2010. – EUA, 2010. – P.244.

7. Merrill the University in a Corporate Culture / T. Merrill. – New Haven: Yale University Press, 2003. – P.364.

Muxlisa MAMATQULOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

TA’LIM MUASSASALARIDA YOSHLARNI MA’NAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida yoshlarni ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish yo‘llari, ma’naviy meros va milliy qadriyatlardan o‘zaro uyg‘unlikda foydalanishning ahamiyati, bu sohada ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, talabalarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishning pedagogik omillari hamda ta’lim jarayonida uni amalga oshirishning o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ma’naviy meros, xorijiy tajriba, jarayon, ta’lim, dunyoqarash, milliy qadriyat.

В статье рассматриваются пути развития духовного мировоззрения молодежи в высшей школе, важность гармоничного использования духовного наследия и национальных ценностей, использование передового зарубежного опыта в этой области, педагогические факторы в развитии духовного мировоззрения студентов, специфика его внедрения в образовательный процесс.

Ключевые слова. Духовное наследие, зарубежный опыт, процесс, образование, мировоззрение, национальные ценности.

This article discusses ways to develop the spiritual outlook of young people in higher education, the importance of harmonious use of spiritual heritage and national values, the use of advanced foreign experience in this field, pedagogical factors in the development of students’ spiritual outlook and the specifics of its implementation in the educational process.

Key words. Spiritual heritage, foreign experience, process, education, worldview, national values.

Mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida, talabalarni mustaqil o‘zini-o‘zi rivojlantirishga va ta’lim olishga yo‘naltirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish, mutaxassislik fanlarining imkoniyatlarini integratsiyalash asosida fanlararo modulli ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish, talaba-yoshlarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirishning texnologiyalarini takomillashtirish, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonini modernizatsiyalashgan metodik ta’minotini hamda pedagogik-profilaktik mexanizmlarini takomillashtirish, tarbiyalashning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Globallashuv sharoitida mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida talabalar ma’naviyatini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi ma’naviy burch, ma’naviy fazilatlarni rivojlantirishga ijtimoiy gumanitar, umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bo‘yicha auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarning mazmuni, shakl va metodlarini o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish natijada bo‘lajak mutaxassislarning ma’naviy qiyofasini rivojlantirish, ma’naviy sifatlarini diagnostika qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada oliy ta’lim muassasalari talabalarida nafaqat umummadaniy kompetensiyalarni, shuning-

dek, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga doir turli axborot manbalarini mustaqil izlab topish va ulardan foydalanish, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat subyektlari bilan samarali muloqotga kirishish, innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga doir ilmiy-texnik axborotlarni aniqlash, tahlil etish va qayta ishlash kabi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qildi.

Shuningdek, yangi jamiyatni barpo etish jarayonida esa, ma’naviy qadriyatlarni to‘g‘ri baholay olishni, soxta qadriyatlardan yoki tarixan eskirgan, o‘zidagi bunyodkorlik va ijobiy salohiyatni sarflab bo‘lgan qadriyatlardan haqiqiy hayotbaxsh qadriyatni ajrata bilish talab etiladi.

Milliy qadriyatlarga, madaniy merosga ilmiy asosda to‘g‘ri yondashish asosiy tamoyillarga xos mezonlar – insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqchillik va taraqqiyotparvarlikdir. Bu mezonlarning har birida milliylik va umuminsoniylik mujassamlashgan. Ular mohiyatan umuminsoniy xarakterga ega bo‘lsa-da, har bir tarixiy davrda muayyan xalqlarning ehtiyojlarini yuzaga chiqaradi va ularni qondirishga xizmat qiladi. Shu bois, ularning zamirida mujassam bo‘lgan umuminsoniylik milliy ehtiyojlarni muayyan milliy shaklda ifodalagan va o‘z mazmunini ularga moslashtirgan holda yuzaga chiqaradi. Mazkur mezonlarga nafaqat milliylik va umuminsoniylik, balki tarixiylik ham xosdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, ma’naviy yo‘nalishlarimiz iqtisodiy yo‘nalishlardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak. Ana shunda biz hozirda qilayotgan katta-katta rejalarimiz, dasturlarimiz amalga oshadi, ma’naviyat va ma’rifat insonning insoniyligini bildiruvchi, uning ruhiy olamini tarbiyalovchi asosiy vositadir.

Kishining jamiyatdagi o‘rni uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak ma’naviy qiyofasi bilan belgilanadi. Xalqimiz ma’naviyat va madaniyat, ta’lim va tarbiyaga oid boy merosga ega bo‘lib, asrlar mobaynida yosh avlodga insonparvarlik, vatanparvarlik, do‘stlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, birodarlik va bag‘rikenglik kabi umuminsoniy fazilatlarni har tomonlama chuqur singdirib kelgan.

Albatta, hozirgi zamon taraqqiyotini, shiddatli o‘zgarishlarini va siyosiy jarayonlarini o‘tmish asrlarga tenglashtirib bo‘lmaydi. Yangi zamonning o‘z talab va ehtiyojlari bor. Zero, dunyo o‘zgargan, undagi shaxslar faoliyati ham unga xosdir. Bu o‘zgarishlar shubhasiz qanchalik bo‘lmasin, zamon talabiga javob beradigan bo‘lishi lozim. Demak, ma’naviyat va ma’rifat ham zamonaviy zaruriyatga aylanishi tabiiydir.

Inson va uning ma’naviy kamoloti uchun shart-sharoitlarni yaratish bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarimizning asosiy maqsadini tashkil etadi. Xalqimizning boy ma’naviy-intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlar, iqtisodiyot, fan, madaniyat va zamonaviy texnologiyalar yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Ma’naviyat – insonlarning o‘zaro munosabatlari, ularning hayotiy tajribalari davomida shakllangan va rivojlangan qadriyatlar tizimi hisoblanadi. Ma’naviyat insonning o‘zligini, ruhiy olami va fahm-farosatini aks ettiradi, shuningdek, yaxshilikni yomonlikdan, adolatni razillikdan, oqillikni johillikdan farqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviyatni shakllantiruvchi omillar xilma-xil bo‘lib, uni odam umri davomida egallab boradi. Bola, dastavval, oilada ota-onasidan eshitgan, ko‘rgan-bilganlariga amal qilsa, so‘ngra bog‘cha, maktab, litseylarda murabbiy va o‘qituvchilar ko‘magida o‘zining ma’naviy dunyosini rivojlantirib boradi.

Ma’naviyatni yuksaltirishning bosh yo‘li endilikda ham ‘‘Bilim va tarbiya’’ ekanligi namoyon bo‘lmoqda. Ma’naviyatni tor tushunishdan endi voz kechilmog‘i darkor. Ma’naviyatli bo‘lish – bu faqat tarbiyali va mo‘min qobil inson bo‘lishgina emas, balki bu

tariximiz va ajdodlarimiz, boy madaniy merosimizni o‘ylab millat kelajagi uchun bosh qotirish, boshqa millat vakillariga insoniylik munosabatlarini ko‘rsatish, milliy g‘urur va iftixorga ega bo‘lish, el-yurt deb, yonib yashash, urf-odat, qadriyatlarni tiklash va e’zozlash kabi juda ko‘p sohalarni qamrab oladiki, bular har bir shaxsda mujassamlashgan bo‘lishi shart.

Mamlakatimizda “jaholatga qarshi – ma’rifat” degan ezgu g‘oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do‘stlik kabi oliyjanob maqsadlarga xizmat qilishini targ‘ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo‘lib qoladi.

Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqmiz” deb bildirgan fikrlarida bugungi kunda hayotimizda ilm-ma’rifat, madaniyat va ma’naviyatning o‘rni beqiyos ekanligini juda to‘g‘ri ko‘rsatib berganliklarini anglab yetmoqdamiz.

Bugungi kun ilmiy-texnik taraqqiyot mislsiz darajalarda rivojlangan asrda yuqori texnologik sanoat korxonalari, davlat va dunyo hamjamiyati faqatgina texnologik jarayonlarni ta’minlay oluvchi ma’lumotli kadrlargagina emas, balki bu jarayonda harakatda bo‘lgan tuzilmalar o‘rtasidagi munosabatlarda ham munosib o‘rin egallay oladigan kadrlarga muhtojligini ta’kidlamoqdalar.

Xuddi shu ehtiyoj va talablar ijrosining tahlilida iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan faol mutaxassislarning kompetensiyasi yetarli bo‘lmayotganligi ko‘zga tashlanadi. Bo‘lg‘usi mutaxassislarga qo‘yiladigan eng zarur talablardan biri bu – ma’naviy yetuklik hisoblanadi. Bu dunyoqarash unga kasb amaliyoti doirasida paydo bo‘luvchi munosabatlarda va shaxsiy hayotda yuqori ijtimoiy madaniyatni namoyish etishga imkon yaratadi. Inson ma’naviyatining falsafiy-ijtimoiy hodisa sifatidagi tahlilida ma’naviy qadriyatlar jamiyat ma’naviy hayotining tuzilmasi va funksiyalarining muhim richagi sifatida tan olinishidan kelib chiqib mazkur hodisa insonning faoliyat yuritishga qodir bo‘lgan kuchlari jamlanishi jarayonida shaxs ongining rivojlanish xususiyatlari hamda ijtimoiy turmushning qadriyatli jihatlari bilan an’anaviy tarzda nisbatlanishini ko‘rsatib beradi. Millatning sog‘lom yoki nosog‘lomligi ma’naviyatning aks etish xarakteri va darajasiga, uning yo‘q bo‘lib ketishi yoki qayta tiklanishiga bog‘liqdir. Millatimizning sog‘lom bo‘lishi uchun barchamiz mas’ul ekanligimiz va bu borada o‘z hissamiz qancha bo‘lishini buyuk bobokalonimiz, dunyoning “ikkinchi muallimi” Abu Nasr Farobiy (873–930) bundan qariyb XX asr oldin belgilab bergan edi. “Inson yuksak kamolotga erishuv yo‘lida harakat qilganidek, aqliy bilishga ham harakat qilsa, hech shubhasiz, o‘zi intilayotgan so‘nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi”.

Hozirgi kunda ma’naviyat tushunchasi insonning fundamental-asosi sifatida xizmat qiluvchi tushunchasi bilan qiziqarlidir. Bu falsafada insonni birinchi navbatda, inson qiluvchi umumnasliy va betakror individual xususiyatlari ham nazardan chetda qoldirilmagan. Ma’naviyat tushunchalar shakllanishining ichki va tashqi dunyosiga yo‘naltirilgan, shuningdek, inson ma’naviy hayotining boshqa jihatlari, darajalari, holati va boshqalarga yo‘naltirilgan ratsional va emotsional-effektli jihatlarni, gnoseologik-kongitiv va qadriyat-motivli daqiqalarni, ongli va kuchsiz his etuvchi qirralarni birgalikda va o‘zaro aloqada qamrab oladi. Ma’naviyat obyektiv voqeiyliklarning predmetlar olami bilan bog‘liqligini mana shu bog‘liqliksiz o‘zlashtirishga, buyumlarning mohiyati va qiyofasini buyumlarsiz o‘zlashtirishga, dunyoni, dunyoning o‘zisiz o‘zlashtirishga imkon beruvchi ideallik sifatida va insonning inson sifatida namoyon bo‘luvchi “men”dan iborat bo‘lgan uning subyektiv dunyosi hamda mazkur “men”ning xususiyati sifatida ko‘rib

chiqiladi.

Ma’lum soha mutaxassislarini kasbga tayyorlashda ularning ma’naviy qadriyatlarga yuzlanganligi muammosi ushbu faoliyatni aksiologik yondashuv nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv insonning ma’naviy xususiyatlari umumiyligini aniqlashtirishga imkoniyat yaratadi. Bu xususiyatlar shaxsning bir butunlikda jamlana olgan holda harakatchanligini, yetakchilik xususiyatiga ega ekanligini tasdiqlovchi faol ijtimoiy pozitsiyasini, faoliyat yuritishga tayyorligini aniqlab beruvchi tavsiflar bilan bog‘liq.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy dunyoqarashni rivojlantirishga e’tiborni kuchaytirish, uning insonparvarlik yo‘nalishlarini kuchaytirishga, ijodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirishga, ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishga yordam beradi.

Ma’naviy dunyoqarashni rivojlantirishning (oliy ta’limdagi imkoniyatlari) pedagogik mazmuniga kelsak, bo‘lajak mutaxassislarning jamiyat nuqtayi nazaridagi ijtimoiy, ma’naviy va emotsional qadriyatlarni (bilimlar, ishonch, me’yorlar, munosabatlar, o‘zini tutish namunalari va boshqalar) egallab olishlari, akademik guruhlar hayot faoliyatida, talabalarning o‘quv-kasbiy faoliyatida va ularga individual yordam jarayonida o‘zligini anglashi va belgilashi uchun reja asosidagi, maqsadga yo‘naltirilgan maqbul sharoitlar yaratib berishdan iborat bo‘ladi. Bugungi kunda Oliy ta’lim muassasalaridagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda taqdim etilgan yondashuv juda dolzarb hisoblanadi va iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash yetarlicha ishlab chiqilmagan va amalga oshirilmayotganligini ko‘rish mumkin.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarini ma’naviy qadriyatlarga yo‘naltirish jarayonining tahlilida: 1) talabalarning shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy va kasbiy pozitsiyalaridagi tavsiflari; 2) bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyat yo‘nalishlari, 3) talabalarning oliy ta’lim muassasalaridagi kasbiy tayyorgarligining yo‘nalishlari mazmunlarida o‘qib o‘rganilishini taqozo etadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyot oliy ta’lim muassasalarida zamon va jahon bozori talablari asosida mutaxassislarni tayyorlash vazifasining bajarilish darajasi bugungi kunda mutaxassislarning ko‘rsatib o‘tilgan talablarga mosligini ta’minlovchi ta’lim tizimi shakllantirilganligi va uning samarasiga baho beruvchi asosiy mezon sifatida nafaqat mutaxassisning, balki ta’lim sifatini belgilab beradi. Shuning uchun tadqiqot ishimizning tahlillari asosida hozirgi kun nazariyasida ushbu malakali mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi amaliyotida ularning kasbiy faoliyati vazifalari va mazmuniga nisbatan uchta asosiy yondashuvga tayanish zarurligini ko‘rsatib berdi.

Birinchi yondashuv kasbning vazifasini (belgilangan maqsadi) iqtisodiyot oliy ta’lim muassasasida pedagogik jarayonni kuchaytirish, inson yashaydigan ijtimoiy-madaniy muhitni insonparvarlashtirish, jamiyatdagi munosabatlarni pedagogik yo‘nalishga kiritish (masalan, “ustoz-shogird” munosabatlari tamoyilida ish yuritish) vositasida ta’minlash deb belgilab beradi. Ikkinchi yondashuv tanlangan kasbning vazifasini (belgilangan maqsadini) talabalarni iqtisodiy-ijtimoiy-pedagogik faoliyati (tabaqalashtirilgan pedagogik faoliyat) sifatida belgilaydi. Uchinchi yondashuv ijtimoiy tarbiya konsepsiyasi asosidagi faoliyat sanaladi. Bu faoliyat ijtimoiy yo‘nalish sifatida kasbning mohiyati va vazifasi (belgilangan maqsadi)ni oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ijobiy rivojlanishi va ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalanishi uchun maqbul sharoitlarni yaratish maqsadida ularning birlamchi (ijobiy rivojlantirish vaziyatida) va ikkilamchi (rivojlanish buzilishining turli ko‘rinishlari va darajalarida) ijtimoiy tarbiyani amalga

oshirish vazifasi sifatida belgilaydi.

Yuqorida ta’kidlanganlarning barchasi insonning ma’naviy dunyoqarashini kengaytiradi. Zero, yuksak ma’naviyatli bo‘lishga intilmaydigan shaxsni (talabani) tarbiyalab bo‘lmaydi. Dunyoqarashni tushunishga bo‘lgan juda ko‘p yondashuvlar mavjud, uning turlicha tuzilmalari ko‘plab misollarda va isbotlarda keltirilgan. Biz uchun “ma’naviy dunyoqarash” bilan bir qatorda “kasbiy dunyoqarash” tushunchasi ham muhim. Avvalo, tub ma’noda tushunilishi qiyin bo‘lgan “kasbiy dunyoqarash” tushunchasining mohiyatini ko‘rsatib berish zarur. Zero, birinchi marta eshitilgan yoki o‘qilgan har qanday atama qiziqish uyg‘otishi tabiiy, “kasbiy dunyoqarash” tushunchasi ham bundan istisno emas.

Bugungi zamonaviy globallashuv sharoitida oliy ta’lim tizimida ta’limning muhim funksiyasi yoshlarni tarbiyalashdir. Yosh avlodni tarbiyalash jamiyatning hayot faoliyati va uning rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir etadi va quyidagi funksiyalarga ko‘maklashadi:

– milliy madaniyatning qayta ishlab chiqilishi va rivojlanishi;

– ijtimoiy-madaniy sohadagi meros bo‘lib o‘tishini amalga oshirish;

– bo‘lajak mutaxassislarda kelgusidagi kasbiy va ijtimoiy faoliyat sohasidagi eng yangi bilimlarga shaxsning erkin rivojlanishi uchun sharoitlarni yaratish.

Tarbiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishi, jamiyatda tarbiyaviy faoliyatni tahlil etish vaqtida tayanuvchi toifa va tushunchalar jamiyat tarixi va amaliyoti bilan obyektiv ravishda bog‘liq bo‘ladi. Bu mazmunda tarbiya jamiyat hayotining siyosat, odob-axloq, fan, san’at, din, huquq kabi shakllariga asoslanadi.

Ma’naviy tarbiya ta’lim tizimining organik qismi sifatida shaxsning rivojlanishi, uning hayotda o‘z o‘rnini topishi va hayot tasdig‘ini topishi uchun sharoitlarni yaratadi. Bu ta’rif ma’naviy tarbiyada maqbul tarbiyaviy muhitni yaratish va bu muhitni har bir shaxsga in’om etilgan qobiliyat va iste’dodni maksimal amalga oshirishga imkon bera oluvchi shakl va metodlar bilan to‘ldirish orqali shaxs rivojlanishini boshqarish jarayoni sifatida talqin etish imkoniyatini yaratadi. Shaxs rivojlanishini boshqarish jamoaviy va tabiiy muhitdagi o‘zgarishlarga yo‘llangan yosh avlodning hayotiy qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Talabalarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik omili sifatida ijtimoiy yo‘nalishda bo‘lgan mutaxassisliklar sohasini rivojlantirishni olish mumkin. Ma’naviy dunyoqarashi yuqori bo‘lgan shaxsni tarbiyalash vositasi sifatida turizm yo‘nalishi tanlanayotganligi ham bejiz emas. Birinchidan, yoshlarning imkoni boricha ko‘proq bilimlarni egallash qobiliyati va intilishi kabi psixologik xususiyatlari bilan, ikkinchi tomondan esa, o‘z faoliyatini tizimlashtirish va jamiyat bilan aloqalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari ozligi bilan izohlanishi mumkin. Qadimdanoq jismoniy tarbiya, sport va turizm bilan shug‘ullanishga o‘sib kelayotgan avlodni yot g‘oyalar salbiy ta’siridan saqlab qoluvchi pedagogik vosita sifatida qaralgan.

Zamonaviy jamiyat rivojlanishining maqsad va vazifalarini to‘g‘ri tushungan holda oliy ta’lim ma’naviy-axloqiy tarbiya funksiyasini amalga oshirish sharti hisoblanadi. Chunki, bu funksiya o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikkita asosiy jarayon:

– shaxsga amaliy faoliyat va turli hayotiy vaziyatlarda tanlangan asosiy qadriyatlarni amalga oshirishga imkon yaratuvchi bilim va ko‘nikmalarni egallash;

– qadriyatlarni (umuminsoniy, milliy, shaxsiy) egallash bilan bog‘liq bo‘lgan huquq va majburiyatlarni o‘zlashtirish maqsadida ijtimoiylashish.

Oliy ta’lim mazmuni nuqtayi nazaridan olib qaralganda, ma’naviyatni shakllantirish

bevosita bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy axloqi bilan bog‘liq bo‘ladi. Kasb axloqi – bu insonning o‘z kasbiy burchiga bo‘lgan munosabatini, insonlarning mehnat sohasidagi ma’naviy munosabatlarini belgilab beruvchi odob-axloq me’yorlari majmuidir. Jamiyatda moddiy qadriyatlarning uzluksiz ishlab chiqarilishi bevosita bo‘lajak mutaxassisning kasbiy axloqi bilan bog‘liq bo‘ladi. Kasb axloqi – bu insonning o‘z kasbiy burchiga bo‘lgan munosabatini, insonlarning mehnat sohasidagi axloqiy munosabatlarini belgilab beruvchi axloqiy me’yorlar majmuidir. Jamiyat faqat moddiy boyliklar va qadriyatlar uzluksiz ishlab chiqarilishi natijasidagina normal faoliyat yuritishi va rivojlanishi mumkin.

Kasbiy axloqning mazmuni insonlar o‘rtasidagi ma’naviy aloqalarning ma’lum turini belgilab beruvchi intizom kodekslari va ushbu kodekslarni asoslash usullaridir.

Kasbiy axloq orqali quyidagilar o‘rganiladi:

– mehnat jamoalari va alohida har bir mutaxassisning munosabatlari;

– mutaxassis shaxsining kasb burchini eng yaxshi tarzda bajarilishini ta’minlovchi ma’naviy sifatlari;

– kasbiy jamoalar ichidagi o‘zaro munosabatlar va ushbu kasbga xos bo‘lgan xususiyatli ma’naviy me’yorlar;

– kasbiy tarbiyaning xususiyatlari.

Inson faoliyatining har bir turi (ilmiy, jismoniy, pedagogik, xizmat ko‘rsatish, badiiy va boshqalar) ma’lum kasb odobi (axloqi)ga ega.

Axloqning kasbiy turlari – bu bevosita odamga (insonni) uning jamiyatdagi hayoti va faoliyatining qaysidir sharoitlarida tegishli bo‘lib qoluvchi kasb faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlaridir. Kasb axloqini o‘rganish ma’naviy-axloqiy munosabatlar ko‘p qirrali va turli ekanligini ko‘rsatib beradi. Har bir mutaxassis uchun qaysidir kasbiy axloqiy me’yorlar maxsus ahamiyatli bo‘lib qoladi. Kasbiy axloqiy me’yorlar – bu axloq ideallari asosida shaxsning o‘zini-o‘zi boshqarish qoidalari, namunalari tartibidir.

Yangi davrning yuqori talablari va jamiyatning mutaxassislarga bo‘lgan talablari oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy faoliyatida o‘zini-o‘zi ro‘yobga chiqarishga tayyorligini shakllantirishning yanada samaraliroq sharoitlarini yaratish zaruriyatini belgilab bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. PF-4947-sonli 2017-yil 7-fevral.

2. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar.

3. “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” Davlat dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 3-fevral 2021-yil.

4. Quronov M. Oila va barkamol avlod tarbiyasi. – T.: Ma’naviyat, 2012. – 134-b.

5. Sharipova D. Ma’naviy barkamol shaxsni shakllantirish – jamiyat taraqqiyotining asosi. – T.: Fan va texnologiya, 2002. – 21-b.

6. Hakimova M.F., Mamatqulova M.M. Zamonaviy iqtisodchining shaxsi. – T.: Iqtisodiyot, 2020.

Shosaid YUNUSOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2-bosqich magistratura talabasi
Eldor ASHIRALIYEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2-bosqich magistratura talabasi

XALQ TA’LIMI TIZIMIDA KADRLAR MASALASI: MUAMMO VA YECHIMLAR

(Sirdaryo viloyati xalq ta’limi tizimi misolida)

Annotatsiya

Mazkur maqolada xalq ta’limi tizimida muhim o‘ringa ega bo‘lgan kadrlar masalasi haqida fikr yuritiladi. Bugungi kunda xalq ta’limi tizimida bir qator tizimli muammolar yuzaga keldi. Shuningdek, aynan shu kabi muammolar va ularni yechimi bo‘yicha takliflar aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Kadrlar, salohiyat, kadrlar rotatsiyasi, motivatsiya, kadrlar faoliyatini baholash, kadrlarni tanlash, kadrlar zaxirasi.

В статье обсуждается вопрос о человеческих ресурсах, которые играют важную роль в системе государственного образования. Сегодня в системе народного образования существует ряд системных проблем. Также рассматриваются похожие проблемы и предлагаются решения.

Ключевые слова. Персонал, кадровый потенциал, ротация персонала, мотивация персонала, оценка персонала, подбор персонала, кадровый резерв.

This article discusses the issue of human resources, which play an important role in the public education system. Today, there are a number of systemic problems in the public education system. This article looks at similar problems and suggests solutions.

Key words. Personnel, personnel potential, personnel rotation, personnel motivation, personnel assessment, personnel selection, personnel reserve.

Bugungi kun bizdan zamon talabiga hamnafas bo‘lishga undamoqda. Barcha sohalar va yo‘nalishlarda kadrlar masalasi dolzarb mavzuga aylangan. Chunki barchasini kadrlar hal etadi degan ibora bor. Bu shuni anglatadiki, agarki tashkilotda kadrlar malakasi yetarli bo‘lmasa, o‘z ishining ustasi bo‘lganlar faoliyat yuritmasa, bunday joyda o‘sish, taraqqiyot, rivojlanish bo‘lmaydi. Xuddi shunday xalq ta’limi tizimida ham kadrlar masalasiga jiddiy e’tibor qaratish vaqti keldi. Ushbu jarayonda asosiy e’tibor quyi tizimga qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, hududiy boshqarmalar rahbar va mutaxassis xodimlariga e’tibor qaratish lozim. Masalaning mohiyati shundan iboratki, so‘nggi yillarda pedagog kadrlar va rahbar xodimlar tayyorlash tizimi ancha oqsab qoldi. Bu qaysi ma’nodaki, ayrim hududlarda hamon kadrlar tanqisligi muammosi kuzatilmoqda. Oliy o‘quv yurtlarini har yili minglab yoshlar tamomlasada, ularning aksariyati pedagogik sohada faoliyat yuritishga qiziqish bildirmaydi. Yana bir masala zamon talablari darajasida ta’lim tizimi uchun malakali rahbarlarni tayyorlanmasligidir. Bugungi kunda

ta’lim muassasasi rahbarligiga tayinlangan nomzodlar asosan, A.Avloniy nomidagi ilmiy tadqiqot institutida tashkil etilgan rahbar xodimlarni malakasini oshirish kursini tamomlamoqda. Kursning samarali tashkil etilganligini hududlardagi maktablarning ta’lim sifatidan ham bilsa bo‘ladi. Shuningdek, ta’lim tizimida o‘rta maxsus ma’lumotli hamda qayta tayyorlovdan o‘tgan xodimlarni faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu jarayonga xalq ta’limi tizimi xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari va malaka tavsiflari to‘g‘risidagi 393-sonli buyruqning o‘zi ham yo‘l ochib bergan. Har holda o‘rta maxsus ma’lumotli hamda qayta tayyorlovdan o‘tgan xodim bilan bakalavr darajasiga ega mutaxassis xodimning o‘rtasida sezilarli farq bo‘lsa kerak.

Xalq ta’limi vazirligi oldida turgan yana bir masala bor. Bu sohada gender tengligi masalasidir. Uzoq yillar mobaynida sohaga e’tiborning pasayishi ta’lim tizimidan erkak pedagoglarni chiqib ketishiga olib keldi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida erkak xodimlar ulushini oshirishga e’tibor qaratilayotgan bo‘lsa-da, lekin bu boradagi statistika sezilarli darajada o‘zgarmayapti. Sirdaryo viloyatida ham bu holat pastligicha qolmoqda. Erkak xodimlarni ta’lim tizimidan uzoqlashib ketganligini ko‘plab sabablari mavjud. Xalq ta’limi jamiyat taqdirini hal etuvchi bo‘g‘in hisoblanadi. Aynan sohani jozibadorligi oshirilmas ekan, sohani xalq ichidagi mavqei ham, boshqa kasblar orasidagi nufuzi ham o‘smaydi. Buning uchun nima qilmoqlik kerak? Eng avvalo, soha uchun kadrlar tayyorlash tizimini chuqur qayta ko‘rib chiqish kerak. Bundan tashqari mehnatga haq to‘lash masalasini ham takomillashtirish lozim. Chunki kasb tanlayotgan har bir shaxs kasbidan qanday rohat ko‘rishi haqida ham qayg‘uradi, albatta. Vertikal va gorizontal karyerani rivojlantirish lozim. Shuningdek, xalq ta’limi tizimida kimlar pedagoglik faoliyati bilan shug‘ullanishi kerakligini aniq qilib olish kerak. O‘rta maxsus ma’lumotga va qayta tayyorlov sertifikatiga ega shaxslarni yoinki oliy pedagogik ma’lumotga ega mutaxassislarni. Kasbiy jozibadorlikni yo‘qligi tufayli ham mavjud bo‘shliqni to‘ldirish uchun o‘rta maxsus va qayta tayyorlov darajasiga ega xodimlar ham sohada faoliyat yuritishiga yo‘l berilmoqda. Agar Sirdaryo viloyatidagi kadrlar borasidagi mavjud vaziyatni tahlil etadigan bo‘lsak quyidagilar anglashiladi:

Sirdaryo viloyati xalq ta’limi boshqarmasi tarkibidagi xodimlar tarkibini 2021-yil 1-maygacha bo‘lgan davrga qadar boshqarma tarkibida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar soni 62 nafarni tashkil etadi. Quyidagi ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, boshqarma xodimlarining 29 foizini ayollar tashkil etishi anglashiladi.

Ayollar asosan, texnik xodimlar tarkibida, buxgalteriya bo‘limida, metodik xizmat bo‘limida, ijro intizomi bo‘limida faoliyat yuritmoqda.

Boshqarmada rahbarlik vazifasida faoliyat ko‘rsatayotganlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak: boshqarma boshlig‘i, 3 nafar boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari, 8 nafar bo‘lim boshlig‘i va 5 nafar sho‘ba mudirlaridan iborat. Mutaxassislar tarkibini tahlil etadigan bo‘lsak, quyidagilar ma’lum bo‘ladi: 9 nafar bosh mutaxassis, 15 nafar yetakchi mutaxassis, 12 nafar mutaxassis kategoriyasiga ega xodimlar faoliyat yuritmoqda.

Viloyat xalq ta’limi tizimida erkak o‘qituvchilarning soni 2016-2020-yillar oralig‘ida 616 nafarga ya’ni 4,8 foizga o‘sdi. Bu ko‘rsatkich umumiy o‘qituvchilar soniga nisbatan 4655 nafarni tashkil etmoqda.

Viloyat ta’lim tizimdagi asosiy muammolar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– tizim faoliyatiga malakali kadrlarni jalb qilish;

– viloyatda mavjud bo‘lgan qizil toifadagi 29 ta umumta’lim maktablariga metodik yordam ko‘rsatish;

– qizil toifadagi muassasa rahbarlari va pedagog xodimlari salohiyatini rivojlanti-

rish;

– ta’lim muassasalari uchun istiqbolli pedagog kadrlar zaxirasini shakllantirish;

– boshqaruv ko‘nikmasiga ega bo‘lgan, istiqbolli yoshlarni rahbarlik lavozimlariga tayinlash;

– tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlariga salohiyatli metodistlarni jalb qilish;

– xalq ta’limi boshqarmasi, tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limi rahbarligiga nomzodlarni lavozimga tayinlash tartibini takomillashtirish;

– xalq ta’limi tizimidagi barcha rahbar xodimlar salohiyatini rivojlantirish, baholash tizimini takomillashtirish, rahbar xodimlarni rivojlangan xorij davlatlarida qisqa muddatli kasbiy stajirovka o‘tashlarini tashkil etish.

Sirdaryo viloyatida mavjud ta’lim muassasalari, hududiy boshqarma va bo‘lim rahbarlarining kasbiy salohiyatiga doir masalalarni qamrab olgan so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlar tomonidan berilgan javoblar natijasida quyidagilar ma’lum bo‘ldi. Quyida berilgan asosiy ko‘nikmalardan normativ-huquqiy hujjatlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasi 50 foiz, boshqaruv qarorlarini qabul qilish 48,6 foiz hamda moliyaviy menejment bo‘yicha 45 foizga yaqin rahbarlar o‘z malakasini oshirishga ehtiyoji borligini ma’lum qilgan. Qolgan ko‘nikmalar strategik menejment 23,6 foiz, stress menejment 20,1 foiz, time management 14,6 foiz, hard va soft ko‘nikmalari 13,2 foiz, HR-management 12,5 foizni tashkil etgan. Ushbu ko‘nikmalarning rahbarda mavjud bo‘lishligi tashkilotning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Rahbarlar eng ko‘p duch keladigan muammolar bu normativ-huquqiy hujjatlarni amaliyotda qo‘llash, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, shuningdek, moliyaviy boshqaruv masalasidadir. Ushbu uch ko‘nikma har qanday rahbar faoliyatida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Yuqoridagi holatdan ma’lum bo‘ladiki, rahbarlarning aksariyat qismi o‘zlarining bu boradagi bilimini oshirib borishga ehtiyoji mavjudligini ma’lum qilmoqda. Sirdaryo viloyati xalq ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan rahbarlar hamda rahbar kadrlar zaxirasi tarkibiga kiritilgan nomzodlarni boshqaruv faoliyatiga doir yuqoridagi ko‘nikmalar asosida seminar-treninglarga va amaliy darslarga jalb qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Natijada, rahbar xodimlarni mobilligi bir necha barobarga oshadi.

Chunki belgilangan lavozimga nomzodning malaka talabining to‘g‘ri kelishligi va ish tajribasiga egaligi tashkilotning missiyasini benuqson bajarilishiga xizmat qiladi. Rahbarlar ishga qabul qilish jarayonida jiddiy e’tibor qaratmaydigan xususiyat bu – nomzodning tashqi ko‘rinishi ekan. Agar nomzodning malakasi va tajribasi maksimal darajada bo‘lsa-yu, tashqi ko‘rinishi rahbarga ma’qul kelmasdan ishga qabul qilmasa, bu tashkilotga qimmatga tushishi mumkin. Ya’ni tashkilot qimmatli kadrni boy berishi mumkin. Aksincha bo‘lib nomzodning bilim va ko‘nikmasi yetarli bo‘lmagan holda rahbar uning tashqi ko‘rinishiga baho berib ishga qabul qilsa, tashkilot zarar ko‘rishi ham hech gap emas.

Bugungi kunda rahbarlarni qiyin vaziyatga solib qo‘yuvchi holatlardan yana biri xodimni ishga qabul qilishda tashqi bosimga duch kelishidir. Xodimni ishga qabul qilishda sizning harakatingiz nomli so‘rovda respondentlarning 87,5 foizi ishga qabul qilishni mustaqil tarzda hal etishini ma’lum qilgan. Yaqin tanishlarning iltimosi va yuqori rahbariyatning bosimi ostida harakar qiluvchilar 12,5 foizni tashkil etadi. Xodimni ishga qabul qilishda rahbarning mustaqil bo‘lishligi, tashqi ta’sirga berilmasligi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bundan tashqari, shaxsan rahbar tanlovi asosida ishga qabul qilingan xodimning tashkilot maqsadlariga sodiq bo‘lish ehtimolligi ortishi mumkin. Bu

esa amaliyotda muhim hisoblanadi. O‘zi umuman olganda rahbar xodimlarni boshqaruv qarorlarini qabul qilishi, ayniqsa, kadrlar masalasidagi tajribasini doimiy ravishda oshirib, takomillashtirib borishi samarali boshqaruvga erishishning muhim sharti bo‘lib xizmat qiladi.

Rahbar faoliyatining eng muhim ko‘rsatkichlardan biri bu – boshqaruv qarorlarini qabul qilish bilan izohlanadi. Ayrim rahbarlar bo‘ladi javobgarlikni zimmasiga olishni xohlamaydida atrofdan ko‘mak izlashga harakat qiladi. Ma’lum bir rahbarlar javobgarlikni jamoa bilan baham ko‘rishga harakat qiladi. Ya’ni javobgarlikni kollegial bo‘lishini xohlashadi. Ayrimlar o‘zlari qaror qabul qilishadi va qarorlarida sobit turishadi. Boshqaruv qarorlari qabul qilishning eng muhim talablardan biri quyidagilardan iborat: ilmiy asoslangan bo‘lishi, bir-biri bilan aloqador va yakdilligi, huquq va javobgarlik doirasida bo‘lish, aniq va to‘g‘ri yo‘nalishga egaligi, vaqt bo‘yicha aniq, tezkor va samarali bo‘lishi lozim. Shundagina boshqaruv qarorlari samara beradi.

Yuqoridan anglashiladiki rahbarlarning 51,4 foizi qaror qabul qilishda xodimlari bilan maslahatlashishini ma’lum qilgan. 11,8 foizi mutaxassisga murojaat qilishini, 36,8 foizi esa shaxsan o‘zi harakat qilishini ma’lum qilgan.

Viloyatda mavjud masalalarga to‘xtaladigan bo‘lsak, eng avvalo, viloyat xalq ta’limi boshqarmasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri bu – tizimdagi o‘rta maxsus xodimlar sonini kamaytirishdan iborat bo‘lib turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2018-yil 2-noyabrda o‘tkazilgan majlis bayoni bilan tasdiqlangan “Xalq ta’limi tizimida islohotlarni yanada jadallashtirish, ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan yo‘l xaritasi”ning 20-bandida Xalq ta’limi vazirligiga maktablar kesimida o‘rta maxsus ma’lumotli o‘qituvchilarni mutaxassisligi va yoshi bo‘yicha tahlil qilish, tahlil natijalariga ko‘ra o‘rta maxsus ma’lumotli kadrlar o‘rnini bosqichma-bosqich oliy ma’lumotli kadrlar bilan to‘ldirish vazifalari yuklatilgandi.

№	Hudud	O‘rta-maxsus pedagoglar	Maxsus sirtqi ta’limda tahsil olayotgan o‘rta-maxsus pedagoglar	Sirtqi ta’limda tahsil olayotgan o‘rta-maxsus pedagoglar	Oliy o‘quv yurtida tahsil olmayotgan o‘rta-maxsus pedagoglar	Nafaqadagi o‘rta-maxsus pedagoglar
1	Sirdaryo viloyati bo‘yicha	804	173	125	445	61
2	Boyovut tumani	85	22	17	45	1
3	Guliston tumani	37	8	5	24	0
4	Mirzaobod tumani	52	12	2	34	4
5	Oqoltin tumani	64	12	15	33	4
6	Sardoba tumani	64	19	12	27	6
7	Sayhunobod tumani	128	29	28	65	6
8	Sirdaryo tumani	179	35	18	112	14
9	Xovos tumani	127	12	18	79	18
10	Guliston shahar	24	9	3	10	2
11	Yangiyer shahar	22	5	7	5	5

12	Shirin shahar	20	9	0	10	1
13	Boshqarma tasarrufidagi muassasalarda	2	1	0	1	0

Yuqoridagi ma’lumotlardan anglashiladiki mavjud 804 nafar o‘rta maxsus xodimlarning 298 nafari oliy ta’limda sirtqi va maxsus sirtqi ta’limda tahsil olmoqda. 506 nafar o‘rta maxsus pedagoglar esa oliy ta’limga o‘qishga kirmagan. Shundan 61 nafari nafaqa yoshida. 2023-yilgacha bo‘lgan muddatda o‘rta maxsus xodimlarni oliy ta’limga o‘qishga kirishlarini ta’minlanishi belgilanganligidan kelib chiqadigan bo‘lsak, 445 nafar pedagogni keyingi ikki yilda oliy ta’limga yo‘naltirish masalasi dolzarb bo‘lib turibdi. Buning yechimi qanday bo‘lishi mumkin. Bizning taklif quyidagicha bo‘ladi. Mavjud 445 nafar pedagogni yosh va jins bo‘yicha tahlil qilish kerak. Shuningdek, eng avvalo, ehtiyoj yuqori bo‘lgan mutaxassislik fanlaridan dars berib kelayotgan o‘rta maxsus ma’lumotga ega xodimlarni oliy ta’limga tavsiyaviy xat asosida talaba bo‘lishini ta’minlash kerak. Bunda eng avvalo, pedagogika bilim yurtlarini tamomlagan xodimlarga e’tibor qaratish kerak.

Pedagog xodimlarni rejalashtirish va ularni zaxirasini yaratish ham Sirdaryo viloyati xalq ta’limi tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Xodimlarni rejalashtirish – bu inson omiliga bo‘lgan ehtiyojni oldindan aniqlashdir. Bu jarayon uch bosqichdan iborat bo‘ladi: mavjud xodimlarni baholash, istiqbolda xodimlarga bo‘lgan talabni rejalashtirish, xodimlarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.

Mavjud masalaga xulosa qilar ekanmiz, eng avvalo, tizimni oldinga siljishi bu kadrlarning to‘g‘ri tanlanganligiga bog‘liqdir. Shuning uchun ham tashkilot maqsadni to‘g‘ri belgilashi, missiyani aniqlashi va belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga xizmat qiluvchi malakali kadrlar jamoasini shakllantirishi zarur. Kadr bir yoki ikki kunda malakali bo‘lib qolmaydi, albatta. Lekin bilimli kadrlarni malakasini oshirib borish muammo tug‘dirmaydi. Shundan kelib chiqqan holda tashkilotda kadrlar siyosati masalasiga, ularni rejalashtirish, rivojlantirish, karyerada o‘sishini ta’minlash, ijtimoiy himoya qilish, rag‘batlantirish masalalarini takomillashtirib borish dolzarb masala hisoblanadi. Bunda avvalo, tashkilot rahbari va xodimlar bilan ishlash bo‘limi shuningdek, tashkilotning kasaba uyushma raisi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q.X. Personalni boshqarish. Darslik. O‘qituvchi, – T., 2008.
2. Azlarova M.M. Inson resurslarini boshqarish. O‘quv qo‘llanma Iqtisodiyot, – T., 2019.
3. Sharifxo‘jayev M. Menejment . – T., 2001.
4. Tursunmuratov T. Davlatning siyosiy modernizatsiyasi sharoitida davlat boshqaruvi kadrlarini o‘qitish va qayta tayyorlash tizimi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Spectrum Media Group 2015. 18-b.
5. Sirdaryo viloyat xalq ta’limi boshqarmasi statistik ma’lumotlari.

Matluba TO‘QLIYEVA,
Umida KARIMOVA,
Qashqadaryo viloyati XTXQTMOHM, “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim” kafedrasi o‘qituvchilari

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH DARSLARI VOSITASIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA PIRLS XALQARO TADQIQOTLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish darslari vositasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish xususida bo‘lib, unda PIRLS xalqaro tadqiqotining mazmun-mohiyati va PIRLS xalqaro baholash tadqiqoti talablari asosida matn ustida ishlashga o‘rgatish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar. Innovatsion, PIRLS, texnologiya, ekspertiza, monitoring, ma’naviyat, vatanparvarlik.

Статья посвящена формированию читательской культуры младших школьников средствами уроков чтения, в ней изложена сущность международного исследования PIRLS и пути обучения работе над текстом на основе требований Международного оценочного исследования PIRLS.

Ключевые слова. Инновационный, PIRLS, технология, эксперт, мониторинг, духовность, патриотизм.

The article is about the formation of a culture of reading through reading classes of Primary School students, in which the content of PIRLS international research and ways of teaching PIRLS to work on the text based on the requirements of International Assessment Research are shown.

Key words. Innovation, PIRLS, technology, expertise, monitoring, spiritual life, patriotism.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

PIRLS – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma’lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilash uchun ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma’lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir. Shuningdek, PIRLS, yosh o‘quvchilar tomonidan

maktabda va maktabdan tashqarida ta’lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya’ni badiiy tajriba orttirish, ma’lumot olish va undan foydalanish ko‘nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi. Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o‘zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida, 2021-yilda o‘tkaziladigan tadqiqotda o‘quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etishni rejalashtirganini aytish o‘rinlidir. Raqamli formatga o‘tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan PIRLS onlayn o‘qishni kompyuterda baholash kabi o‘zgarishlar ham ko‘zda tutilgan.

Mazkur muammo xalq pedagogikasi, islomiy adabiyotlar, buyuk mutafakkirlarning ta’limotlarida aqliy tarbiya, bilim olish bilan bog‘langan holda talqin etilgan. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, keyinroq esa Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqalarning ta’limiy-axloqiy qarashlarida kitob va uning ilm olishdagi o‘rni haqidagi fikrlari bunga yaqqol dalil bo‘la oladi. Kitobxonlik insonni ma’naviy boyitib, uni ma’rifiy kamolot sari yetaklaydi. Zero, insonning shaxs sifatida shakllanishi ma’naviy tafakkur ildizining qanchalik chuqur va mustahkamligiga bog‘liq. Kitob yosh avlodga ta’sir etishning eng qulay vositasidir, u inson his-tuyg‘usiga, axloqiga, xatti-harakatiga, dunyoqarashiga ta’sir etadi, ayniqsa, o‘quvchi yoshida, ya’ni uning shakllanish davrida alohida mavqega ega. Badiiy adabiyot, turli fanlarga doir qiziqarli kitoblar, lug‘atlar, ma’lumotnomalar bolalar ma’naviyatini shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quvchilar ma’naviyati tadrijiy rivojlanib boruvchi faol jarayon. Shu sababli o‘qituvchilar va ota-onalar kitobdan foydalanishda quyidagi omillarga e’tibor berishlari lozim:

1. O‘quvchilarda kitob o‘qish ishtiyoqini hosil qilish. Bu masala nihoyatda murakkab bo‘lib, o‘quvchilarning kitobxonlikka bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Tan olish kerak, o‘quvchilarning bugungi kitobxonlik darajasi qoniqarli emas. Bu ijtimoiy muammodan chiqib ketishning yagona yo‘li ota-onaning yordamga kelishidir. Maktabda o‘qituvchi, uyda ota-ona bolada kitob o‘qish ko‘nikmasini hosil qilishi kerak. Bunda oddiydan murakkablikka, ya’ni murakkabligi jihatidan normal, bolaning kamolot darajasiga mos bo‘lgan kitoblar tanlash qo‘l keladi. Sharq mutafakkirlarining tajribasiga ko‘ra, kitobxon (o‘quvchi) qaysi mavzuga qiziqsa shu mavzudagi kitobni taqdim qilish kerak.

2. Kitob tanlashda o‘quvchining ma’naviy darajasini hisobga olish lozim. Ota-onaning o‘quvchida kitob o‘qish ko‘nikmasini hosil qilishdagi ilk vazifasi kitob tanlab berishdir. Ularning saviyasiga mos bo‘lgan adabiyotlarni keng targ‘ib qilish o‘quvchilarni jamiyatning munosib fuqarosi, mustaqil davlatimizning yetuk, barkamol insonlari bo‘lib yetishishi uchun va ma’naviyatining yuksakligi bilan oilasiga va jamiyatga foyda keltirishga olib keladi. Kitob tanlashda kitobxonning (o‘quvchining) ma’naviy darajasini hisobga olish birmuncha murakkab omildir. Kitob tanlashda o‘quvchining ma’naviy darajasiga tayanish uning intellektual o‘sishiga olib keladi.

3. Kitob tanlashga ixtisoslashish. O‘qituvchi, ota-ona o‘quvchini kitobxonga aylantirib borishda uni ixtisoslashtirib borish yo‘lini tutishi kerak. Bu borada ham eski texnologiya – o‘quvchi yuqori sinfga o‘tganda ixtisoslashtirish kerak, degan fikrdan voz kechish lozim. Aksincha, dastlabki (boshlang‘ich) bosqichlardanoq o‘quvchining ma’naviy dunyosi, tarbiya muhiti, qiziqishi, dunyoqarashi va psixologik xususiyatlari hisobga olinib, ixtisoslashtirilib borilishi kerak.

4. Kitobni ekspertizadan o‘tkazish. Jamiyatimiz erkinlashib, demokratlashib bor-

gani sari kitob nashr etish ishlarida ham erkinlik yuzaga kela boshladi. Tabiiyki, bu hol turli saviyadagi kitoblarning nashr etilishiga sabab bo‘lmoqda. Shu ma’noda o‘qituvchi va ota-ona bola uchun kitob tanlayotganida kitobning ma’no-mazmuni, uslubiy jihatdan mutaxassis ko‘rigidan o‘tkazib olishi maqsadga muvofiq. Bunday qilish tarbiyaning asosiy yo‘nalishlaridan chalg‘imaslikka, o‘quvchi ma’naviy dunyosining to‘g‘ri shakllanishiga va qo‘yilgan maqsadga yetishishiga olib keladi. Bu tajriba o‘zbek milliy pedagogikasi tajribasidan ham ma’lum. Ular talabga javob bermaydigan kitobni o‘z farzandiga o‘qishni qat’iy taqiqladi. Bugun ham bu tarbiya jihati muhim sanaladi.

5. Kitob o‘qishni kuzatib, nazorat qilib borish. Bugun o‘qituvchi va ota-onalar tarbiya jarayonining natijasi bo‘lgan kitobxonlik bilan ko‘proq qiziqishi kerak. Shu ma’noda o‘quvchilar kitobxonligini monitoring qilib borish maqsadga yetishning samarali jihatlaridan biridir.

Monitoring, kitobxonlik yuzasidan test sinovlari, kitobxonlik kechalari, muloqot, davra suhbatlari, turli mavzularda munozaralar, ilmiy-amaliy anjumanlar, suhbatlar, sotsiologik-empirik tadqiqotlar va analitik tekshiruvlar vositasida amalga oshirilishi mumkin. Kitob o‘qishni monitoring qilib borishda xorij tajribalariga moslanish yanada maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilar ma’naviy madaniyatini shakllantirishda kitob kuchli vosita bo‘la oladi. Kitob mutolaasidan o‘tgan inson, undan o‘ziga xulosa chiqaradi. Natijada, o‘z bilimini, dunyoqarashini kengaytiradi. Bilimli, savodli, madaniyatli, jismonan baquvvat, ma’naviy yetuk, ruhan tetik va e’tiqodan mustahkam inson bo‘lib yetishadi.

Ertaklar qadim-qadimdan oila muhitida tarbiya manbai bo‘lgan. Ertaklarda xalq donishmandligi, baxt va tinchlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik g‘oyalari ifodalangan. Masalan, “Uch og‘a-ini botirlar” ota nasihati bilan boshlanadi. U o‘g‘illariga “To‘g‘ri bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz, maqtanchoq bo‘lmang – xijolat tortmaysiz, dangasa bo‘lmang – baxtsiz bo‘lmaysiz”, – deydi. Ertakdagi nasihat ideal axloqni belgilaydi. 2-sinfda o‘quvchilar mustaqil o‘qish jarayonida kitob vositasida badiiy asarda tasvirlangan voqea-hodisalarning qahramonlar xatti-harakati bilan uzviy aloqadorligi, ularning yetakchi fazilatlarini anglash orqali ma’naviy boyib borishi namoyon bo‘lgan. 3-sinfda she’riy asarlarning estetik qimmati, obrazli ifoda usullarini bilishi, 4-sinfda esa barkamol shaxs hissiyotini shakllantirishda badiiy so‘zning o‘rni, uning ma’naviyatining ruhiy qirralarini ezgulik sari yo‘naltirish asosiy maqsad qilib olingan.

Xulosa qilib aytganda, kitobxonlik vositasida o‘quvchilar ma’naviyatining shakllanganlik darajasi ularning bilim olishga intilishi, mustaqil fikrlash va ijodkorlik xislatlarining tarkib topishi, vatanparvarlik tushunchasini chuqur idrok etishi, yuksak axloqiy xislatlari, adabiyot va san’atga munosabati, tabiat va inson munosabatlarini tushunishi, huquqiy burch va ma’suliyatni anglab yetishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat kabilarda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

2. Ismailov D. va boshqalar. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini aniqlash. – T.: Sharq, 2019.

3. Shodmonova Sh.S. Oilada va maktabda kichik maktab yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari: p.f.n. … yozilgan diss. avtoreferati. – T., 2001.

Mehriniso PARDAYEVA,
Respublika ta’lim markazi direktori o‘rinbosari,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

MAKTABDA TABIIY FANLARNI INTEGRATSION O‘QITISH: “SCIENCE”NI JORIY ETISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

Annotatsiya

Maqolada maktab ta’limida mavjud muammolar yechimini topish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar, jumladan, milliy o‘quv dasturni o‘quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish, o‘quv fanlarini optimallashtirish hamda mazmunan takomillashtirish, xususan, tabiiy fanlarni o‘qitishning pedagogik shart-sharoitlari va o‘quv-metodik ta’minotini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida yaratish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Maktab, o‘quv-tarbiya jarayoni, ta’lim sifati, milliy o‘quv dasturi, tabiiy fan, darslik, o‘qituvchi, malaka oshirish, hamkorlik, o‘qitish metodikasi.

В статье рассматриваются реформы, направленные на решение существующих проблем в школьном образовании и повышение качества образования, включая внедрение Государственной учебной программы в образовательный процесс, оптимизацию предметов и улучшение содержания, в частности, педагогических условий и улучшить учебно-методическое обеспечение на основе передового зарубежного опыта.

Ключевые слова. Школа, образовательный процесс, качество образования, национальная учебная программа, естественные науки, учебники, учителя, обучение, сотрудничество, методы обучения.

This article discusses the problems of school education and reforms aimed at improving the quality of education, including the implementation of the national curriculum in the educational process, the optimization and improvement of content, in particular, the natural sciences. Suggestions and recommendations on the creation of pedagogical conditions and teaching aids of the unit on the basis of advanced foreign experience.

Key words. School, educational process, quality of education, national curriculum, natural sciences, textbooks, teachers, professional development, cooperation, teaching methods.

Prezidentimiz tomonidan umumiy o‘rta ta’limni yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarish, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari barqaror taraqqiyotga olib bora oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlab berish maqsadida ilg‘or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikasi va ta’lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish vazifalari belgilab berildi.

Mazkur vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganildi va natijada, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab 1-6-sinflarda tabiiy fanlarni o‘zida jamlagan Tabiiy fan (SCIENCE) joriy etilishi taklif etildi.

Tabiiyki, har qanday yangilik, xususan, ushbu yangilik ham ko‘plab savollarni kel-

tirib chiqardi, jumladan, SCIENCE fani o‘qitilsa, boshqa fanlar dars soati qisqaradimi, bu fandan qaysi o‘qituvchilar dars beradi?

Umumta’lim maktablarining 1-6-sinflarida bosqichma-bosqich Tabiiy fan (SCIENCE) o‘qitilishi rejalashtirilmoqda va bunday yo‘lning tanlanishi eng birinchi navbatda, “Tabiiy fan (SCIENCE) o‘quvchiga fanlarni o‘qish qiyin emas, qiziq bo‘lishiga yordam beradi...”

Tabiiy fan (SCIENCE) amalga kiritilishidan oldin xalqaro amaliyot, O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan xususiy va xorijiy maktablar tajribasi o‘rganildi va tahlillarga ko‘ra yangi fan o‘quvchilarni kichik yoshidan tabiiy fanlarni o‘qishga rag‘batlantirish, ularda olam haqida yaxlit tasavvur paydo qilishga yordam berishi aniqlandi. Bunday yondashuv asosida o‘qitilayotgan bolalarda tabiiy fanlarni, jumladan, fizika-kimyo qiyin emas, qiziq fan ekanini anglashi va uni o‘rganishga o‘zida rag‘bat sezishi kuzatilgan.

Tabiiy fan (SCIENCE) qaysidir fandan voz kechish yoki qaysidir fanning o‘rniga joriy etishni talab etmaydi, aksincha, ta’lim sifatini oshirish uchun mavjud fanlarni integrativ tarzda o‘qitilishini ta’minlaydi.

Tabiatda yuz berayotgan hodisalarni, masalan, yomg‘ir hodisasini o‘rganish jarayonida bola uning tarkibi (biologiyaga oid tushunchalar), fizik xususiyatlari, qaysi fasllarda va qayerlarda (geografik xususiyati)ko‘proq yog‘ishi, yomg‘ir ta’sirida yerda qanday o‘zgarishlar bo‘lishi, o‘simliklar uchun foydasi yoki zarari haqida ma’lumotga ega bo‘ladi.

Mazkur fan 1-2-sinflarda Atrofimizdagi olam, 3-4-sinflarda Tabiatshunoslik, 5-6-sinflarda esa 3 ta alohida fan, Geografiya, Biologiya, Fizika fanlari mazmunini va Kimyo fanining boshlang‘ich tushunchalarini uyg‘unlikda o‘qitishni ta’minlaydi. 7-sinfdan boshlab esa ushbu Biologiya, Geografiya va Iqtisodiyot, Fizika, Kimyo fanlari alohida o‘qitiladi.

Tabiiy fan (SCIENCE) bosqichma-bosqich tarzda joriy qilinishi maqsadga muvofiq bo‘lib, birinchi bosqich 2021/2022-o‘quv yilida 1-2-sinflarda, keyin boshqa sinflarda joriy qilinishi mumkin. Bu muddatda yangi o‘quv yili boshlangunga qadar 1-2-sinf o‘qituvchilariga mazkur fanni o‘qitish bo‘yicha maqsadli malaka oshirish kurslari tashkil etiladi va kelgusida fanni o‘qitadigan mutaxassis o‘qituvchilar ham tayyorlanadi, jumladan, zarur bo‘lsa, qayta tayyorlov kurslari tashkil etilishi lozim.

Ayni paytda 1-2-sinfda Atrofimizdagi olam – 1 soat, 3-4-sinfda Tabiatshunoslik – 1 soat, 5-sinfda Biologiya – 1soat, Geografiya –1 soat, 6-sinfda Fizika – 2 soat, Biologiya – 2 soat, Geografiya va Iqtisod – 2 soatdan o‘qitilib, 1-6-sinflarda jami 12 soatni tashkil qiladi.

Tadqiqotlar natijasida olingan tahlillarga ko‘ra, Tabiiy fan 1-sinfda 1 soat, 2-4-sinflarda ikki soatdan, 5-6-sinfda esa 3 soatdan, jami 13 soat o‘qitilishi tavsiya etilmoqda.

Tabiiy fanni joriy etishdan oldin tanlab olingan tayanch maktablarida Milliy o‘quv dasturi, darslik, o‘qituvchi kitobi va o‘quvchi daftarlarini tajriba-sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda o‘quv dasturlari, darsliklar, dars soatlari tahlil qilib ko‘riladi va tajriba-sinov natijalari asosida ular takomillashtiriladi.

Agar mazkur fan bo‘yicha darsliklar, ayniqsa, boshlang‘ich sinflar darsliklari bolalar uchun jozibali, qiziqarli, rang-barang qilib ishlab chiqilsa, fanni o‘rganish o‘quvchilarga oson bo‘ladi. Xuddi shuningdek, fanni o‘qitish uchun eng maqbul metodlarni, tavsiyalarni o‘z ichiga olgan o‘qituvchilar uchun ham alohida metodik qo‘llanma – o‘qituvchi kitoblari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Ular yordamida dars berish orqali o‘quvchilarda mustahkam tabiiy bilimlarni shakllantirish mumkin.

Tabiiy fanni 1-4-sinflarda o‘qitish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga yuklatilishi tavsiya etiladi, chunki ayni paytda Atrofimizdagi olam fanidan, asosan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari dars berib kelmoqda.

Bugungi kunda darsliklarda ayrim mavzular O‘qish, Atrofimizdagi olam, Odobnoma fanlarida ham aynan takrorlangan. Tabiiy fanlarda (SCIENCE)mavzular boshqa fanlar bilan bir-birini mantiqiy to‘ldiruvchi, fanlararo uzviylikni ta’minlagan holda ishlab chiqilishi, masalan, Ona tilida biror mavzudagi matnning mantiqiy jihati, Tabiiy fanda esa matnda keltirilgan hodisa, jarayon yoki o‘rganish predmetining tabiiy xususiyatlarini integrativ o‘rganilishini ta’minlaydi.

Albatta, maktabda Tabiiy fanlarning integrativ o‘qitilishi Biologiya, Geografiya va Iqtisod, Fizika fanlari o‘qituvchilari o‘tishi tavsiya qilinmoqda. Bunda savol tug‘iladi: geografiya o‘qituvchisi fizikani, fizika o‘qituvchisi biologiyani o‘qita oladimi?

Buni aniqlash uchun o‘qituvchilar bilan ishlash lozim. Ularning malakasini oshirish, qayta tayyorlash orqali ularni shu darslarni o‘tishga tayyorlash mumkin. Bunday imkoniyat ularga maxsus maqsadli o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli o‘tgandan so‘ng berilishi mumkin bo‘ladi.

Bundan tashqari, Tabiiy fanlar joriy etilgan holda va tegishli normativ huquqiy-hujjatlar ishlab chiqilgandan so‘ng pedagogika universitetlariga Tabiiy fan (SCIENCE) fanini o‘qituvchi kadrlarni tayyorlash bo‘yicha tegishli buyurtmalar berilishi maqsadga muvofiq.

Ayni paytda pedagogika oliygoh va yo‘nalishlarida fizika bo‘yicha o‘qiyotgan talabalarga geografiya, biologiya bo‘yicha dars soatlarini yoki aksincha, geografiya yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar uchun qolgan 2 ta fan bo‘yicha dars soatlarini kiritish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ta’limda joriy etilayotgan har bir yangilik nafaqat O‘zbekistonda, balki xorijda ham o‘zini oqlayotgan tajribaga asoslanishi kerak. Agar tizimni takomillashtirish va yangiliklarni joriy etish uchun o‘nlab yillar tajriba-sinov qilinadigan bo‘lsa, unda ko‘p narsa yo‘qotish mumkin. Aslida, o‘z samaradorligini isbotlagan ta’lim modellari mavjud bo‘lib, bekorga davlatimiz rahbari ilg‘or xorijiy tajribalarni, masalan, Finlyandiya ta’lim tizimini o‘rganishni aytmadilar. Insoniyat o‘z kashfiyotlarini amaliyot davomida isbotlagan paytlar ko‘p bo‘lgan. Buning uchun hamma harakat qilishi va ta’limiy transformatsiyalarga yuz tutishi kerak.

O‘zgarishlarga ochiq bo‘lishimiz, o‘z ustimizda ishlashimiz kerak. Shuning uchun pedagoglardan iborat jamoatchilikni yangiliklardan qo‘rqish emas, ularni amalga oshirishga intilishini tavsiya qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni.

Zulfiya MADRAHIMOVA,
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Komila ISHONQULOVA,
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
Muxayyo ALTIBAYEVA,
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

YOSHLAR TARBIYASIDA HARBIY VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada bugungi kun yosh avlodlarni Vataniga bo‘lgan mehr-muhabbati sadoqati haqida fikr mulohazalar yoritilgan. Bundan tashqari, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jismoniy tarbiya bilan uzviy bog‘liqlikda ekani bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Harbiy vatanparvarlik, Vatan himoyasi, vatanparvarlik, komillik, anglash, avlod, barkamollik, milliy g‘urur.

В статье говорится о любви и преданности современной молодежи своей Родине. Утверждается также, что военно-патриотическое воспитание неразрывно связано с физическим воспитанием.

Ключевые слова. Военный патриотизм, национальная оборона, патриотизм, совершенство, понимание, поколение, совершенство, национальная гордость.

The article reflects on the love and devotion of today’s young people to their homeland. It is also stated that military patriotic education is inextricably linked with physical education.

Key words. Military patriotism, defense of the Motherland, patriotism, perfection, understanding, generation, perfection, national pride.

Milliy o‘zlikni anglashning rivojlanishida milliy vatanparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan, teran fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun Vatan himoyasiga tayyorlanayotgan yoshlarimizning har biri yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi shart. Vatanparvarlik – yuksak insoniy fazilat hisoblanadi. Vatanparvarlik komillikning eng yorqin jihatlaridan biridir. Shuning uchun ham Hadisi Sharifda ‘‘Vatanni sevmoq – iymondandur’’ deb da’vat qilinadi.

Vaholanki, o‘tmishda jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan xalqning bugungi avlodlari, o‘z meroslarining jahon xalqlari tomonidan e’tirof etilishini ta’kidlab o‘tish joizdir, zero, ularda bu kabi his-tuyg‘ular milliy g‘urur hamda ruhiy barkamollikka yetaklaydi, milliy o‘zligini anglashga intilishini kuchaytiradi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jismoniy tarbiya bilan uzviy bog‘liq suratda olib borilganidagina yaxshi natija beradi. Shuning uchun harbiy vatanparvarlik tarbiyasini jismoniy tarbiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Sovuqqa va issiqqa bardoshli bo‘lish, kasal-

liklarga tezda berilmaslik, qiyinchiliklarni yengish, irodalilik, tez va chaqqon harakat qila olish kabi Vatan mudofaachisiga xos fazilatlarni talaba-yoshlar va o‘qituvchilarda rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sport o‘yinlarining roli benihoya kattadir.

Yoshlarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilish uchun tayyorlash Davlat miqyosidagi vazifa. Shu vazifani hal qilishda chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik, jumladan, fuqaro muhofazasi bo‘yicha tayyorgarlik o‘quv dasturidagi majburiy fan bo‘lib, umumta’lim o‘quv muassasalarida, o‘rta maxsus va o‘rta kasb-hunar ta’limi muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilari tomonidan bitirish yili arafasida kurslardan yoki sinflardan boshlab o‘tilishi O‘zbekiston Respublikasi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunining 13-moddasida belgilab berilgan. Ushbu masalaning muhimligi e’tiborga olingan holda Oliy ta’lim bilim yurtlaridagi “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishi, ya’ni bo‘lajak “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” o‘qituvchilarini tayyorlashdagi asosiy fanlardan biri hisoblangan “Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi” fani kiritilgan.

Yoshlar – Vatanimizning, millatimizning kelajagidir. Vatanimiz taqdirini ularga ishonib topshirar ekanmiz, avvalo, ular zimmalariga yuklatilayotgan murakkab va mas’uliyatli vazifani butun mohiyati ila chuqur anglashlari, unga o‘zlarini hissalarini qo‘shishlari lozim. Zero, Vatanni sevish, unga mehr-muhabbat qo‘yish bevosita har kimning shu yurt ravnaqi yo‘lida amalga oshirayotgan bunyodkorona ishlari bilan belgilanadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi – mamlakatda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyil va ustuvor yo‘nalishlari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo‘llari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o‘zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi. Bu haqda Mudofaa vazirligi matbuot xizmati xabar qilgan. Mazkur konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga jismonan va ma’nan sog‘lom avlodni tarbiyalashga oid yaxlit ta’lim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas bir qismi sifatida qaralib, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi talablari asosida milliy va jahondagi ilg‘or tajribalar, bugungi O‘zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari asosan to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich (3-7 yoshdagilar) atrofdagi-olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo‘ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga turli she’rlar, kuy va qo‘shiqlar o‘rgatish, multfilm va turli o‘yinlar namoyish etish, rasmlar chizish orqali dunyoni anglash, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishish asosida ularda ona yurtga muhabbatni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqichda (7-16 yoshdagi bolalar) o‘quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, harbiy xizmatga va ona yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas’uliyat bilan bajarishga bo‘lgan havasini oshirish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo‘lgan ijobiy fikrlarni yanada kuchaytirish, yoshlarning jismonan sog‘lom, kuchli va irodali ma’naviy yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson

sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da’vat etiladi.

Uchinchi bosqich (16-18 yoshdagi o‘smirlar) yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta’minlashga yo‘naltiriladi.

To‘rtinchi bosqich (18-30 yoshdagilar) yoshlarning jismoniy va ma’naviy qobiliyati, yetakchilik ko‘nikmalari va intellektual salohiyati, umumiy va professional malakasini oshirish, ularni o‘z ustida muntazam ishlash, sog‘lom hayot kechirishga undash va shunga erishishni nazarda tutadi.

Mazkur konsepsiya yoshlar o‘rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirish, ularda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar, fuqarolik pozitsiyasi, Vatanni sevish va uni ko‘z qorachig‘idek asrashga qaratilgan bilim va ko‘nikmalarni oshirish uchun uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Konsepsiyaning amalga oshirilishi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirish, Vatanga fidoyilik va sodiqlik bilan xizmat qilishga bo‘lgan mas’uliyatini oshirish, milliy armiya saflarini zamonaviy bilim va professional malakaga, mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan yoshlar bilan to‘ldirib borish imkonini beradi.

Bugungi kunda global axborot makonidagi qarama-qarshilik, inson, ayniqsa, yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurashning kuchayishi sharoitida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining roli va ahamiyati ortib bormoqda. Shuning uchun davlatimiz rahbari tomonidan aholining va birinchi navbatda, yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimini takomillashtirish, ularni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga jalb qilish, intellektual va ijodiy salohiyatni namoyon qilishga sharoit yaratish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi.

Prezidentimizning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigida bilan tariximizda birinchi marta o‘z mohiyatiga ko‘ra noyob tizim – harbiy-ma’muriy sektorlar tashkil etilganini aytib o‘tdilar. Bunday ish usuli joylardagi davlat hokimiyati organlarini mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlashga faol jalb etish uchun imkon berdi. “Armiya va xalq – bir tanu bir jondir” degan ulug‘ g‘oyani amalda ta’minlashga davlat organlari ham o‘z hissaslarini qo‘shishishiga imkon yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi tinchlik siyosatini olib borish bilan birga o‘z zimmasiga fuqarolar havfsizligi, tinchlik va barqarorligini ta’minlash vazifalarini oladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga ko‘ra, mudofaaga nisbatan hech kim daxl qilolmaydigan huquqni amalga oshirmoqda, aqliy yetarlilik darajasida davlat harbiy va mudofaa qudratini ta’minlamoqda.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan mudofaasiga jismonan va ma’naviy jihatdan tayyorlash zarurligi hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Umumta’lim o‘quv muassasalarida, o‘rta maxsus va o‘rta kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘quvchilarni, shu jumladan, oliy ta’lim dargohlarida ta’lim olayotgan talaba -yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tayyorlash endilikda ta’lim-tarbiya ishlarining barcha tizimlari orqali amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, Vatanga nisbatan chinakam sadoqat uni himoya qilishga ham qodir bo‘lishni talab etadi. O‘quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barcha turdagi faoliyat ko‘rsatayotgan ta’lim muassasalarining asosiy o‘rin egallashi darkordir.

Talaba-yoshlar harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy bilimlariga ega bo‘lishi, ularni har taraflama harbiy xizmatga tayyorlash va mustaqil O‘zbekis-

ton ravnaqini himoya qilish bo‘yicha o‘z burchini ado etish – o‘quv yurtlari pedagogik jamoalarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Uni muvaffaqiyatli hal etishda ‘‘Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi’’ fani yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o‘quvchilarni xizmat qilishga ma’naviy -siyosiy, psixologik va jismoniy jihatdan tayyorlashning mazmuni, shakllari va uslublarini tashkil qiladi. ‘‘Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi” fanining asosiy vazifalari quyidagilar:

Birinchidan, o‘quv yurtlarida o‘rganiladigan boshqa fanlar bilan bog‘langan holda talabalarni milliy vatanparvarlik ruhida o‘z Vatanining himoyasiga qo‘lida qurol bilan chiqishga doim tayyor bo‘lishga tarbiyalash.

Ikkinchidan, talabalarda pedagogik xislatlarni rivojlantirish, yangi jamiyatning faol, ongli quruvchilari, milliy mustaqillik g‘oyalariga sadoqatli, mehnatkash, jasoratli va o‘z Vatani uchun hayotini beradigan insonlarni yetishtirish.

Uchinchidan, talabalarni ‘‘Harbiy vatanparvarlik tarbiya” masalari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlari bilan qurollantirish, ularda o‘rta o‘quv muassasalar, litseylar, kollejlardagi ‘‘Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” o‘qituvchisiga xos bo‘lgan lavozimda o‘quv-tarbiyaviy ishning tashkil etilishi va o‘tkazilishi bo‘yicha ko‘nikma va qobiliyatlarini shakllantirish shular jumlasidandir.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha masalalar boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik fanni o‘rganish natijasida talabalar quyidagilarni bilishi kerak:

– o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’lim o‘quv yurtlaridagi ‘‘Yoshlarning chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarligi” mashg‘ulotlari davomida va darsdan tashqari tadbirlar, shakl va metodlari, mudofaa va sport ishlarini tashkil qilish va o‘tkazish metodikasini;

– ‘‘Vatanparvar’’, ‘‘Salomatlik” normalari va ‘‘Shunqorlar” harbiy sport o‘yinini tashkil qilish va o‘tkazishni, o‘quv-dala mashg‘ulotlarini o‘tkazish, ‘‘Yoshlarning chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarligi” fanining tugashiga bag‘ishlangan bayramlarni o‘tkazishni.

‘‘Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi” fanini o‘rganish natijasida talabalar quyidagilarni bajara olishi zarur:

– o‘quvchilar harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha o‘rta maxsus ta’lim o‘quv yurtlaridagi tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, ya’ni xalqimiz jangovar va mehnat shuhratiga sazovor bo‘lgan joylariga safarlar uyushtirish;

– urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar tashkil qilish, Qurolli Kuchlar askarlari bilan uchrashuvlar o‘tkazish;

– harbiy vatanparvarlik mavzusi bo‘yicha nazariy konferensiyalar o‘tkazish, harbiy oliy bilim yurtlarida o‘qish uchun nomzodlar tanlash va tayyorlash;

– harbiy ish asoslarini o‘rganish uchun harbiy to‘garaklar tashkil qilish.

Mazkur fanni o‘rganish jarayonida har bir talaba mustaqil ravishda harbiy vatanparvarlik mavzusida 4-5 ma’ruza tayyorlashi (doklad, referat) shart.

Tarbiyalash – bu insonlarni jamiyat uchun jismoniy-aqliy mehnatga yoki boshqa foydali faoliyatga yo‘naltirish, shu bilan birga ko‘p qirrali ijtimoiy vazifalarni bajarishga tayyorlashning obyektiv asoslangan jarayonlardan iborat. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi uning ajralmas qismi hisoblanadi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining metodologiyasi va ilmiy asoslari insoniyat omiliga nisbatan qo‘llaniladi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy asoslarida O‘zbekiston Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respubikasi Prezidentining Vatanparvarlik va mustaqil Vatan himoyasi haqida g‘oyalari, Oliy Majlis qonun va qarorlari, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Mudofaa vazirligining buyruq

va ko‘rsatmalari, harbiy pedagogika va psixologiya, harbiy fanlar va boshqa qoida hamda me’yoriy hujjatlar o‘rin olgan.

Ayni zamonda mehnat va ijod maydonining eng og‘ir sohalarida jonbozlik, vatanparvarlik, odamiylik fazilatini ko‘rsatib jamiyat hurmati va muhabbatining qaynoq ilhom manbai bo‘lib qolmoqda. Chunki, bizning oldimizda o‘tmishning asoratlaridan ozod bo‘lgan, o‘zining mustaqil fikriga ega, o‘z millati va Vatan manfaatlari yo‘lida fidoyilik ko‘rsatishga qodir bo‘lgan barkamol vorislarni tarbiyalab yetkazish vazifasi turibdi.

Harbiy vatanparvalik tarbiyasini tashkil qilish uchun tinch va jangovar vaziyatdagi harbiy xizmat sharoitlarida bilishlarning psixologik faoliyatini o‘rganuvchi harbiy psixologiya ham muhim ahamiyatga ega.

Harbiy psixologiya Vatanimiz himoyasi uchun o‘z burchini bajarishga yoshlarni psixologik tayyorlash bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Harbiy vatanparvarlik ishlarining muhim prinsiplaridan biri – vatanparvarlik va baynalminal tarbiya birligidir. Barcha tarbiyachilar faoliyatida vatanparvarlik va baynalminal vazifalar organik o‘zaro bog‘langanligi va o‘zaro shartlanganligi jangchi shaxsini shakllantiradigan, doimiy ravishda nima uchun u qo‘liga qurol olgani va himoya qilayotganini eslatib turadigan qudratli omil bo‘lib xizmat qiladi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiya prinsiplaridan biri – yoshlarning turli guruhiga farqli yondashishida mujassamlashgan. Bu prinsip harbiy vatanparvalik tarbiyasining manfaatlari va o‘ziga xos xususiyatlari, ko‘p millatli davlatimiz turli millat va xalqlari urf-odatlari va milliy an’analarini hisobga olgan holda qurish kerakligini talab etadi.

Harbiy vatanparvalik tarbiyasi samaradorligi aniq vazifalar, mazmun, shakl, uslub va vositalar, o‘ziga xos ma’lum vazifalarni hal etadigan turli davlat va ijtimoiy organlar, tashkilot va muassasalarni o‘z ichiga oladigan mavjud ma’lum bir tizim orqali amalga oshiriladi. Bu tizim umumiy xususiyatga ega, ya’ni yoshlarga vatanparvarlik ongini shakllantirish, jamiyatimizning barcha oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining vazifasi hisoblanadi. Ikkinchidan, u uzluksiz, inson hayotining barcha bosqichlarida yaxlit faoliyat hisoblanib, uchinchidan, zero, armiya va xalq ajralmas birlikka asoslanganligidadir.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarda harbiy xizmatga qiziqishni rivojlantirish, harbiy kasblarni egallash, yoshlarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmatga tayyorlashga yordam berishni ko‘zda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi har qanday murakkab tizim kabi boshqaruvga muhtoj. Boshqarish funksiyalari ko‘p ma’noli, lekin asosiysi, uning negizida harbiy vatanparvarlik ishlarini tashkil qilish va o‘quvchilarning bo‘lajak harbiy xizmatga munosabati natijalari darajasi, ularning Vatan himoyasiga tayyorgarligini va uni takomillashtirish bo‘yicha qarorlar qabul qilishni o‘rganish yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov O. Vatanparvarlik – milliy istiqlol mafkurasining muhim tarkibiy qismi. – T., 2001-y.

2. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi. – T., 1996-y.

3. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2018-yil 23-fevral.

Durdona RAXMATULLAYEVA,
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti dotsenti, mustaqil tadqiqotchi

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARIDA TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini mehnat bozori talablari asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy, tadbirkorlik, ta'limiy muhitning barcha talablarini hisobga olish va bunda tizimli yondashuv asosida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Tadbirkorlik, tadbirkorlik kompetensiyasi, tizim, tizimli yondashuv, professional ta'lim, o'quvchi, kasbiy faoliyat.

В статье рассматриваются вопросы учета всех требований социальной, предпринимательской, образовательной среды при подготовке студентов профессиональных учебных заведений к профессиональной деятельности в соответствии с требованиями рынка труда, а также формирования предпринимательских компетенций на основе системного подхода.

Ключевые слова. Предпринимательство, предпринимательская компетентность, система, системный подход, профессиональное образование, студент, профессиональная деятельность.

This article discusses the issues of taking into account all the requirements of the social, entrepreneurial, educational environment when preparing students of professional educational institutions for professional activity in accordance with the requirements of the labor market, as well as the formation of entrepreneurial competencies based on a systematic approach.

Key words. Entrepreneurship, entrepreneurial competence, system, systems approach, vocational education, student, professional activity.

Bugungi kunda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat

bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida: 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston Respublikasida ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – Xalqaro tasniflagich) darajalari bilan uyg‘unlashgan yangi boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari joriy etiladigan ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etildi. Bunda kollejlarda:

Bu talablar fan asoslarini chuqur egallash, maxsus bilim, mahorat va ko‘nikma, kompetensiyalar, ijodkorlikni, tadbirkorlik tahlilni, mustahkam ishonchni, mehnatsevarlikni, ijtimoiy va kasbiy yetuklikni, tadbirkorlik kompetentlikni shakllantirish, mutaxassislar va ishchilarning kasbiy-malakaviy mobilligini, mehnat qilishga ehtiyojni, kasbiy va ishbilarmonlik holatlarida madaniyatni rivojlantirishni ta’minlash kabi jihatlar bilan tavsiflanadi. O‘tkazilgan tadqiqot doirasidagi tahlilda mutaxassislarni tayyorlashda ijtimoiy, tadbirkorlik, ta’limiy muhitning barcha talablarini hisobga olish faqat tizimli yondashuv asosida mumkin ekanligi aniqlandi.

Tizimli yondashuvni asoslash bo‘yicha nazariy tahlil quyidagi qoidalarni ajratib ko‘rsatish imkonini berdi:

– kasbiy ta’lim yanada murakkabroq tizimda amal qiluvchi tuzilmaviy komponent sifatida olib qaraladi;

– tizimli yondashuvda asosiy talab bo‘lib obyektni, uning aloqadorliklari va bevosita ifodalanishi mohiyatidan yaxlit tarzda aks ettirilishi hisoblanadi;

– obyekt uning o‘ziga xos quyi tizimlarini belgilashga va ular orasidagi aloqalarni aniqlashga qaratilganligi;

– obyektlar ular turli tasavvurlarni sintezlash zarurati paydo bo‘lganda tizimli tadqiqotlar predmetiga aylanadi.

Hozirgi zamon ta’lim muhitida tizimli yondashuv pedagogik jarayonlarning ilmiy-metodik ta’minoti, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, natijalar samaradorligi va sifatini oshirish strategiyasi hisoblanib, u yuqori darajada ilm-fanni sintezlashda namoyon bo‘ladi.

Tizimli yondashuv – bu ilmiy bilishning metodologik asoslari; falsafiy metodologiya va tadqiqot metodlari orasida holatni egallovchi fandir. Tizimli yondashuv bevosita aniq va yangi bilimni bermaydi, undagi eng asosiysi – bu obyektni o‘ziga xos tarzda olib qarash bo‘lib, yaxlitlilik, dinamiklik, umumiylik, universallik, barqarorlik, tashkiliylik, aloqadorlik, muhitlilik kabi tasavvurlarga qaratiladigan tadqiqotning integratsiyalashgan texnologiyasidir.

Tizim o‘z ichiga o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan obyektlarning yaxlit majmuasini oladi. Tizimli yondashuv usuli yordamida turli xil elementlar to‘plamidan tashkil topgan obyektlarni yaxlit tadqiq etish mumkin. Pedagogikaning boshqa sohalari kabi kasbiy ta’lim pedagogikasida ham tadqiqot obyektlari shuningdek, qandaydir pedagogik maqsadga erishish yo‘llari va usullari alohida elementlari bir-biri bilan o‘zaro aloqadorlik va o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan murakkab tizimni ifodalaydi. Chunki, bugungi zamonaviy kasb ta’limi mutaxassisi – tadbirkorlik faoliyatiga oid bilimlarga ega bo‘lishi, qo‘l ostidagi xodimlarni boshqara olishi, tadbirkorlik shakllaridan birini tanlay olishi, korxona ocha olishi, marketing tahlillarini o‘tkazishi, bankda hisob raqamini ocha olishi, soliqlar turlarini bilishi va imtiyozlaridan foydalana olishi, tavakkalchilikka tayyorligi, nizolarni bartaraf eta olishi, hisob – kitob ishlarini bajarishi va boshqa shu kabi bir qator kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak. Bu qayd etilgan komponentlar alohida elementlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan zamonaviy kasbiy ta’lim tuzilmasini tashkil etadi.

Tizimli yondashuvda markaziy tushuncha bo‘lib, “tizim” sanaladi, u elementlar, aloqadorliklar, munosabatlar, integratsiyalashuv, yaxlitlik, shuningdek, elementlarning o‘zaro harakatlari va yaxlit obyektni tashkil etuvchi qismlarning jamlanmasi orqali belgilanadi. Faqat o‘zaro harakatlar va jamlanmaga bog‘liq holda tizimni tavsiflovchi va fundamental birlashtiruvchi omillar bo‘lgan integrativ xossalar namoyon bo‘ladi, shuning uchun har qanday o‘zaro aloqadorliklar va elementlar birlashmasi tizimning hosil bo‘lishiga olib kelmaydi.

Integratsiyalashgan tushunchalarni shakllantirish jarayoniga tizimli yondashuvning asosiy talablari bo‘lib, bunda “tadbirkorlik kompetensiyasi” tushunchasiga nisbatan quyidagilar nazarda tutiladi:

– tizimga kiruvchi asosiy komponentlarning ilmiy asoslanishi va integratsiyalashgan tadbirkorlik tushunchalar orasidagi sabab-oqibat aloqadorliklarning belgilanishi;

– integratsiyalashgan tadbirkorlik tushunchalarning shakllanishi amaliyotda metodik shart-sharoitlar tizimini yuzaga chiqarishni ta’minlovchi funksiyalarni asoslash;

– tadbirkorlik tushunchalar tizimini va shu asosda o‘quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishda dunyoqarashining komponentlari, usullari va vositalarini integratsiyalash, differensiyalash, ijtimoiylashtirish nazariyasi bilan shartlangan majmuaviy talablarga rioya qilish;

– kasbiy tayyorgarlik, tadbirkorlik tushunchalar va tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida o‘quvchilarning ta’limiy faoliyatini tashkil etishning metodik shart-sharoitlarini belgilashdir.

Tizimli yondashuv ma’lum bir fan, tarmoq, jarayonlarda muammolarni aniqlashga va ularni o‘rganish, hal qilish va boshqarish strategiyasini belgilashga yordam beradi, mana shu tarzda o‘zining asosiy metodologik funksiyasini bajaradi. Adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu qoidalar turli xil nazariyalarda umumqabul qilingan bo‘lib, bu qoida zamonaviy ilm-fanda umumiy qabul qilingan hisoblanadi.

Agar tadqiqot obyekti o‘quvchi bo‘lsa, u holda tadqiqotchi yaxlitlik, o‘zaro aloqadorlik va o‘zaro munosabatlar biologik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarida namoyon bo‘ladigan shaxslarning murakkab tizimi bilan ish ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Bunda o‘quvchining yosh va jins xususiyatlari, temperamenti va boshqalar hisobga olinishi kerak. Agar tadqiqot obyekti sifatida o‘qitish mazmunini tadqiq etishga imkon beruvchi metodlar va vositalar qaralsa, tadqiqotchi yana o‘qitish vositalari va usullari o‘zaro uzviy bog‘langan va bir-biriga bog‘liq hamda tanlashda o‘quvchilarning individual xususiyatlari e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan tizimlar bilan ish ko‘rishga to‘g‘ri keladi.

Demak, pedagogik jarayon ko‘p tomonlama jarayon bo‘lib, uni qandaydir bir fan va bitta tadqiqot metodi bilan nazariy jihatdan sintezlash mumkin emas. Ilmiy tadqiqot davomida kasbiy ta’lim masalalari bo‘yicha mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik tizimini tavsiflovchi quyidagi funksiyalar jamlanmasini belgilaymiz:

– o‘qitilayotgan o‘quvchilarning shaxsini shakllantirish, kasbiy faoliyat jihatlarini qamrab olish, ta’lim maqsadlari va mazmuni, faoliyat motivlarining ijtimoiy-tadbirkorlik shart-sharoitlari hamda ishlab chiqarish ehtiyojlariga bog‘liqligini belgilovchi ijtimoiy funksiya;

– bilimlarni samarali va optimal o‘zlashtirish tizimini hamda bilimlarning barcha tarmoqlaridagi olimlar va mutaxassislarning yutuqlarini kompyuter hamda telekommunikatsion tarmoqlar, ma’lumotlar bazalari va banklarining imkoniyatlari hisobiga yaratishga qaratiladigan axborot funksiyasi;

– pedagogik va axborot texnologiyalari asosida kasbiy tayyorgarlikning ta’limiy

jarayonini hamda faoliyatni tashkil etishni ta’minlashga yo‘naltirilgan kommunikativ funksiyasi;

– predmetlar va bilimlarning mazmuniy, tuzilmaviy, mantiqiy, ilmiy-tashkiliy, umumiy va xususiy metodologik, ta’limiy va pedagogik jihatlardan yaxlitligi hamda o‘zaro aloqadorligi erishilishiga qaratilgan integrativ funksiyasi;

– yangicha ijtimoiy-tadbirkorlik sharoitlarda tadbirkorlik fikrlash qonunlarini tushunadigan hamda o‘z-o‘zini kasbiy namoyon etishi va oyoqqa turishini o‘zgartirish uchun zarur bo‘ladigan o‘zgarishlarni ifodalaydigan mutaxassis tayyorlashini belgilab beradigan tadbirkorlik funksiyasi;

– zamonaviy o‘qitish nazariyalarini integratsiyalanishi, tajribalari, axborot texnologiyalari vositalari yordamida texnologiyalarga transformatsiyalanishini ta’minlovchi texnologik funksiyasi;

– ta’lim jarayoni subyektlarini o‘qitish, texnologik, boshqaruv, loyihalashtirish, metodik va kompyuterga yo‘naltiruvchi faoliyatlar orasidagi o‘zaro aloqadorliklarni ta’minlovchi asosi sifatida namoyon bo‘ladigan tizimli funksiya.

Professional ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning kasbiy ta’lim tizimining barcha funksiyalari uning didaktik asosini tashkil etadi. Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarning kasbiy ta’limi pedagogik tizimiga xos bo‘lgan umumiy qonuniyatlar tadbirkorlik, kasbiy mehnat tuzilmasi, shaxs sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish qonuniyatlari, shuningdek, kasbiy tayyorgarlikning boshlang‘ich va o‘rta darajasidagi o‘ziga xos xususiyatlar bilan belgilanishini asoslashga imkon beradi.

Tizimli yondashuv asosida professional ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning kasbiy tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish jarayonining asosiy qonuniyatlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

– boshlang‘ich va o‘rta darajada tadbirkorlik ta’limning yagona pedagogik tizimi tuzilishidagi tashqi (tadbirkorlik faoliyati va psixologik-pedagogik) va ichki (shaxsiy-faoliyatli va maxsus-predmetli) omillarning yaxlitligi;

– o‘quvchilarning tadbirkorlik bilimlari va o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishidagi ichki o‘z-o‘zini nazorta qilish va boshqarish imkonini beruvchi kompetensiyalarni shakllantirish vositasida ta’lim jarayoni subyektlarining ijtimoiylashuvi hamda professionallashuvining o‘zaro aloqadorligi;

– mutaxassislar va ishchi-xodimlarni kasbiy hamda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishda bilim, ko‘nikma va malakalarning fundamentallashtirilishi hamda professionallashtirilishining yaxlitligi;

– o‘quvchilarning kasbiy tadbirkorlik va umummadaniy ta’lim jarayonlari, mutaxassislarni samarali tayyorlash uchun tadbirkorlik maqsadga muvofiq bo‘lgan ijtimoiy-ta’limiy muhitni yaratishning o‘zaro shartlanganligi;

– noan’anaviy o‘qitish metodikalari va pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning izchilligi, funksional imkoniyatlari, kasbiy tadbirkorlik ta’limning pedagogik tizimga integratsiyalanishi nuqtayi nazaridan o‘zaro aloqadorliklari.

Aniqlangan qonuniyatlar tizimli yondashuv pozitsiyalaridan tadbirkorlik kasbiy tayyorgarlikning pedagogik tizimi tuzilmasini shuningdek, uning funksiyalarini belgilash imkoniyatini beradigan asosiy tamoyillarni shakllantirish imkonini hosil qiladi. Tizimga kirish o‘qitish subyektlarini, chiqish esa boshlang‘ich kasbiy ta’lim muassasalari faoliyatining natijalarini (mehnat bozorida raqobatbardosh va tadbirkorlik kompetensiyalariga ega bo‘lgan mutaxassis) yuzaga keltiradi. Bu maqsad pedagogik tizimning hosil qiluvchi omili bo‘lib hisoblanadi.

So‘nggi yillarda boshlang‘ich va o‘rta kasbiy ta’limdagi kasblarning ikkita ro‘yxati, o‘rta kasbiy ta’lim mutaxassisliklarining yangi malaka talabini paydo bo‘lishi kollejlarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-tadbirkorlik o‘zgarishlarga aks-javob berishining yaqqol namunasi bo‘lib sanaladi.

Mutaxassislarni kasbiy tayyorlash amaliy faoliyati tahlili bugungi kunda barcha tadbirkorlik o‘quv fanlari, tadbirkorlik va kasbiy bilimlar sifati tizimining harakatchanligini hamda o‘quvchilarda ma’lum bir mahoratni hosil qilish, kompetentlilikni shakllantirish, raqobat sharoitlarida mehnat bozoriga moslashishni ta’minlash imkonini beruvchi bo‘lajak tadbirkor sifatida olib qaralishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Yoshlar tadbirkorligini ko‘rib chiqishga tizimli yondashish me’yoriy-huquqiy bazani muvofiqlashtirish, davlat va mintaqaviy tuzilmalar tomonidan yoshlar siyosati doirasida yoshlar tadbirkorligini boshqarish, moliyaviy-kredit maslahatlari tizimini rivojlantirish, samarali infratuzilmasini yaratishni ko‘zda tutadi.

Shunday qilib, ta’lim jarayonini tahlil qilish va boshqarishga tizimli yondashuvning asosiy masalalarini quyidagicha umumlashtirib xulosa qilish mumkinki, bular:

– zamonaviy ta’lim jarayonida tizimli yondashuv ilm-fan o‘qishi va rivojlanishi davomida namoyon bo‘ladigan pedagogik jarayonlarning, innovatsion faoliyatning ilmiy--metodik ta’minoti, natijalarning sifati va samaradorligini oshirish strategiyasi bo‘lib sanaladi;

– tizimli yondashuv – bu ilmiy bilishning metodologik asosi bo‘lib, u falsafiy metodologiya va tadqiqot metodlari orasidagi holatni egallovchi fan bo‘lib, undan eng asosiy narsa bevosita yangi bilimni olish emas, balki yaxlitlik, dinamiklik, umumiylik, universallik, barqarorlik, tashkiliylik kabi tasavvurlarga yo‘naltiriladigan tadqiqotning integratsiyalashgan texnologiyasidir;

– integratsiyalashgan “tadbirkorlik kompetensiyasi” tizimli yondashuvning asosiy talablari bo‘lib, asosiy komponentlar va funksiyalarning ilmiy asoslanishi, majmuaviy talablarga rioya qilishi, shuningdek, professional ta’lim muassasasidagi o‘quvchilarning ta’limiy faoliyatini tashkil etishning metodik shart-sharoitlarini belgilash hisoblanadi.

Tizimli yondashuvning konseptual tuzilishi umumiy ko‘rinishda obyektlarni tadqiq qilishga nazariy-bilishga doir tadbirlarni qo‘llashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.

2. Рахматуллаева Д.Р. Содержание, формы и методы подготовки учащихся профессиональных колледжей к предпринимательской деятельности/ ‘‘Проблемы современного образования’’. – М.: 2017, – № 1. – С. 99-104.

3. Raxmatullayeva D.R. Formation enterprise competence at future businessmen / SCIENCE, RESEARCH, DEVELOPMENT #15// Economy. Management. State and Law. – Rotterdam. Gollandiya. 2019, – P. 24-26.

Sanjar TURDIBOYEV,
Jizzax davlat pedagogika instituti, “Umumiy matematika” kafedrasi
o‘qituvchisi

GEOMETRIK MASALALARNI YECHISHDA O‘QUVCHILARNING KONSTRUKTIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqola, geometrik masalalarni qo‘shimcha konstruksiyalardan foydalanib yechish mumkinligini ko‘rsatib o‘tishga asoslangan. Chunki, bunday masalalarni ishlanish holatini ko‘rgan o‘quvchilarda qo‘shimcha konstruksiyalash haqida tasavvur paydo bo‘ladi va bu usulni o‘zlari ham mustaqil qo‘llay oladi.

Kalit so‘zlar. Geometriya, geometrik masalalar, qo‘shimcha konstruksiyalash, evristik metodlar, planimetriya.

Статья основана на том факте, что геометрические задачи могут быть решены с использованием дополнительных конструкций. Потому что у учащихся, которые видят ситуацию разработки таких вопросов, появляется представление о дополнительном конструктировании, и они могут самостоятельно применять этот метод.

Ключевые слова. Геометрия, геометрические задачи, дополнительное сужение, эвристические методы, планиметрия.

talab etiladigan amaliy ishlarning ko‘pligidir. Bularning barchasi o‘qituvchini boshqa hamkasblarga nisbatan boshqacha faoliyat ko‘rsatishini talab etadi.

– Ilmiy fikrlash va ijodiy qobiliyat ijtimoiy hayot sharoitlari asosida vujudga keladi va ijtimoiy amaliyot mahsuloti hisoblangan so‘z, tushunchalar, mantiqlar asosida amalga oshiriladi.

Fizika o‘qitish metodlarining o‘ziga xos tomonlari:

– fizikaning rivojlanish tarixini, unga Sharqning buyuk allomalari qo‘shgan hissalarini, jamiyat rivojlanishida fizika va texnikaning ahamiyatini, O‘zbekistonda fizika va texnika sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar haqida umumiy ma’lumotlarni bilish;

– fizik kattaliklarning Xalqaro birliklar tizimini tushuntira olish;

– mexanika: kinematika, dinamika, Nyuton va mexanikada saqlanish qonunlari, statika elementlari, suyuqliklar va gazlar mexanikasiga oid qonuniyatlarni bilish va misollar yordamida tushuntira olish;

– molekulyar fizika va termodinamika asoslari: molekulyar – kinetik nazariya asoslari, gaz va termodinamika qonunlari, suyuqlik va gazlarning o‘zaro aylanishi, qattiq jismlar fizikasiga oid qonuniyatlarni bilish;

– elektrodinamika: elektrostatika, o‘zgarmas tok, turli muhitlarda elektr toki, magnit maydon, moddalarning magnit xossalari, elektromagnit induksiya qonuniyatlarini bilish;

– tebranish va to‘lqinlar. Optika. Atom va yadro fizikasi: mexanik va elektromagnit tebranishlar va to‘lqinlar, tovush, geometrik optika, nisbiylik nazariyasi elementlari, kvant, atom va elementar zarralar fizikalariga oid qonunlarini bilish hamda olamning fizik manzarasi to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lish;

O‘qituvchi zamon talabi darajasida dars berishi va yaxshi samara olishi uchun darsning kerakli shakllarini va unga mos o‘qitish metodini to‘g‘ri tanlay bilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy fizika darsining o‘ziga xos tomoni va unga qo‘yiladigan talab, samarali metodlar asosida ta’lim oluvchilarni o‘qitish va tarbiyalash, u o‘qituvchidan barcha o‘qitish vositalaridan yuksak mahorat bilan foydalangan holda ijodkorlik bilan darsni tashkil etishni, ta’lim oluvchilarning ijodiy mustaqilligiga alohida e’tibor qaratishni muammoli holatlarni o‘qitish jarayonida ko‘proq qo‘llashni talab etadi. Zamonaviy fizika darslarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, darslarda ta’lim oluvchilar guruhining faolligiga erishishi bilan bir qatorda, ularning yakka-alohida xususiyatlariga e’tibor qaratish ham talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Teshaboyev A., Zaynobiddinov S., Ermatov Sh. “Qattiq jismlar fizikasi” – T.: Moliya, 2001.

2. Axmedov X., Doniyev M., Husanov Z. Fizikadan ma’ruza matni. 2004-yil.

3. Strelkov S.P. Mexanika. – T., O‘qituvchi, 1977.

4. O‘lmasova M.X. Mexanika va molekulyar fizika. 1-kitob. 2-nashr. – T., O‘qituvchi, 2003.

Bahodir BERDIYEV,
Qarshi davlat universiteti, “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi

TALABALAR MUSTAQIL ISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH OMILI

Annotatsiya

Maqola mustaqil ishlarni tashkil etish muammosiga asosan pedagogika, psixologiya, o‘qitish metodikasi bo‘yicha adabiyotlarda alohida e’tibor berilib, amaliy ishlar tajribasi umumlashtiriladi hamda talabalarning aqliy mehnatini oqilona tashkil etish usullari va turli yo‘nalishdagi fanlarga nisbatan vaqt byudjeti o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar. Aqliy mehnat, ko‘nikmalar, kasbiy moslashuv, didaktik maqsadlar, mustaqil faoliyati, metodik yordam, kasbiy.

В статье особое внимание уделяется проблеме организации самостоятельной работы, в основном в литературе по педагогике, психологии, методике преподавания, обобщается опыт практической работы и изучаются методы рациональной организации умственного труда учащихся и бюджета времени по отношению к различным дисциплинам.

Ключевые слова. Умственная работа, умения, профессиональная адаптация, дидактические цели, самостоятельная деятельность, методическая помощь, профессионал.

In the literature on pedagogy, psychology, teaching methods, special attention is paid to the problem of organization of independent work, the experience of practical work is generalized, and the methods of rational organization of students’ mental work and time budget for various disciplines are studied.

Key words. Mental work, skills, professional adaptation, didactic goals, independent activity, methodological assistance, professional.

Mamlakatimizda ta’lim sohasini takomillashtirish bo‘yicha asosiy hujjatlardan biri bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlovchi ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet va kompyuter tarmoqlari orqali tashkil etish muhimligi to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Hozirgi kunga kelib yoshlarga ta’lim va tarbiya berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim-tarbiya hamisha jamiyatimiz asosi bo‘lgan. Chunki, inson jamiyatdagi barcha munosabatlar, aloqalarning markazida turadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining ijtimoiy yo‘nalishida oliy ta’lim muassasalari uchun pedagoglarning yangi avlodini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk va komil shaxslarni tarbiyalash, ularni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda

shart-sharoitlarni yaratish, ilmiy-pedagogik, psixologik, metodik manbalarni o‘rganish va tahlil qilish, qishloq va suv xo‘jaligi sohasida “Kasb-ta’limi” bo‘yicha kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlov kurslarini tahlil qilish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yildi. Ta’lim to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdaga O‘RQ-637-sonli qonunida keltirib o‘tilgan. Ushbu qonunning maqsadi ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solish hisoblanadi. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu qonun va boshqa hujjatlardan iboratdir. Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iboratdir:

– ta’lim ustuvorligining tan olinishi;
– ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;
– ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;
– ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi;
– ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
– ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyatlari;
– ta’limning uzluksizligi va izchilligi;
– o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashning majburiyligi;
– davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;
– o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
– insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;
– jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
– ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
– bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;
– ta’lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvining uyg‘unligi;
– ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik;

Qonunda 2-bob ta’lim tizimi, turlari va shakllariga masofaviy ta’lim shakli kiritildi. Masofaviy ta’lim to‘g‘risida 16-moddada keltirib o‘tilgan. Masofaviy ta’lim o‘quv rejalari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Masofaviy ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Jamiyatda yetuk va kerakli ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlashda maxsus fanlarni o‘qitish muhim o‘rin tutadi. Oliy ta’lim maussasalari magistrantlarining kasbiy-pedogogik rivojlanishi uchun ularning mustaqil fikrlashlari, faolliklari, ijodkorliklari, dunyoqarash kengligi, bilimlarni boyitib borishga bo‘lgan harakatlari, izlanuvchanligi bilan tavsiflanadi. Magistrantlarni ilmiy-pedogogik faoliyatga tayyorlashda faol hamda samarali metodlar qo‘llaniladi. Magistrantlar oliy ta’lim muassasalarida olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini to‘g‘ri yo‘naltirishlari va yangi bilimlarni tez o‘zlashtirib olishlari lozim. Maxsus fanlar metodikasi bo‘yicha hozirgi kunda magistrantlar bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmoqda. Ushbu metodika ta’lim tamoyillari, maxsus fanlardan ma’ruzalar, tajriba va amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda o‘tkazish metodikasi hisoblanadi.

Mamlakatimizda pandemiya sababli karantin tartibi joriy etilib, barcha ta’lim muassasalarida o‘qitish masofaviy ta’lim tizimiga o‘tildi. Masofaviy ta’lim – o‘qitishning yangi shakli bo‘lib, u ta’limning yangi metodlari, vositalari, tashkil etilishi, pedagog va tinglovchi o‘rtasidagi muloqot hamda tinglovchilarning o‘zaro fikr almashish shakllari

tushuniladi. Shuningdek, bunday ta'limning o'ziga xos turli shakllari, ijtimoiy buyurtma bilan asoslangan o'z maqsadiga, ta'lim muassasasining o'quv dasturlarida belgilangan mazmun hamda o'qitish metodlarining tashkiliy shakli va maxsus vositalariga ega bo'ladi.

Bu ta'lim turining bir necha modellari mavjud bo'lib, ular masofaviy ta'lim tashkil qilinishiga sabab bo'lgan vaziyatlari bilan farqlanadi.

Birlamchi model. Ushbu model faqat masofaviy talabalar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ularning har biri virtual o'qituvchiga biriktirilgan bo'lib, konsultatsiyalar va yakuniy nazoratlarni topshirish uchun regional bo'limlar bo'ladi. Bunday o'quv kurslarda o'qituvchi va talabalarga o'quv shaklini va formasini tanlashda imkoniyatlar va erkinliklar beriladi. Bu modelga misol qilib, Buyuk Britaniya davlatidagi Ochiq Universiteti ta'limini olishimiz mumkin.

Ikkilamchi model. Ushbu model masofaviy va kunduzgi ta'lim talabalar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ikkala guruhda bir xil o'quv dasturi va darslar jadvali, imtihonlar va ularni baholash mezonlari mavjud bo'ladi. Bunday o'quv muassasalarda kunduzgi kurslarning soni masofaviylarga qaraganda ko'p. Ushbu masofaviy kurslar pedogogika va uslubiyotdagi yangi yo'nalishlarni izlanishlarida qo'llaniladi. Bu modelga misol qilib Yangi Angliya va Avstraliya Universitetidagi ta'limni olish mumkin.

Aralashgan model. Ushbu model masofaviy va kunduzgi ta'lim turlarini integratsiyalashtirish uchun yaratiladi. Talabalar o'quv kursining bir qismini kunduzgi, boshqa qismni esa masofadan o'qiydi. Shu bilan birga bu ta'lim turiga virtual seminar, prezentatsiyalar va ma'ruzalar o'tkazish ham kiradi. Bu modelga misol qilib Yangi Zelandiyadagi Massey Universitetidagi ta'limni olish mumkin.

Konsorsium. Ushbu model ikkita universitetlarni bir-biri bilan birlashishini talab qiladi. Ushbu muassasalardan biri – o'quv kurslarini tashkil qilib ishini ta'minlasa, ikkinchisi esa ularni tasdiqlab, kurslarga talabalarni ta'minlaydi. Shu bilan birga bu jarayonda butun universitet emas, balki ta'lim sohasida ishlaydigan korxonalar ham qatnashishi mumkin. Ushbu modelda o'quv kuslarini doimiy ravishda nazorat qilish va muallif huquqlarini tekshirish zarur bo'ladi. Bu modelga misol qilib, Kanadadagi ochiq o'quv agentligidagi ta'limni olish mumkin.

Franchayzing. Ushbu model ikkita universitetlar bir-biri bilan o'zlari yaratgan o'quv kurslari bilan almashishadi. Masofaviy ta'lim sohasida yetakchi bo'lgan o'quv muassasa bu sohada ilk qadam qo'yadigan muassasaga o'zining o'quv kurslarini taqdim etadi. Ushbu modelda ikkala model muassasa o'quvchilari bir xil ta'lim va diplom olishadi. Bu modelga misol qilib Ochiq Universitet Biznes maktabi va Sharqiy yevropa Universitetlari bilan bo'lgan hamkorligi bo'lishi mumkin.

Masofaviy ta'limning metodik, iqtisodiy, sotsial yutuqlar va afzalliklari, hamda kamchilik va salbiy tomonlari mavjud.

Masofadan o'qitish metodikasi quyidagi afzalliklarga ega:

– Dars jadvalining qulayligi. Talabalar dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarga vaqtni to'g'ri taqsimlay olish imkonini beradi.

– Talaba istalgan joydan turib ta'limdan foydalana olishi. Masofadan o'qiyotgan talaba mustaqil ravishda semestr davomida darslarni o'zlashtirishda o'ziga qulay vaqt va qulay joy tanlay olish imkonini yaratadi.

– Talabalar uchun qulay o'qish tempi. Masofadan ta'lim olayotgan talaba boshqa talabalarga nisbatan ortda qolish holatlari kuzatilmaydi.

– Ma'lumotlar bazasining to'planishi. Talaba boshqa talabalar yoki o'qituvchi

tomonidan berilgan ma’lumotlar, o‘quv qo‘llanmalardan foydalana olishi mumkin.

– Multimedia imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish. Bunda masofadan ta’lim olayotgan talaba videodarslardan, taqdimotlar orqali darslarni o‘zlashtirish imkoniyati bo‘ladi.

– Malakali o‘qituvchilarni tanlab ta’lim jarayoniga jalb qilish. Masofadan ta’lim olayotgan talaba malakali professor o‘qituvchilar ma’ruza darslarida onlayn qatnasha olish imkoniyati yaratiladi.

Biroq, qishloq va suv xo‘jaligi sohasida mutaxassislar uchun amaliyot darslarni o‘zlashtirishda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda ekin maydonlar sharoitini o‘rganish, qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish uchun maqbul rejimlarni tashkil etish, tuproq meliorativ holatini va relefni aniqlash, iqlim va gidrogeologiyasini o‘rganishda amaliy bilimlar muhim o‘rin tutadi.

Masofadan o‘qitish metodikasi quyidagi kamchiliklarga ega:

– kuchli motivatsiya zarur. Talabalar mustaqil ravishda darslarni o‘zlashtiradilar va buning uchun ular tashqi nazoratlarsiz bilim olishga intilishlari kerak.

– masofaviy ta’lim muloqot qobiliyatini rivojlantirish hamda katta auditoriyalarda talaba erkin ma’ruzalar o‘tish qobiliyatini rivojlantirishga xos emas.

– amaliy bilimlarning yetishmasligi. Yuqorida keltirib o‘tilgan qishloq va suv xo‘jaligi sohasida, tibbiyot sohalarida masofaviy ta’lim “jonli” amaliyot o‘rnini bosa olmaydi.

– talabani identifikatsiya qilish muammosi. O‘qituvchilarda talabaning onlayn test imtixonlarini mustaqil o‘zi topshirishini nazorat qilish imkoniyati bo‘lmaydi.

– kompyuter savodxonligining yetishmasligi. Onlayn tarzda bilim olish bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri kompyuter bilan bog‘liq. Masofaviy ta’lim jarayonida kompyuterdan foydalanish bilimlariga ham ega bo‘lishni talab etadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari innovatsion yutuqli texnologiyalarni ustuvor joriy etishga qaratilgan. Axborotlashgan jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichi hayotimizning barcha sohasiga yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini doimiy ravishda jorish etish bilan tavsiflanib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, malakali kadrlarni tayyorlashda pedagoglarning innovatsion faoliyatini shakllantirish hamda maxsus fanlarni o‘qitishda masofaviy ta’lim metodikasi qulay va samarali ta’lim metodi hisoblanadi. Axborot va kommunikatsiya jadal rivojlanayotgan davrda yangi pedagog kadrlarimiz talabalarga avvalgi dars jarayonlariga nisbatan kam vaqt sarflab, ko‘proq bilim va yangiliklar yetkazish, pedagog talabalar bilan individual shug‘ullanishi, ularga kerakli maslahat va bilimlarni bera olishi mumkin. Talabalar amaliy darslar bilan ko‘proq shug‘ullanishi, nazariy bilimlarni o‘zlariga qulay vaqtda onlayn tarzda o‘zlashtirib olish imkoniyati yaratiladi. Qishloq va suv xo‘jaligi sohasida ham asosan ekin maydonlarni holati bo‘yicha masofadan turib zamonaviy dasturlash tizimlari orqali ma’lumotlar olish imkoni yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. –T. – 2017. – 39-b.

2. Ismailova Z.Q., Maxsudov P.M., Ergashev O.K., Matkarimov K.J. “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” o‘quv–qo‘llanma. –T. – 2018. – 7-b.

3. Ismailova Z.K. Pedagogika. Darslik. – T., Moliya – Iqtisod, 2008.

Shaxlo BOTIROVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti

ADABIY TA’LIM KLASTERIDA “MAKTAB-LABORATORIYA” TUZILMASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada “Maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchalari umumiy o‘rta ta’lim bosqichida adabiyot ta’limi klasterining shakliy belgilarini, tajriba-sinov jarayoniga qo‘yilgan loyihalar esa adabiy ta’lim klasterining mazmun xususiyatlarini tashkil qilganligi va shu jihatdan adabiyot ta’limi klasterining maktab-laboratoriya tuzilmasi maqolada keltirilgan. loyihaning asosiy mazmunini ifodalashi hamda “Maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchalarining yo‘nalishlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Innovatsiya, tajriba, klaster, shakl, belgi, xususiyat, loyiha, tuzilma, o‘rta ta’lim, adabiyot ta’limi, fan tarmoqlari, “Maktab laboratoriya”.

В статье инновационные экспериментальные площадки “Школа-Лаборатория” формируют формальные характеристики кластера литературного образования в общем среднем образовании, а проекты, представленные в экспериментальном процессе, формируют содержательные характеристики кластера литературного образования. Лабораторная структура кластера отражает основное содержание представленного в статье проекта и анализируются направления инновационной экспериментальной площадки “Школа-лаборатория”.

Ключевые слова. Инновация, эксперимент, кластер, форма, персонаж, особенность, проект, структура, среднее образование, литературное образование, наука, “Школьная лаборатория”.

In this article, the innovative experimental sites “School-Laboratory” form the formal features of the cluster of literature education in general secondary education, and the projects submitted for the experimental process form the content features of the cluster of literary education. The school-laboratory structure of the cluster reflects the main content of the project presented in the article and the directions of innovative experimental sites “School-laboratory” are analyzed.

Key words. Innovation, experience, cluster, form, character, feature, project, structure, secondary education, literature education, science, “School Laboratory”.

Pedagogik ta’lim jamiyatning barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyati va talabidan kelib chiqqan holda innovatsion modellarni o‘zlashtirishni taqozo qiladi. Keyingi yillarda pedagogik ta’limga yangi ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida kirib kelgan klaster yondashuvi zamonaviy talablarga mosligi, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda ta’lim, fan va ishlab chiqarish bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro hamjihatlikni ta’minlashga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Pedagogik ta’lim klasteri tizimning bugungi holatidan kelib chiqilganda hayotiy zarurat ekanligi oydinlashadi.

‘‘Maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchalari umumiy o‘rta ta’lim bosqichida adabiyot ta’limi klasterining shakliy belgilarini, tajriba-sinov jarayoniga qo‘yilgan loyihalar esa adabiyot ta’limi klasterining mazmun xususiyatlarini tashkil qiladi. Shu jihatdan adabiyot ta’limi klasterining maktab-laboratoriya tuzilmasi o‘zida mazkur loyihaning asosiy mazmunini ifodalaydi.

Tadqiqotchi U. Xo‘jamqulov “Maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchalarining yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni qayd etadi: tajriba-innovatsion yo‘nalish; ilmiy-uslubiy yo‘nalish; ilmiy tadqiqot yo‘nalishi; axborot-tahliliy yo‘nalish[1].

Mazkur yo‘nalishlar tadqiqotchi tomonidan umumiy metodologik asosga ega yo‘nalishlar sifatida keltirilgan. Ushbu yo‘nalishlarni fan tarmoqlari, xususan, adabiy ta’lim klasteri “Maktab-laboratoriya”lariga tatbiq qilinganda, quyidagi belgi-xususiyatlar namoyon bo‘ladi:

– tajriba-innovatsion yo‘nalish – adabiyot ta’limining yangilangan mazmunini amaliyotga tatbiq qilish va aprobatsiyadan o‘tkazish; kasbgacha va kasbiy pedagogik tayyorlov bo‘yicha ta’lim va tarbiyaning innovatsion usullari, shakllari va texnologiyalari bo‘yicha innovatsion loyihalarni ishlab chiqish, aprobatsiya qilish va tatbiq etish;

– ilmiy-uslubiy yo‘nalish – adabiyot fani o‘qituvchilariga innovatsion faoliyat bo‘yicha ilmiy-uslubiy yordam ko‘rsatish; konferensiyalar, seminarlar, master-klasslar, ochiq mashg‘ulotlar, stajirovkalar, guruh va individual maslahatlar tashkil etish orqali adabiyot fani o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish va “Maktab-laboratoriya”da to‘plangan innovatsion usullarni tarqatish;

– ilmiy tadqiqot yo‘nalishi – adabiyot o‘qitish metodikasini klaster vositasida takomillashtirish borasidagi ilmiy tadqiqotlarni ta’lim amaliyotlarida qo‘llash va ekspertiza qilish, adabiyot ta’limini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda samaradorlikni tadqiq qilish;

– axborot-tahliliy yo‘nalish – adabiyot fani o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan ilg‘or ta’lim usullarini o‘rganish va umumlashtirish; ta’limga oid axborot resurslarini yaratish, jamlash va yangilab borish; ommaviy axborot vositalarida adabiyot ta’limining jozibadorligini oshiruvchi va uning mavqeyini ko‘taruvchi reklama mahsulotlari, maqolalar hamda videoroliklar tayyorlash.

Adabiyot ta’limi klasteri “Maktab-laboratoriya” tuzilmasidagi adabiy ta’limning faoliyat yo‘nalishlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Ta’lim yo‘nalishi:

– adabiyot ta’limida mavjud muammolarni aniqlash, tasniflash va bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish;

– hududda adabiyot ta’limi bo‘yicha o‘quv-uslubiy salohiyatning vertikal va gorizontal harakatlanish mexanizmini ishlab chiqish;

[1] Xo‘jamqulov U.N. Maktab-laboratoriya. Uslubiy-qo‘llanma. Chirchiq: Universitet, 2019. – 27-b.

– adabiyot dars mashg‘ulotlari sifatini boshqarish va nazorat qilish;

– adabiyot ta’limi bo‘yicha o‘quv-uslubiy samaradorlikni aniqlashning sodda va eng maqbul mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy qilish;

– adabiy ta’limining o‘quv-uslubiy sohasida o‘zaro tyutorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Ta’lim vositalari yo‘nalishi:

– adabiyot fanining o‘quv reja va fan dasturlarini takomillashtirish;

– adabiyot fanidan darslik, o‘quv qo‘llanmalarning mazmun-mundarijasini boyitish va saviyasini ko‘tarish;

– adabiyot dars mashg‘ulotining yordamchi adabiyotlar va didaktik ta’minotini takomillashtirish;

– adabiyot dars mashg‘ulotlarida axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishga erishish.

Ta’lim va fan yo‘nalishi:

– adabiy ta’lim va fan o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish;

– adabiyotshunoslik ilmiy sohasida ta’lim turlariaro ustoz-shogird tizimini yo‘lga qo‘yish.

Adabiy ta’limni muvofiqlashtirish yo‘nalishi:

– adabiy ta’limni innovatsion muvofiqlashtirish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish;

– adabiy ta’lim bo‘yicha ta’lim turlari manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi hududiy boshqaruv tizimini yaratish;

– adabiy ta’limni muvofiqlashtirish tizimiga innovatsion usul va vositalarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish.

Klaster tamoyiliga asosan bir xil turdagi obyektlar to‘plamining birgalikdagi faoliyati har doim alohida bajarilgandan ko‘ra samaraliroq bo‘ladi, shuningdek, bunday integratsiyalashuvda ularni bir butun holda boshqarish mumkin bo‘ladi. Shunday ekan, klaster yondashuvini tatbiq qilish natijasida ta’lim turlari o‘rtasida adabiyot ta’limini muvofiqlashtirish imkoniyati yaratiladi, adabiy ta’lim va fan o‘rtasidagi integratsiya ta’minlanadi, uzviylik va uzluksizlik qaror topadi.

Har bir fanning tuzilishi uning o‘rganish predmetining tuzilishini aks ettirgani kabi, adabiyot metodikasining tuzilishi maktabda adabiyot fanini o‘qitish jarayonini aks ettiradi. Bu jarayonning asosiy elementlari quyidagilardan iborat: o‘quv maqsadlari – o‘quv predmeti – o‘qituvchi – o‘quvchi.

O‘quv jarayoni esa o‘zaro uzviy bog‘langan quyidagi elementlardan iborat: 1) o‘quv predmeti; 2) o‘qitish, o‘qituvchi faoliyati; 3) o‘qitish, o‘quvchi faoliyati. Metodika fanni o‘qitish bilan bog‘liq tegishli muammolarning quyidagi masalalarini hal qiladi: kimga o‘qitish (o‘quv predmetlari); nimani o‘qitish (o‘quv maqsadi); nimani o‘rgatish (ta’lim mazmuni va tizimi), qanday o‘qitish (o‘qitish shakl va usullari). Klaster zanjirida o‘quv jarayoni elementlari ta’lim turlari (klaster subyektlari) doirasida yondashuv bilan bog‘liq o‘zgarishlar kuzatilmaydi. Ammo metodika masalalari har bir kalster subyektining fan dasturiga mos holda muayyan o‘zgarishlarga uchraydi. Bunda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, ta’lim mazmuni, ta’lim vositalari va shakllari bilan bog‘liq xususiyatlar inobatga olinishi lozim.

Adabiyot fanining o‘quv maqsadlari mavzu bo‘yicha material tanlash va uni o‘quvchiga yetkazish tizimiga ta’sir ko‘rsatadi. Tanlangan (belgilangan) mavzu uni o‘qitish tizimi va usullarini taqozo etadi; o‘qituvchining faoliyati natijasida o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanadi.

Umumta’lim maktablarida bu elementlarning har biri juda murakkab aloqa va munosabatlar tizimiga ega. Mavzuning mazmuni nafaqat maktab maqsadlari bilan belgilanadi, balki o‘zi ham ta’lim maqsadlariga ta’sir ko‘rsatadi: masalan, badiiy adabiyot va adabiyot fanining rivojlanishi umumiy ta’lim tizimida mavzuni o‘rganish maqsadlarini aniqlashtiradi va rivojlantiradi. O‘quvchi, uning shaxsi, pedagogik jarayonda ochib berilgan qobiliyati va imkoniyatlari ta’limni tashkil etishning barcha qismlariga birday ta’sir ko‘rsatadi. Bundan adabiy ta’limga klaster yondashuvini tatbiq qilish zarurat ekanligi oydinlashadi. Maktabgacha ta’lim muassasasida tarbiyalangan bolada shakllangan dastlabki adabiy ko‘nikmalar umumta’lim maktabida adabiyot ta’limini tashkil qilishga, o‘z navbatida umumta’lim maktablarida o‘quvchilarda shakllangan adabiy kompetensiyalar oliy ta’lim muassasalarida adabiyot ta’limini tashkil qilishning mazmunini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismailova, Zukhra, Ruzimurot Choriev, and Aynisa Musurmanova Mahfuza Aripjanova. “Methods of training of teachers of university on advanced training courses.” Journal of Critical Reviews 7.5 (2020): P.413- 416.

2. Narbayeva, T.K, Musurmanova, A. “Priority areas of spiritual, moral and physical education of youth in the family”. Annals of the Romanian Society for Ceff Biology 25.1 (2021): 6485-64Xo‘jamqulov U.N. Maktab-laboratoriya. Uslubiy qo‘llanma. Chirchiq: Universitet, 2019. – 88-b.

3. Ушенский К.Д. Человек как предмет воспитания. Монография. ttp://dugward.ru/library/pedagog/ushinskiy_chelovek1.html.

4. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Darslik – T.: Yangi asr avlodi, 2010-y. 6-7-betlar.

5. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., A.Ibrohimov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T., O‘qituvchi – 1992. 10-b.

6. Musurmonqulova M.M. Kreativ yondashuv asosida o‘qitishning didaktik ta’minotini yaratish mexanizmlari // Maktab ta’limi, 2018. №4.

Lola RAJABOVA,
Qarshi davlat universiteti, “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

INTEGRATIV – DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK IJTIMOIY SOHA MUTAXASSISLARINI O‘QITISH NAZARIYASI

Annotatsiya

Maqolada integrativ – differensial yondashuv asosida bo‘lajak ijtimoiy soha mutaxassislarini oqitish nazariyasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Qonun, qonuniyat, yaxlitlik, uzviylik, prinsiplar, boshqaruv qonunlari, aksiomalar.

В статье рассматривается теория подготовки будущих социальных работников на основе интегративно-дифференциального подхода.

Ключевые слова. Закон, закономерность, целостность, непрерывность, принципы, законы управления, аксиомы.

The article discusses the theory of training future social workers on the basis of an integrative-differential approach.

Key words. Law, regularity, integrity, continuity, principles, laws of governance, axioms.

Mamlakat kasbiy ta’lim tizimi o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ygan bo‘lib, u faol tarzda islohotlarni amalga oshirish, mutaxassislarni tayyorlashning mahsuldor tamoyillari va modellarini izlash bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayon kasbiy ta’limda muayyan g‘oyalar bilan e’tirof etilgan bo‘lib, ular zamonaviy jamiyat rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Turli nuqtayi nazarlar tomonidan ko‘rib chiqiladigan “g‘oya” tushunchasida atroflicha to‘xtalib o‘tamiz: qandaydir voqea-hodisa, jarayon, qonuniyatlarning akslanish shakli bo‘lib, ular “... yaqinlashish, yo‘nalishdan tashqari o‘zgacha voqeylikka ega emas...” jamoat taraqqiyotining yo‘nalishi:

1) qandaydir fikr-mulohaza, tasvirning zamirida yotgan qandaydir g‘oya...;

2) kimgadir, nimagadir xos bo‘lgan taraqqiyot yo‘nalishiga intilish, moyillik ... qandaydir voqea-hodisa, fikr va g‘oyaning rivojlanish yo‘nalishi. Qonuniy, qaytarilib turadigan, nisbatan turg‘un xususiyatga ega bo‘lgan yo‘nalish, harakat, rivojlanishning yo‘nalishi, amal qilishi; qonuniyatga intilish, obyekt, holat, jarayon yoki munosabat ko‘rinishi yoki turi; faktlar va hodisalar tavsifi bo‘lib, uning asosida ularning o‘zaro muvofiqligi to‘g‘risida umumlashish qilinadi; qonunlar, qonun-tamoyil bo‘lib, hodisa va jarayonlar orasidagi ehtimolli aloqani aks ettiradi; unsurlarning o‘zaro tartibga solingan joylashuvi bo‘lib, bir-biriga nisbatan shunday joylashishda bo‘ladiki, bunda muayyan funksiyalar oson bajariladi (“muayyan tartibga keltiriladi”); rivojlanish yo‘nalishi, moyillik, intilish;

1) biror bir bayon, tasvir tarkibida bo‘lgan fikr, g‘oya bo‘lib, u mantiqiy va badiiy vositalar bilan uqtiriladi;

2) oldindan bichib-to‘qilgan, bir taraflama fikr, ish mohiyatidan kelib chiqmagan, biroq kimgadir majburan o‘tkazilgan g‘oya;

3) kimgadir, nimagadir xos bo‘lgan intilish, niyat; qarashlar va harakatlardagi yo‘nalish;

4) nimanidir rivojlanish yo‘nalishi (jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat va boshq.); intilish, ongli niyat;

5) g‘oya, asosiy fikr, badiiy, ilmiy va boshqa asarning yo‘nalishi;

6) kitobxon, tomoshabin, tinglovchiga oldindan majburan singdirilgan fikr. V.I. Dobrenkov va A.I. Kravchenko tamoyilni qonuniyatning zaif turi sifatida ko‘rib chiqib, u voqealar rivojlanishining asosiy yo‘nalishini, haqqoniy jarayonni obyektiv voqelikka yaqinlashishini ko‘rsatadi.

Qonuniyat esa – qaytarilib turadigan qonunlar tartibi. Qonun – “qonuniyat” tushunchasiga nisbatan birlamchi tushuncha. “Qonuniyat” va “qonun” tushunchalari o‘zining mazmuni va qabul qilingan ishlatilishiga ko‘ra ajralib turadi. Qonunlar va qonuniyatlar orasidagi tafovutlar mazkur tushunchalar mazmunining qisman mos kelishini inkor etmaydi, aksincha ularni nazarda tutadi. Falsafiy nuqtai nazarga ko‘ra: “agar qandaydir pedagogik hodisa yoki jarayon bir nechta qonunlarga bo‘ysunadigan bo‘lsa, bu qonuniyatning namoyon bo‘lishidir. Biroq qonunning jiddiy bo‘lmagan aks etish tamoyili ham mavjud”. Shunday qilib, eng umumiy sifatlarda, trend yoki tamoyil – bu alohida yo‘nalish bo‘lib, unda bozor harakatlanadi (bizning holatimizda ta’lim xizmatlari bozori). Bozor dinamikasi siniq chiziqlar seriyasi bo‘lib, ular to‘lqinlarni eslatadi: bir ko‘tarilish, bir tushish, bir ko‘tarilish, bir tushish. Aynan dinamika yo‘nalishi va mazkur ko‘tarilish va tushishlar yo‘nalishi bozor tamoyillarini keltirib chiqaradi. Dinamikaning avjga chiqish va pasayish bilan bog‘liq yo‘nalishi – tepaga qarab, pastga qarab va gorizontal holatda – bizga bozor tamoyilining xususiyatidan dalolat beradi. Shu bois, agar har bir keyingi avjga chiqish va pasayish oldingisidan baland bo‘lsa, bu ko‘tarilish tamoyili hisoblanadi. Shunga ko‘ra, agar har bir keyingi avjga chiqish va pasayish oldingisidan past bo‘lsa – bizning oldimizda pasayish tamoyilidir. Agar avjga chiqish va pasayish bir xil darajada bo‘lsa – bizning oldimizda gorizontal tamoyildir (1-rasm).



1-rasm. Tamoyillarning avjga chiqish va pasayish dinamikasi yo‘nalishi

Sayoz bozorning aynan shunday “yopishqoq” davrlari sezilarli yo‘qotishga olib kelib, tizimli treyderlarning ko‘p hollarda ko‘ngli qolishiga sabab bo‘ladi. Tamoyildan keyingi tizim amal qilishi uchun, ta’rifga ko‘ra, unga tamoyil zarur. Shu bois bunda kulfat ildizi tizimda emas, aksincha mazkur sharoitda tizimni ishlashga majbur qilgan treyderdadir. Zero, uning aybi tizim mo‘ljallanmagan sharoitda uni ishlashga majbur

qilishidan iborat bo‘ladi. Ta’lim inson hayot faoliyatining boshqa sohalari kabi tashqi va ichki ta’sirlarga moyildir, shu sababli bozor qonuniyatlarini bilish mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda maqsadga muvofiq strategiyani qurishga imkon beradi. “Tamoyil” (yo‘nalish, rivojlanish, mayl, intilish) tushunchasiga tadqiqotsiz doirasida, to‘g‘rirog‘i uzluksiz kasbiy ta’lim tizimida berilgan turlicha nuqtai nazarlarni ko‘rib chiqqan holda, mazkur toifani uzluksiz kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirishning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat bilan shartlangan ustuvor yo‘nalishlari va ish beruvchilar (manfaatdor taraflar)ning mutaxassislarning tayyorgarligiga bo‘lgan talablariga mos kelmaydigan jihat deb qabul qilamiz va shu bois u oliy maktab tizimida kasbiy ta’limni modernizatsiya qilish yo‘nalishida davlatning strategik siyosatini belgilab beradi. Shunday qilib, kasbiy ta’limdagi tamoyillar – bu ijtimoiy jamiyat va kasbiy hamjamiyat tomonidan bir qator integral xususiyatlar (ko‘pjihatlilik, yaxlitlik, tizimlilik, barqarorlik, uzviy mutanosiblik) kabi mutaxassisning bir qator sifatlarini o‘z ichiga olgan talablaridan kelib chiqqan holda kasbiy ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi, va shu sababdan kasbiy ta’limni majmualilik, davriylik, subyektivlik va innovatsionlik tamoyillaridan kelib chiqqan holda amalga oshirishni nazarda tutadiki, bunda ushbu tamoyilni ro‘yobga chiqarish in’ikosi bitiruvchilarni kasbiy tayyorlash darajasi davlat va jamiyatning zamonaviy talablariga javob berishini nazarda tutadi.

Ijtimoiy soha mutaxassislarini kasbiy tayyorlash tamoyillari – bu konvergensiya va divergensiya prinsiplari asosida qurilgan va mutaxassisning ham umumkasbiy integral (ijtimoiy mas’uliyatlilik, refleksivlik, muomalalilik) va maxsus integral (bag‘rikenglik, ijtimoiy faollik, empatiyalik) kabi sifatlarni nazarda tutuvchi kasbiy ijtimoiy ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib, ularni rivojlantirish majmuada bitiruvchining kasbiy raqobatbardosh yaxlit shaxsiyatini shakllantirishga ko‘maklashadi. P.S.Gurevich yaxlit shaxs tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi – bu “insonning turdosh mohiyati to‘g‘risidagi tasavvur bo‘lib, u yaxlitning alohida qismlari va shu bilan birga yaxlit orqali ifodalanadi”. Zamonaviy tasavvurlarga muvofiq, yaxlit bir vaqtning o‘zida boshqa ko‘psonli yaxlitliklarning qismi hisoblanadi. Bundan quyidagicha formula kelib chiqadi: “Birlikda yaxlit va yaxlitlikda birlik mavjud”. Boshqa qismanlik yoki yaxlitlik ta’siri ostida o‘zgarishga moyil bo‘lmagan qismanlik mavjud emas. Yaxlitlik – bu bir ko‘rishda ko‘zga tashlanmaydigan asos bo‘lib, u barcha qismanliklarni boshqaradi, ularni cheklaydi va bizning qismanliklarni tushunish bo‘yicha yo‘llarimiz va xususiyatlarimizni belgilab beradi.

P.S. Gurevichning qayd etishicha, turli tuman fundamental yaxlitliklar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularning hech biri umuman olganda bir butun emas. Aksincha ularning hammasi boshqa nisbiy yaxlitliklar qatorida nisbiy yaxlitliklar bo‘lib hisoblanadi. “Yaxlitlik – bu xususiyat yoki atribut emas, aksincha o‘ziga xos qarash bo‘lib, u umumiy, o‘zaro bog‘liq, bo‘linmas jihatni topishga imkon beradi. Bir voqelikni o‘zini sifatli turli-tumanlik, bir-biridan farqlik, tafovut sifatida va shu bilan bir qatorda ontologik yaxlitlik sifatida tasvirlash mumkin. Yaxlitlik insonga berilmaydi, aksincha u tomonidan ishlab topiladi. Inson bir xususiy yaxlitlikdan boshqa yaxlitlikka qarab harakatlanar ekan, qaysidir ma’noda o‘zining idealini amalga oshiradi”. Yaxlitlik va butunlik – o‘zining ma’nosiga ko‘ra bir xil tushunchalar emas. Yaxlitlik butunlikning butun mohiyatini aks ettira olmaydi. U faqat insonning tugallikka umumiy harakatining bir bo‘lagi bo‘lishi mumkin. Inson o‘z tavsifiga ko‘ra bir butun bo‘la olmaydi. Bir butunlik o‘ziga xos umumiy intilish hisoblanadi. Muammoni aynan shunday tushunish insonni o‘ziga xos

turdagi mavjudot sifatida tushunish, shu bilan bir qatorda bir butunlikni uzluksiz kasbiy ta’lim tizimining sifat jihatidan tavsifi kabi anglashga imkon beradi.

Uzluksiz ta’limning tizim hosil qiluvchi omili bo‘lib, har bir inson shaxsiyatining doimiy rivojlanishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoji xizmat qiladi. Bu bilan ko‘p sonli ta’lim tarkibiy tuzilishlari – asosiy, parallel, bazaviy va qo‘shimcha, davlat va jamoat, rasmiy va norasmiy turlarini kelib chiqishi bilan belgilanadi. Ularning o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro shartlanganligi, o‘zaro bir-biriga darajalari bo‘yicha bo‘ysunganligi, yo‘nalganligi va maqsad-mohiyati bo‘yicha muvofiqlashuvi, ular orasida o‘zaro ta’sirning ta’minlanishi bu kabi tarkibiy tuzilishlarning butun majmuini yagona tizimga aylantiradi. “Uzluksiz ta’limning maqsadi insonni butun hayoti mobaynida o‘qitish emas, aksincha buni o‘zi bajarishni o‘rganishi zarurligida o‘z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, uzluksiz ta’lim tizimi uning rivojlantiruvchi xususiyati unga avvaldan xos bo‘lgan taqdirdagina barhayot hisoblanadi”.

Uzluksizlik ta’lim tizimini takomillashtirishning asosiy maqsadini ifodalaydi – bu ta’lim jarayonining yaxlitligi, undagi barcha bosqich va darajalarda integratsiyalashuv (umumlashganlik)dan iborat. Boshqacha qilib aytganda, inson ta’limning bir shaklidan boshqa shakliga o‘tganligi sababli uzluksiz emas, aksincha muayyan darajadagi va xususiyatdagi malakani olish yoki ishlash orqali u parallel ravishda va zarur bo‘lgan hollarda uni boshqacha yo‘llar bilan kengaytirishi mumkin – ham tashkil etilgan davlat va ijtimoiy ta’lim tizimi orqali ham mustaqil ta’lim olish orqali va hokazo. Integrativlik va uzviylik uzluksiz rivojlanib borayotgan jarayonga rejali boshlanishni kiritishni nazarda tutgan bo‘lib, u faqat keyingi tayyorgarlikning bazaviy qiymatini emas, balki uzviy rivojlanayotgan jarayonga rejali boshlanmani kiritishni hamda o‘zaro bog‘liq bir butunlikni kiritilishini nazarda tutadi.

Pedagogik jarayonning gumanistik yo‘naltirilganligi – ta’limning ilg‘or prinsiplaridan biri bo‘lib, jamiyat va shaxs maqsadlarini o‘zaro uzviy mujassamlashtirishni talab qiladi. Gumanistik yo‘naltirigan ta’lim insonni uning o‘ziga xos manfaatlar va ehtiyojlarni hisobga olmagan holda faqat qandaydir ijtimoiy yoki kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorlay olmaydi. Ta’limni insonparvarlashtirish zamonaviy jamiyatdagi ko‘pqirrali jarayonda muhim o‘rin egallaydi, ularning asosiy g‘oyalari ta’limni rivojlantirish (L.S. Vigotskiy, V.V. Davidov) va tarbiyaviy ta’lim (O.V. Zaslavskaya), o‘quv-tarbiyaviy jarayonning yaxlitligi (V .I. Ilin), o‘quv faoliyatini individuallashtirish va differensiallashtirish (N.A. Zavalko, L.Y. Zorina), o‘quvchilarga mustaqil ta’lim berish va mustaqil ta’lim olishga o‘rgatish (V.P. Zinchenko, Y.M. Zislin), o‘qishda motivatsiyani shakllantirish (A.V. Ivanov, G.I. Shukina), o‘qituvchining mustaqil rivojlanishi va individuallini rivojlantirish (YE.P. Belozersev, V.I. Zagvyazinskiy), ta’limni dialogizatsiyalash (M.YE. Kuznetsov) o‘z aksini topadi. Mazkur va boshqa olimlar o‘z diqqatini ta’lim oluvchilarning shaxsiyatiga, uning mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan kuchi, uning bilishga oid faolligining ichki manbaiga e’tiborni faollashtiradi Kasbiy ta’limni insonparvarlashtirish prinsipini A.P. Belyayeva kasbiy pedagogikaning yangi ijtimoiy-pedagogik prinsiplaridan biri hamda umuminsoniy qadriyat sifatida kasbiy ta’lim tizimini insonparvar munosabatlarga yo‘naltiruvchi jihat deb ataydi”. Y.M. Dorojkin ta’lim jarayonini insonparvarlashtirishning quyidagi prinsiplarini belgilaydi: ta’lim oluvchining pedagogik jarayonda haqiqiy insoniy xislatlarni bilish va o‘zlashtirish; ta’lim oluvchilarning o‘zlarining inson sifatida o‘z bioijtimoiy-ruhiy mohiyatini anglashi; alohida shaxs manfaatlarining umuminsoniy manfaatlar bilan mos kelishi; pedagogik jarayonda ta’lim oluvchilarni g‘ayri ijtimoiy xatti-harakatga jalb qilishga nojoizligi; pedagogik jarayonda ta’lim oluvchiga o‘z individualligini eng yaxshi tarzda ko‘rsatish

uchun ijtimoiy erkinlik yaratib berish; pedagogik jarayonda hayotiy muhim holatlarni insoniylashtirish; shakllanayotgan shaxs sifatlari, uning bilimliligi va pedagogik jarayon sifatiga nisbatan rivojlanish darajasi. Insonparvarlashtirish prinsipi, avvalambor ta'lim mazmunida o'z aksini topib, u barcha fanlarda gumanitar yo'nalishni kuchaytirishda ifodalanadi. Kasbiy ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish – bu insonning ichki dunyosi va ma'naviy sohadagi faoliyatini aks ettiruvchi gumanitar bilimlarni ajratish; ijtimoiy fanlar (huquq, falsafa, etika, estetika, adabiyot, psixologiya va boshq.), dunyoni bilish va qayta qurishda ishtirok etuvchi shaxsning o'zini o'zi anglashini shakllantirishga yordam beruvchi, inson huquqlari, erkinliklari, uning sha'ni va etnomadaniy xususiyatlarini hurmat qilish, madaniy qadriyatlar va axloq normalarini egallash, qurilayotgan jamiyatga, tabiatga g'amxo'r munosabatda bo'lishga moslik; gumanitar ta'lim mazmunini optimizatsiya qilishni bildiradi. Bundan tashqari mazkur tamoyil pragmatizatsiya (aytib o'tilgan fanlar mazmunining tayyorgarlik yo'nalishi, bitiruvchining bo'lg'usi kasbiy faoliyati xususiyatiga yaqinligi), diversifikatsiya (majburiy (kasbiy) va elektiv (talabaning tanloviga ko'ra) gumanitar fanlar doirasini kengaytirish) va integratsiya (fanlararo kurslarni o'qitish va o'rganishni tashkil qilish)da o'z aksini topadi. Insonparvarlashtirish prinsipi ta'lim sohasida davlat siyosatining muhim prinsiplaridan biri hisoblanadi: umuminsoniy qadriyatlar, inson hayoti va sog'lig'i, shaxsning erkin rivojlanishi kabi tamoyillarning ustuvorligi, shuningdek fuqarolik, mehnatsevarlik, inson huquq va erkinliklariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, atrof-muhitni asrash, Vatanni va oilasini sevish. Ichki institutsional va umumijtimoiy amaliyotning o'zaro shartlanganligi.

Nazariya deganda, biz muayyan voqelik sohasida qonuniy va ahamiyatga molik aloqalarni yaxlit aks ettirishga imkon beruvchi ilmiy bilimning yetarlicha rivojlangan shakli tushuniladi. Har qanday nazariya – bu haqiqiy bilimning yaxlit rivojlanuvchi tizimi bo'lib, u murakkab tarkibiy tuzilishga ega va bir qator vazifalarni bajaradi. Fanning zamonaviy metodologiyasida nazariyaning quyidagi asosiy elementlari ajratiladi:

1) boshlang'ich asoslar – fundamental tushunchalar, prinsiplar, boshqaruv qonunlari, aksiomalar va boshqa;

2) ideallashtirilgan obyekt – o'rganilayotgan predmetlar ahamiyatli xususiyatlari va aloqalari o'rtasidagi mavhum model;

3) nazariya mantig'i rasmiy, tayyor bilimning tarkibiy tuzilishini aniqlashga qaratilgan hamda dialektik, ya'ni bilimning o'zaro aloqadorligi hamda toifalari, qonuniyatlari, prinsiplari hamda boshqa shakllarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot shaklida bo'lishi mumkin;

4) rasmiy va dialektik mantiq prinsiplariga muvofiq mazkur nazariyaning asosiy qonuniyatlaridan kelib chiqqan qonunlar va fikr-mulohazalar majmui. Nazariyaning asosiy unsuri – qonun, shu bois uni o'zining bir butunligi va muayyanligi bo'yicha o'rganilayotgan obyektning mohiyatini aks ettiruvchi qonuniyatlar tizimi sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Rivojlanish asosi nazariya – amaliyot. Amaliyot:

1) dunyoni ijodiy tarafdan egallayotgan odamlarning qayta quruvchi va yaratuvchilik faoliyati;

2) qandaydir ishning usullari, ko'nikmalari;

3) tajriba, ko'nikmaning asosi sifatida qandaydir mutaxassislik bo'yicha ish;

4) ta'lim shakllaridan biri – ta'lim oluvchi tomonidan korxona va tashkilotlarda o'qish jarayonida olingan nazariy bilimlar va hokazo.

Nazariya bilan amaliyotning o'zaro bog'liqligi prinsipi quyidagi qonuniyatlarga taya-

nadi: ta’limning sifati amaliyot bilan tekshiriladi, tasdiqlanadi va yo‘naltiriladi; amaliyot – haqiqat mezoni, bilishga oid faoliyatning manbai va ta’lim natijalarini qo‘llash sohasidir. Ta’limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligidagi yutuq ta’lim mazmun mohiyati, o‘quv jarayonini tashkil qilishda qo‘llaniladigan shakl va usullarga bog‘liqdir, zero bilimlar “o‘zlarining tub jihatlari”da qanchalik hayot bilan bog‘liq bo‘lsa, amaliyotda qo‘llansa, ta’limning ongliligi va unga bo‘lgan qiziqish shunchalik yuqori bo‘ladi. Ta’limning barcha bosqichlarida o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish talabalar tomonidan kasbiy faoliyatni egallashda, bitiruvchi tayyorgarligi saviyasiga bo‘lgan talablardan kelib chiqqan holda uzluksizlik va uzviylikni ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Kasbiy ta’limning asosiy jarayonlari: ta’lim, tarbiya, rivojlanish orasidagi o‘zaro aloqadorlikni faollashtirish muammosi. Zamonaviy ilm-fan va pedagogik amaliyotda ta’lim deganda, ta’lim oluvchiga avvalgi avlodlarning ijtimoiy-madaniy tajribasi (bilimlari, meyorlari, harakatning umumlashgan usullari va hokazolarni) maqsadga yo‘naltirilgan tarzda o‘tkazish (translyatsiya) qilish hamda mazkur tajribani o‘zlashtirishni tashkil qilish, shuningdek mazkur tajribani turli vaziyatlarda qo‘llash imkoniyati va tayyorligi bilan bog‘liq faol ish-harakat tushuniladi. Ta’lim olish, albatta, o‘z sharti sifatida mazkur tajribani o‘zlashtirish bo‘yicha o‘rgatish va ta’lim berish jarayonlarini taklif qiladi.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning mazmunini shakllantirish ko‘rib chiqilgan tamoyillarini zamonaviy o‘rta maktablar va akademik litseylari uchun tanlab olish quyidagi mezonlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

– erkin fikrlovchi shaxsning rivojlanishi va uning madaniyatini shakllantirish masalalari mazmunini yaxlit aks ettirish;

– imiy va amaliy ahamiyati;

– ta’lim mazmunining murakkabligi, o‘quvchilar imkoniyatlarining mavjud o‘quv dasturlariga mosligi;

– ta’lim hajmining uni o‘rganishga ajratiladigan vaqtga mosligi;

– maktab hamda litseylar bazasining zamonaviy talablarga javob berishi;

– umumiy o‘rta ta’lim mazmunini qurishda xalqaro tajribalarni hisobga olish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avazboyev A.I. Kasbiy pedagogika. Darslik. Fan va texnologiya. 2014. 284-b.

2. Rashidov X., Xabib X. va boshqalar. Kasb pedagogikasi. O‘quv uslubi qo‘llanma. – T., 2007. 96-b

3. Komenskiy Y.A. Buyuk didaktika. (M. Ochilov tarjimasi) – T.: O‘qituvchi, 1975. 225-b.

Shuxrat HAMROYEV,
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi, pedagogika fanlari nomzodi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI AXLOQIY TARBIYALASHDA SAIDRASUL AZIZIYNING “USTODI AVVAL” DARSLIGIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval” darsligidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Sharqiya muallim, Ustodi avval, “Poklik”, “Onaga hurmat”, “Aqlli o‘g‘il”, “Befarosat”, “Hamoqat”.

В статье раскрываются возможности использования учебника Саидрасула Азизи “Мастер прежде всего” в нравственном воспитании школьников.

Ключевые слова. Учитель востока, Мастер первый, “Чистота”, “Уважение к матери”, “Умный мальчик”, “Глупый”, “Хамокат”.

The article reveals the possibilities of using Saidrasul Azizi’s textbook “Master first” in the moral education of primary school students.

Key words. Oriental teacher, Master first, “Purity”, “Respect for mother”, “Smart boy”, “Foolish”, “Hamoqat”.

XX asr boshlarida yangi usul maktablari uchun o‘zbek tilida tuzilgan alifbe darsliklari o‘ndan ortiq bo‘lib, bular ichida ayniqsa, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, Rustambek Yusufbek o‘g‘lining “Ta’limi avval”, Muxtor Bakirning “Savod”, Saidrizo Alizodaning “Birinchi yil” kabi darsliklari xalq ommasiga ma’lum va mashhur bo‘lgan. Turkistondagi o‘zbek tilida ochilgan yangi usul maktablarining o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berish jarayonida keng ko‘lamda foydalanilgan bu darsliklar yangi usulda – “usuli savtiya”da yozilgan bo‘lib, bunday usulda yozilgan dastlabki asar “Ustodi avval”dir. Darslikning muallifi toshkentlik Saidrasul Aziziydir. Saidrasul Aziziy o‘zbek pedagogikasi tarixida “islohotchi pedagog” nomi bilan shuhrat qozongan. U 1866-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Otasi Saidazizxo‘ja ismli odam bo‘lgan va o‘z o‘g‘lini ham savodli, bilimli odam bo‘lishini istab Saidrasulni eski maktabga beradi. Bu erda u boshlang‘ich ma’lumotni olgach, so‘ng Toshkentdagi “Madrasai Mahmud dasturxonchi”da o‘qiydi va shu davrda rus tilini mustaqil o‘rgana boshlaydi. Saidrasul madrasa bilan birga birinchi rus va mahalliy millatlar uchun ochilgan maktabni ham bitiradi va o‘zi o‘qib bitirgan “Madrasai Mahmud dasturxonchi”da ilm toliblariga saboq beradi. 1900-yilda esa o‘zi o‘qigan rus-mahalliy millat vakillari uchun ochilgan maktabga ishga keladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Saidrasul Aziziy o‘zbeklar orasida birinchi bo‘lib

rus-mahalliy millat vakillari uchun ochilgan maktabda “Sharqiya muallim”ligini olib borib, o‘quvchilarga dars beradi.

Saidrasul Aziziyning nomini mashhur qilgan asar – “Ustodi avval”ni 1900-yilda yozgan. 1902-yildan 1917-yilgacha takomillashtirib, to‘ldirib 17 marta nashr qilingan. Yangi usul maktabi o‘qituvchilariga ham bu darslik manzur bo‘lgan. Shu sababli bu maktablarda “Ustodi avval”dan alifbo darsligi sifatida foydalanilgan. Biz darslikning 1906-yildagi nashrini bir necha yillar davomida Qashqadaryo viloyati pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazida mas’ul lavozimlarda ishlab kelgan Turdi Rahmatullayevning shaxsiy arxividan olib foydalandik. Hozirgi o‘zbek yozuviga o‘girdik. “Ustodi avval”dan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda foydalanish imkoniyatlarini o‘rgandik.

Darslik pedagogik va badiiy tusda bezatilgan bo‘lib birinchi sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan. Darslikning birinchi betida bu haqida shunday yozilgan: “Turkiston viloyatidagi turk mo‘minlarining oson tillarida birinchi mubtodilar uchun ta’lif qilingan asari jadida xususida alifbo kitobimizning nomi – “Ustodi avval”.

Darslikning 2-18-betlari xat-savod o‘rgatish metodikasi, alifbeni o‘rganishga qaratilgan. Arab alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvini o‘rganish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu avvalo harflarning to‘rt xil ko‘rinishda ifodalanishidir. “Ustodi avval”ni yozishda bu hol alohida e’tiborga olingan, harflar, o‘rgatilayotganda jumlalar tuzilgan. Bu jumlalar orqali o‘quvchilarga tevarak-atrofimizdagi olam, shuningdek, axloqiy fazilatlar haqida dastlabki tushunchalar berilgan. O‘quvchilarga xat-savod o‘rgatib bo‘lingach mavzuga muvofiq dastlab kichik-kichik, sodda, asta-sekin kengroq va murakkabroq hikoyalar berilgan. Bu hikoyalar bir-birini mazmunan boyitib borgan. Darslikda yigirmaga yaqin hikoya va she’rlar kiritilgan bo‘lib bu hikoyalarning aksariyati axloqiy xarakterga egadir.

“Ustodi avval”ni shartli ravishda uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Saidrasul Aziziyning qalamiga mansub bo‘lgan hikoya va she’rlar (“Poklik”, “Onaga hurmat”, “Aqlli o‘g‘il”, “Befarosat”, “Hamoqat”, “Zuluk birla ilon”, “Bir necha do‘stlik uchun ahd qilgan musofirlar”).

2. Sharq, chunonchi, o‘zbek klassik adabiyoti va folkloridan foydalanib yozilgan hikoyalar (“Xat”, “Beodob”, “Chaqimchi”, “Aqlli kishi”, “Xulq va odob”, “Ilm”, “Fatonat”).

3. Rus klassik adabiyotidan qilingan tarjimalar darslikda muhim o‘rin egallaydi (“Tulki birla uzum”, “Qishloqi birla bolasi”, “Yolg‘onchi cho‘pon”, “Vatani rus”).

Bu hikoyalarda insonlar uchun g‘oyatda zarur bo‘lgan fazilatlar: poklik, do‘stlik, o‘rtoqlik, ota-onaga hurmat va sadoqat, ziyraklik kabilar ulug‘lansa, chaqimchilik, so‘z yuritish, ikkiyuzlamachilik, yalqovlik, befarosatlik, tovlamachilik, hushomadgo‘ylik kabilar qattiq tanqid ostiga olinadi;

– ilm-ma’rifatni targ‘ib qiluvchi hikoyalar: “Xat”, “Tolibi ilm”, “Ilm” kabilardir.

Bu hikoyalarda ilm olishning afzalliklari, foydalari, ilmsizlikning yomon oqibatlarga olib kelishi bir necha voqealar orqali isbot qilib berishga harakat qilingan;

– yil, oy, kunlar haqidagi hikoyalar: “Sanai shamsiyaga qarab chislolarni nomlari”, “Yil”, “Oy”, “Kunlar haqida”, “Hisobi qamariya oy va kunlari nomlari” kabi hikoyalarda shamsiya hamda qamariya oylari, ularning nomlari, hafta kunlarining nomlanishi, kunlar haqida ma’lumotlar berilgan;

– turmushga doir hikoyalar: “Libosi odam”, “A’zoyi odam”, “Uy asboblari” kabilar bo‘lib, bu hikoyalarda uy asboblari hamda odam kiyimlari, shuningdek, odam a’zolarining nomlari keltirib o‘tilgan;

– tabiatshunoslikka doir hikoyalar: “Hayvonot”, “Qush zotlari”, “Daraxtlar” kabilar bo‘lib, bu hikoyalarda hayvonlar, qush va daraxtlarning bir necha turlari, nomlari keltirib o‘tilgan. Bundan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad, qush, hayvon va daraxtlarning bir necha xil bo‘lishi, ularning xilma-xilligi va o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatib berishdir. Natijada, o‘quvchilarning dunyoqarashini, fikrlashini shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat;

– diniy xarakterdagi hikoyalar: “Payg‘ambarimiz Muhammad alayhi vassallam...” hamda “Hazrati Iso...” haqidagi bu hikoyalarda payg‘ambarimiz Muhammad alayhi vassallamning hayoti, faoliyati, Qur’oni karimning nozir bo‘lishi, shuningdek, hazrati Iso payg‘ambarning hayoti, faoliyati haqida hikoyalar berilgan. Chunki, rus bolalari provoslav diniga, mahalliq millat bolalari musulmon diniga rioya qilishar edi. Shu sababli bu ikkala payg‘ambar haqidagi hikoyalarning berilishi ikki din vakillari o‘rtasida do‘stlik, o‘rtoqlik hamda o‘zaro hurmat hislarini tarbiyalash ko‘zda tutilgan.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, “Ustodi avval”da axloqiy xarakterdagi hikoyalar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Saidrasul Aziziy “Ustodi avval”da yaxshi va yomon bolalar, yaxshilik va yomonlik haqida shunday yozadi: odobli bola tozalik, shirinso‘zlik va hushfe’l bo‘lur. O‘zidan kattalarni izzat qilib, kichiklarga shafqat qilib, har kimni shirin so‘z va yaxshi hurmat ila hursand qilur. Ota va onalarga qarshi turub so‘zlamas. Chaqirsalar “labbay” deb hozir bo‘lib, buyurgan ishlarni “xo‘p” deb, to‘xtamasdin qilur. Ota va ona buyurgan ishlarni qilmoqdin erinib, sustlik qilib, alarni ranjitmas.

Yaxshi bola toza va ozoda bo‘lur. Chopon va liboslarini, yuz va qo‘llarini kir va iflos qilmas. Choy ichgandan so‘ng tinchlik va odoblik birla, kitoblarini olib, maktabga jo‘nar. Yo‘lda hech kim birla urushmasdin va o‘ynashmasdin to‘g‘ri maktabga borur. Yaxshi bola kitob va daftarlarini kir qilmas va alarning chetiga har xil xatlarni bitmas va yirtmas, uyda yurgan vaqtida tinchlik va xushfe’llik ila yurar. Oz narsani talashib o‘rtoqlari birla urushmas. Har kimni oldida ta’zim va odob birla o‘turib, oz narsa uchun birovni so‘kub va urushib, arazlab yig‘lamas. Har kimni so‘ziga qo‘shilib so‘zlamas. O‘zidan so‘ralgan so‘zga odob birlan qarab turub javob berur.

Saidrasul Aziziy yomon, odobsiz bolalar qanday bo‘lishini quyidagicha ko‘rsatib bergan: yomon bola beodob va badfe’l bo‘lur. Har kimga qattiq so‘zlab xafa qilur. Hech kimni yaxshi so‘z ila hurmat qilmas. O‘zidan katta odamlarni izzat qilmay, o‘zidan kichiklarni urub, so‘kib, janjal qilur. Ota-onalari ish buyursa qabul qilmas. Katta odamlar orasida shovqinlab, gapirib va kulib o‘tirar va ularning oldida yonboshlab, yumalanib yotur. O‘zidan so‘ralmagan so‘zga qo‘shilib so‘zlar. Ko‘p uxlar va yurgan yo‘lida taom yeb yurar.

Yomon bola iflos bo‘lur. Yomon ishlarni qilur. Uxlab qolib maktabga kech qolur. Kelganda ham turmoq va o‘turmoq tartibini bilmay va o‘ylamay kulib, o‘ynab o‘tirur. Saboqni tayyor qilmasdin, domla saboq beradirgan vaqtda boshqa tarafga qarab o‘ynab o‘tirur. Sheriklaridan keyin qolganiga xafa bo‘lmas. Har kunlik saboqni bilmakka harakat qilmas. Sheriklari har qancha bilsalar ishi bo‘lmay o‘zini sabog‘ini bilmas. Ham qutulganiga shukur qilur. O‘qimagan kishilardek, betartib yurmoqni yaxshi ko‘rar.

Yuqoridagilardan ham ko‘rinib turibdiki, Saidrasul Aziziy XX asr boshlaridagi ko‘plab ma’rifatparvarlar kabi insonga xos bo‘lgan xulqni ikki qarama-qarshi-yaxshilik va yomonlikka ajratgan. Bolalar ham ikki xil yaxshi, odobli va yomon, odobsiz bo‘lishlarini ko‘rsatib bergan.

Sharq, chunonchi, o‘zbek xalq pedagogikasida poklik, tozalik, halollik haqida juda ko‘p hikoya, she’r, rivoyat va ertaklar bitib qoldirilgan. Bunga zardo‘shtiylik dinin-

ing muqaddas kitobi “Avesto”da, musulmonchilik dinining muqaddas kitobi Qur’oni Karimda, hamda hadisi shariflarda, xalqimizning atoqli fozilu fuzalolari, lashkarboshiyu donishmandlarining ko‘plab asarlarida misollar bisyor uchraydi: “Komil odam bo‘lmog‘ uchun avval ilm, andin so‘ng odob va poklik lozimdurki, nopok va beodob odam mullo bo‘lmas. Mullo bo‘lsa ham aning ilmdin manfaati juda oz bo‘lur. Shariatimiz poklikni ko‘p lozim tutadur. Bir chopon qirq yamoq bo‘lsa ham pok va toza bo‘lsa eski kiymoq ayb emas”.

Darslikda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining do‘stlik, o‘rtoqlik fazilatlarini tarbiyalashda muhim vosita bo‘la oluvchi: “Ikki oshno”, “Fatonat”, “Hamoqat” kabi hikoyalar hamda “Bir necha do‘stlik uchun ahd qilgan musofirlar” she’rlari mavjud. Ayniqsa, uning “Bir necha do‘stlik uchun ahd qilgan musofirlar” she’ri diqqatga sazovor.

Fatonat-o‘tkir zehn, tez zehn, ziyraklik ma’nolarini bildiradi. Fatonat haqida ko‘plab hikoyalar axloq ulamolari tomonidan yozib qoldirilgan bo‘lsa-da, ba’zan bu hikoyalarga yetarlicha e’tibor berilmadi. Holbuki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun XX asr boshlarida yozilgan ko‘plab darsliklarda o‘tkir, tez, zehnlilik, hamda ziyraklik hikoyalar bor. Bulardan biri Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval” darsligiga kiritilgan:

“FATONAT”

Bir bola bir kun o‘zining bir o‘rtog‘ining ko‘chasidan o‘tganida oning darvozasiga “eshak” degan so‘zni yozib ketibdur. Ul xatni ul o‘rtog‘i ko‘rub ul bolaga aytibdur: “O‘rtoqjon, siz borganingizda men uyda yo‘q ekanman. Darvozaga nomingizni yozib ketgan ekansiz, ko‘rub o‘zim siz borganingizda yo‘qligimga xiyla afsus chekdim”, – debdur. Ma’lum bo‘ladirkum, behuda so‘zni yozgan kishi yomon uyalur.

Darslikdagi “Ikki oshno” hikoyasi rus yozuvchisi L.N.Tolstoyning bolalarga atab yozgan hikoyasining tarjimasi bo‘lib, XX asr boshlaridagi aksariyat darsliklarga bu hikoya kiritilgan.

Hamoqat so‘zi axmoqlik, nodonlik ma’nolarini bildiradi. Bu haqida darslikda quyidagi hikoya berilgan:

“HAMOQAT”

Bir odam bir kishiga sherik bo‘lib bir hovli sotib olgan. Sherigiga aytibdirki: “Men shul hovlidin o‘z tikish haqqimni sotib oning puliga saning tikishingni ham olib, butun hovlili bo‘laman”, – deganda, bul so‘zni eshitgan odamlar aning ahvoliga ko‘p kulubdurlar.

Insonga xos bo‘lgan yomon hulqlardan biri befarosatlik hisoblanadi. Bu haqida “Ustodi avval”da quyidagi hikoya keltirib o‘tilgan:

“BEFAROSAT”

Bir odam kasal kishining oldiga kelib, ko‘p uzoq so‘zlab o‘turub, kasaldin so‘rabdurki, “Sizga nima yoqadur va ta’bingiz nimani xohlamaydur?”, – deb. Kasal kishi aytibdurki: “Manga yolg‘izlik yoqadur va ta’bim sizdek nodon, ezma kishini hech vaqt ko‘rmaslikni xohlaydur”, – deb. Ma’lum bo‘ladurki zarurdin ziyoda so‘zlamoq kishini xor qiladur.

Darslikda yomon xulqlardan chaqimchilik, so‘z yuritish haqidagi “Chaqimchi”, “So‘zchi” hikoyasida chaqimchilik ko‘p yomonligini, uni zinhor qilmaslikni ta’kidlab, xalqimizni “chaqimchi kuymasdan turib jannatga kirmas” degan dono o‘gitni misol keltirib o‘tadi. Kimki senga yaxshi ko‘rinish uchun birovni yomonladimi bilgilki, o‘sha odamga yaxshi ko‘rinish uchun seni ham yomonlaydi degan fikrni olg‘a suradi.

“Aqlli kishi” hikoyasida esa, bir aqlli kishiga chaqimchi kelib, seni shunday haqorat qildi deganda, aqlli kishi jahlga emas boshi aqlga bo‘ysunib: “Xayr mani orqamdan

har na desalar xafa bo‘lmayman. Har kishining tili og‘zidadur. Man o‘zimni tilimni tiyolmayman, boshqa odamning tiliga hukm etmoq uddasidan chiqolmayman”, – deb chaqimchini uyaltiribdi. Chaqimchilikni oxiri voy, chaqimchi kishi oxiri uyalib qolishini darslikda ko‘rsatib berilgan.

“Ustodi avval”da ota-onani hurmat qilish, ularni buyurgan ishlaridan hamda so‘zlagan so‘zlaridan chiqmaslik haqida, ota va onani ulug‘lash haqida bir necha hikoyalar berilgan. Bu hikoyalarga: “Onaga hurmat”, “Yaxshi bola”, “Aqlli o‘g‘il” kabilarni misol keltirish mumkin. “Aqlli o‘g‘il” hikoyasi XX asr boshlaridagi juda ko‘p darsliklarda uchraydi.

“AQLLI O‘G‘IL”

Kechasi yotganda bir bolaning otasi uyg‘onib tashna bo‘lgan ekan. O‘g‘lini uyg‘otib, suv so‘rabdur. O‘g‘li darhol turib suv olib kelib qarasa otasi uxlab qolibdur. Mabodo yana uyg‘onib suv so‘rar deb piyoladagi suvni ko‘tarib tong otguncha otasining boshida poylab turibdi. Ota-onani shundoq hurmat qilmoq kerak.

Yolg‘on gapirish, yolg‘onchilik eng yomon fazilatlardan biri bo‘lib, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni rostgo‘y, to‘g‘ri so‘z qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Bu haqida “Ustodi avval”da shunday hikoya berilgan:

“QISHLOQI BIRLA BOLASI”

Bir qishloqi xotin shaharga kelib bozordin bir necha xurmo sotib olib, uyiga olib borib, bir joyga qo‘yub edi. Bir kichik bolasi ul xurmoni iskab qo‘yub, nima ekanini bilmay, onasi uzoqroq ketgandin ul xurmodin bir donani olub edi. Taom vaqti yetganda onasi ul xurmoni sanab hamma bolalariga bittadan beraman desa bitta kam qolibdur. Bolalarining otasiga aytdiki: “Bolalardin biri mendin beijozat bir xurmoni olibdur”, – deb. Ul vaqtda bolalarning otasi hamma bolalaridan: “Kim oldi?”, – deb so‘rasa, hamma “Men olganim yo‘q” – deb javob berdi. Ul vaqt otasi aytdiki: “Har kim olgan bo‘lsa maloli, zarari yo‘q. Lekin yomon va qo‘rqamanki, oni olib yemoqni bilmay, danagi bilan yutgan bo‘lsa, ertaga o‘ladur” – deganida, bir kichik bolasi aytibdurki: “Danagini derazani orqasiga tashladim” – deb. Ul vaqtda hammalari kulganlarida, ul bola uyalibdur. Ma’lum bo‘lurki, har kim o‘ziga tegishli bo‘lmagan narsaga beruxsat tegsa, ul boladek uyalur.

Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval” darsligida ilm olishga, maktabga borishga, bilimli, ilmli bo‘lishga undovchi “Bola va otasi”, “Xat”, “Tolibi ilm”, “Ilm”, “Xulq va odob”, “Hikoya” kabi hikoyalar berilgan. Bu hikoyalarda ilmli, o‘qimishli odam ulug‘langan. Bilimsiz, yalqovlik qattiq tanqid ostiga olingan. “Bir kishi muallimning oldiga borib aytdiki. Manga bir nima o‘rgatingki, aning sababidan ikki dunyoda hurmatlik va obro‘ylik va farog‘atda bo‘lg‘ayman. Ul mullo unga maslahat berib: “Bul maqsading o‘qimoq va ilm o‘rganmoq birla bo‘lib, o‘qigaysan” – dedi. Ul kishi aytdiki: “Hech bir harf o‘qimoq va yozmoqni bilmasman”. Mullo aning holiga rahmi kelib bir necha kun o‘qitganda ilmning lazzatidan ozgina bahra olib, aning birla o‘zi harakat qilib katta mullo bo‘lib, ikki olamning orzusini topdi. Mundin ma’lum bo‘lurki, har kim yaxshi harakat qilib ilm o‘qisa, ikki dunyo orzusini topar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ne’matov Sh.E. “Turkistonda darsliklar yaratishning tarixiy yo‘li va ularning didaktik asoslari”. Ped. Fan. nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. ... – T., 2009. 169-b.

2. Saidrasul Aziziy. Ustozi avval. 14-tab’a. – T.: V.I.Ilin litografiyasi, 1906. 48-b.

3. Hamroyev Sh.E. “Jadid ma’rifatparvarlarining darsliklaridagi badiiy matnlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalash” . Ped. Fan. nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. ... – T., 2009. 225-b.

Muxayyo BAYBAYEVA,
A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish istiqbollarini belgilash ilmiy tadqiqot instituti, pedagogika fanlari nomzodi,
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti

RAHBARNING KASBIY IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AKMEOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada rahbarlarning boshqaruv faoliyatida kasbiy ijodkorligini rivojlantirishning akmeologik xususiyatlari haqida ma'lumotlar yoritilgan. Shuningdek, rahbarning kasbiy ijodkorligining akmeologik mezonlari, omillarini o'rganish va uni maqbul darajada rivojlantirish, rahbarlarning kasbiy o'z-o'zini anglash mezoniga muvofiq kasbiy ijodkorligi rivojlanish darajalarining akmeologik ko'rsatkichlari, kasbiy mahorat, xodimlar bilan o'zaro munosabatlari, ijodiy muammolarni hal qilish, rahbar faoliyatida ilmiy va intellektual izlanish, haqida ham ma'lumotlar keng yoritilgan.

Kalit so'zlar. Pahbar, faoliyat, tizim, funksiya, ijodiy rivojlanish, kompetensiya, mezon, daraja, mahorat, munosabat.

В статье освещены сведения об акмеологических особенностях развития профессионального творчества руководителей в управленческой деятельности. Также широко освещаются вопросы изучения акмеологических критериев, факторов профессионального творчества руководителя и его оптимального развития, акмеологических показателей уровней развития профессионального творчества руководителей в соответствии с критерием профессиональной самореализации, профессиональной компетентности, взаимодействия с персоналом, решения творческих задач, научного и интеллектуального поиска в деятельности руководителя.

Ключевые слова. Руководитель, деятельность, система, функция, творческое развитие, компетентность, критерий, уровень, умение, отношение.

This article covers information about the acmeological features of the development of professional creativity of managers in management activities. The article also extensive coverage of the study of acmeological criteria, factors of professional art Director and optimal development of acmeological indicators of the levels of development of professional creativity of managers in accordance with the criterion of career satisfaction, professional competence, interaction with staff, creative problem solving, scientific and intellectual search in the head.

Key words. Manager, activity, system, function, creative development, competence, criterion, level, skill, attitude.

Boshqaruv – murakkab kasblardan biri bo'lib, u nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik bilimlarni nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham o'zlashtirgan holda yetarli tayyorgarlikka ega bo'lishlikni talab etadi. Bunda umumiy, texnik, iqtisodiy, tadbirkorlik va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lish bilan birga, rahbar

barcha haqiqatlarni tushunish orqali ko‘p qirrali vaziyatlarda, sharoitlarda o‘z qiyofasini amaliy tarzda to‘g‘ri ifoda eta olishni bilishi zarur. Vaholanki, rahbar tomonidan olib boriladigan boshqaruv jarayonini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshishi uchun qiyofaning roli ham katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ta’kidlab o‘tish joizki, rahbar shaxsining barcha qobiliyatlarini mukammallashtirish boshqaruvda qanchalik ahamiyat kasb etsa, rahbarda qiyofani maxsus shakllantirish bilan kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish kamolotga erishish ham shunchalik muhim.

Boshqarish – bu o‘z qo‘l ostidagi xodimlarni muvaffaqiyatlarga erishishga rahbarlik qilish ekan, u aniq maqsadga erishish bilan bevosita bog‘liq. Shunday qilib, aniq maqsad va unga erishish yo‘lida rahbarning akmeologik xususiyatlar orqali kasbiy ijodkorligini shakllanishi muvaffaqiyat hisoblanadi. Muvaffaqiyat deganda jamiyat tomonidan tan olingan boshqaruvning yaxshi natijalarga erishish tushuniladi. Muvaffaqiyat quyidagi elementlarni qamrab oladi:

1. Faoliyat bilan bog‘liq real maqsadni aniqlash.
2. Uni jamiyat tomonidan tan olinishi.
3. Yaxshi natijaga erishishi.

Boshqaruv jarayoni maqsadga erishish yo‘lida odatda rahbar faoliyatida ko‘pgina qiyinchiliklar, to‘siqlar, muammolarga duch kelish mumkin. Bu muammolarni muvaffaqiyatli hal etgandagina rahbar akmeologik xususiyatlar orqali boshqaruv faoliyatida kutilgan natijaga erishishi mumkin.

Akmeologiya (grekcha ‘‘akme – cho‘qqi, yuksalish, yuqori pog‘ona, gurkiratuvchi kuch’’ ma’nolarini bildiradi) – ilmu-fanning shunday yangi tarmog‘iki, u insonni o‘z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot-faoliyatining turli bosqichlarida o‘zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishining kompleks masalalarini o‘rganadi. Ya’ni, u shaxsni o‘z takomili jarayonida, ana shu taraqqiyot va yuksalishning obyektiv hamda subyektiv omillari doirasida tadqiq etadi. Akmeologiya tushunchasi fanga birinchi marta rus olimi N.Ribnikov tomonidan 1928-yilda kiritilgan bo‘lib, uning o‘zi bu fan predmetini yetuk insonlarning shakllanishi jarayonidir, deb ta’riflagan edi. Ularning ta’kidlashlaricha, insonning ijodiy kasbiy salohiyati bo‘lib, u inson tomonidan o‘ziga inoyat etilgan barcha imkoniyatlar va iqtidorni qanday qilib, qanday shart-sharoitlarda, qaysi qonuniyatlar ta’sirida ro‘yobga chiqarishini kompleks tarzda o‘rganadi. Akmeologiya fanining asosiy vazifasi shaxsni turli faoliyat jarayonlarida, xususan, tanlagan kasbkori, ixtisosligi doirasida o‘z ijodiy salohiyatini to‘da ochish va amalda namoyish etishiga bog‘liq bo‘lgan bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, malakalar, texnologiyalar bilan ta’minlash, tanishtirishdir.

Ta’lim tizimi boshqaruvchilari tabiatini o‘zgartiradigan, ular shaxsini tarkib topishiga ta’sir qiladigan kuchli ijtimoiy omillardan biri – bu akmeologik motivatsiyadir. Aniqlanishicha, rahbar shaxsining tarkib topishiga ta’sir qiluvchi kuchli omil – inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali insonlarga berilishi hodisasidir.

Ma’lumki, rahbar shaxsi juda murakkab psixologik fenomen bo‘lib, u rahbarning individual hayoti davomida ma’lum aniq omillarning ta’siri ostida asta-sekin tarkib topadi. Rahbarning ijtimoiy funksiyasi muayyan akmeologik maqsadlarga va qadriyatlarga yo‘nalganlik shaxsni faollashtiradi. Ijtimoiy maqom, rol, qadriyatga yo‘nalganlik birlamchi rahbar xususiyatlarini tashkil etib, uning tuzilishida asos bo‘lib xizmat qiladi. Rahbarning ta’rifi xulq motivatsiyasi xususiyati va ijtimoiy fe’l-atvor tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikkilamchi alomatlar sifatida joy egallaydi. Rahbarning maqsadga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyati jarayonida hayotiy deb ataladigan mexanizmlari

va ongli faoliyatining funksional tizimi yuzaga keladi. Ana shular tufayli rahbar bilimlarni, ko‘nikma va malakalarni, ijtimoiy tajribalarini o‘zlashtiribgina qolmay balki o‘zining idroki, tafakkuri, hayoli, xissiyotlari va irodasini bir so‘z bilan aytganda, boshqaruv jarayoniga bo‘lgan ongli munosabatini hamda o‘z xatti-harakatlari va xulq-atvorining motivlarini tarkib toptiradi.

Rahbarning amaliy faoliyati jarayonida kasbiy ijodkorligini rivojlantirish zarurati nafaqat butun tashkilot faoliyati samaradorligi, balki uning o‘zi ham, xodimlarining rivojlanishi bilan ham belgilanadi. Bundan tashqari, jadal, tez o‘zgarib turadigan jamiyat rahbardan o‘zini rivojlantirish va takomillashtirishni talab qiladi. Shuning uchun rahbarning kasbiy ijodkorligining akmeologik mezonlari va omillarini o‘rganish va uni maqbul darajada rivojlantirish juda muhimdir. Rahbarning shaxsiy salohiyatini oshirishning asosiy akmeologik shartlaridan biri bu kasbiy ijoddagi qarama-qarshiliklarni akmeologik asoslash va hal etish, rahbar shaxsining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, rahbarning ijodiy shaxsini akmeologik o‘rganish, shakllantirish va rivojlantirish.

Rahbarning akmeologik xususiyatlari, munosabatlari, kasbiy ijodiy rivojlanishi va xatti-harakatlari uning kasbiy faoliyatida ma’lum rolni bajaruvchi va har biri murakkab jarayondan iborat bo‘lgan hamda shartli ravishda to‘rtta o‘zaro mustahkam bog‘langan funksional bosqichlarga birlashtiriladi:

– boshqaruv tizimi;

– stimullashtirish tizimi;

– stabilizatsiyalash tizimi;

– indikatsiyalash tizimi.

O‘rganilayotgan mavzuni uch yo‘nalishga bo‘lish mumkin: ijodkorlikni o‘rganishda umumiy psixologik yondashuv; ijodkorlikning quyidagi hodisalar bilan aloqasi: mehnatga ijodiy munosabat, ijodiy fikrlash, ijodkorlik, ijodiy yo‘nalish; rahbarning ijodkorligi va kasbiy faoliyati, uning kasbiy mahorati va kasbiy mahoratining o‘zaro ta’siri

Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha quyidagilar aniqlandi:

– ijodkorlik rahbarning tafakkuri bilan uzviy bog‘liqdir va dizayn bilan yangi madaniy, moddiy qadriyatlarni yaratish jarayonidir; u o‘ziga xosligi va ijtimoiy-tarixiyligi bilan ajralib turadigan sifat jihatidan yangisini yaratadigan ijodiy faoliyat sifatida qaraladi;

– ijodiy fikrlash ma’lum psixologik fazilatlarga ega bo‘lib, har qanday rahbarning ijodiy salohiyati va qobiliyatlari tufayli shakllanadi va rivojlanadi, bu avvalo rahbarning ijodiy yo‘nalishi va uning mehnatga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi;

– boshqaruv ijodkorligi – bu ham ishlab chiqaruvchi, ham reproduktiv elementlarning mavjudligi bilan tavsiflanadigan boshqaruv faoliyati muammolarini ijodiy hal etish jarayoni.

Rahbarning kasbiy ijodiy rivojlanishi kasbiy mahorat, samarali shaxsiy va kasbiy o‘sish, shaxsiy kasbiy mahorat, professional rahbarning subyektiv shartlari va rivojlanish omillarini o‘rganish nuqtai nazaridan ishlab chiqiladi.

Rahbarning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan barcha akmeologik sifatlari ijtimoiy taraqqiyotning yuksak ongli faoliyatchisi sifatida boshqaruvchi kadrlar akmeologik kompetentligini shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi rahbar motivatsiyasining xususiyatlari, ularning xulq-atvori va xatti-harakatlari mohiyatini belgilaydi.

Rahbarning kasbiy ijodkorligi rivojlanishining akmeologik xususiyatlariga asosan rivojlanish darajalari ko‘rsatkichlarini akmeologik sharoit, kasbiy ijodkorligini rivojlanishini ta’minlovchi omillarni hisobga oladigan bo‘lsa, boshqaruv jarayoni yana-

da samarali bo‘ladi.

Rahbarning kasbiy ijodkorligini rivojlantirishning akmeologik xususiyatlarini o‘rganish boshqaruv faoliyatini optimallashtirishga erishish uchun keng qamrovli strategiyani yaratishga yordam beradi.

Rahbarning kasbiy ijodiyoti jarayonida boshqaruv vazifalarini yuqori darajada samarali hal etish maqsadida uchta tahlil yo‘nalishlariga ega bo‘lishi mumkin:

1) o‘z faoliyati va uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi, shu jumladan: refleksiv o‘zini o‘zi boshqarish bilan boshqaruvchi aks ettirish; professional o‘zini anglash; autopsixologik kompetensiya, ijodiy qobiliyatlar;

2) xodimlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi, shu jumladan shaxslararo aks ettirish; professional aloqa; rahbarning mavqei; ijodiy salohiyat; akmeologik bilim va xodimlar bilan o‘zaro munosabati;

3) rahbar sifatida xodimlarni boshqaruvchanlik faoliyati, shu jumladan: intellektual aks ettirish, kasbiy fikrlash, ma’lum bir faoliyat sohasidagi rahbar va mutaxassisning kasbiy bilim va tajribasi, mehnatga ijodiy munosabat va akmeologik madaniyat.

Rahbarning kasbiy ijodkorligining akmeologik xususiyatlari uning faoliyatining maxsus turi sifatida tushunishda namoyon bo‘ladi, uning maqsadi kasbiy faoliyatning yangi mahsulotini yaratishdir. Ushbu faoliyat natijalari quyidagilardir: moddiy-kasbiy muammolarni hal qilishning yangi usuli yoki yangi kasbiy harakatlar va ma’naviy-kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish, adolatli qarorlar qabul qilish va bu jarayonda kasbiy o‘zini-o‘zi rivojlantirish, kasbiy mahoratni oshirish.

Rahbarning akmeologik xususiyatlarga asosan kasbiy ijodiy rivojlanishi shakllari quyidagilardan iborat:

1) ilgari boshqaruv amaliyotida bo‘lmagan, yangi;

2) ma’lum bir rahbar uchun yangi, ammo boshqaruv amaliyotida mavjud;

3) kasbiy faoliyatning eski usullari, shakllari.

Rahbarning kasbiy ijodiyotining muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat: ijodiy jarayonning obyektiv shartliligi; ijodiy kasbiy faoliyatda motivatsion, hissiy-irodaviy, intellektual, jismoniy, bioenergetik va amaliy komponentlarning birligi; professional ijodkorlikning muammoli vaziyatining shartliligi; nostandart, o‘ziga xos, maqbul, oqilona texnika vositalardan foydalanish, kasbiy faoliyat subyektining paydo bo‘layotgan ijodiy maxsus vazifalarni hal qilishning yangi usulini izlashga va ularni kasbiy faoliyatda amalga oshirishga yo‘naltirilganligi.

Rahbarlarning kasbiy o‘z-o‘zini anglash mezoniga muvofiq kasbiy ijodkorligi rivojlanish darajalarining akmeologik ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1) kasbiy o‘z-o‘zini anglashning tarkibiy qismlari;

2) kasbiy o‘z-o‘zini anglash tarkibiy qismlarining rivojlanish darajasi yetarli, bu o‘z-o‘zini anglash va kasbiy mahoratning to‘liq rivojlanmaganligiga olib keladi;

3) o‘zini-o‘zi anglashda namoyon bo‘ladigan kasbiy o‘z-o‘zini anglash tarkibiy qismlarining maqbul rivojlanishi, o‘z-o‘zini anglash va kasbiy mahoratning yuqori darajada rivojlanishi; akmeologik bilim mezoniga va xodimlar bilan o‘zaro munosabatlariga.

Rahbardagi ijodiy muammolarni hal qilish tajribasiga ko‘ra:

1) o‘xshash vaziyatlarda ko‘pincha ustun bo‘lgan muvaffaqiyatli rahbarlarga taqlid qilish;

2) o‘z sinovi va xatosi usuli,

3) rahbar faoliyatida ilmiy va intellektual izlash.

Rahbarning professional muloqot mezonlari bo‘yicha:

– hamkasblar bilan muloqot qilishda qiziqishning yo‘qligi;

– monologik muloqot;

– professional dialog.

Rahbar muammolarini hal qilish xususiyatlari sifatida professional fikrlash mezoniga ko‘ra:

1) qaror qabul qilishda adolatlilik, bashorat qilishning pastligi;

2) qarorlarni qabul qilishdagi nomuvofiqlik, vaziyatni bashorat qilish;

3) yuqori darajada rivojlangan analitik ko‘nikmalar va kognitiv refleksivlik, tizimli bashorat qilish va ko‘p kontekstli, kognitiv umidsizlikka yuqori qarshilik; rahbar shaxsining ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish.

Rahbarlarning kasbiy ijodkorligini rivojlantirishni ta’minlaydigan quyidagi akmeologik omillar haqiqatan ham boshqaruv faoliyatiga samaradorlik darajasini oshirishga ta’sir qiladi.

Rahbarning kasbiy ijodkorligini rivojlantirish jarayonini akmeologik qo‘llab-quvvatlash boshqaruv faoliyatini optimallashtirishga hissa qo‘shadi.

Shunday qilib, rahbarning boshqaruv faoliyatida kasbiy ijodiy rivojlanishi va akmeologiya xususiyatlari orqali yuksak malakali boshqaruv kadrlarini tayyorlash jarayonida akmeologik motivatsiya va kompetensiya (bilimdonlik, mahorat) masalalariga kompleks yondashgan tarzdagina ta’lim tizimi boshqaruvchisini jamiyatda ijtimoiy maqomining ustuvor qirralarini ochib berishi mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A’zamxo‘jayev E.A. Muomala maromining yosh xususiyatlari va dinamikasi diss.... –T., 2002, 15-16-betlar.

2. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2007, 34-36-betlar.

3. Karimova V.M. Psixologiya / O‘quv-qo‘llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002, 20-22-betlar.

4. Аникеева Н.П. Психологический климат в коллективе / Н.П. Аникеева. – М.: Просвещение, 1989. – С. 22-24.

5. Деркач А.А. Акмеология: личностное и профессиональное развития человека. Кн. 1-5. Акмеологические основы управленческой деятельности. Кн.2. М., 2000. – С. 56-58.

6. Калаков Н.И. Общенаучная концепция развития военно-акмеологического творчества. Москва-Ульяновск, 2001. – С. 27-33.

7. Клищевская М. В. К проблеме профессионального развития // Вестн. Москва. 2001. – № 4. С. 3-12.

8. Морозов А. Н. Формирование эффективного стиля управленческой деятельности руководителя: Автореф. дис. канд.психол.наук.-М.,1998, –С.30-32.

9. Смолкин А.М. Менеджмент: основы организации // Учебник / Отв. Редактор С.М. Рыловский. – М.: ИНФРА, 2004. – С. 23-25.

10. Тейлор Ф. Принципы научного менеджмента / Ф. Тейлор. Перс англ. – М.: Контроллинг, 2007. – С. 31-34.

11. Шакуров Р.Х. Социально-психологические основы управления: руководство и педагогический коллектив. – М.: Просвещение, 1990. – С. 27-30.

Hurshid MAXMARIZAYEV,
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

SUZISH TURLARI VA UNI O‘QITISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada suzish sport turi va uni o‘qitish metodikasi qaysi fanlar bilan uzviy bog‘liq ekanligi haqida fikr mulohazalar yoritilgan. Shuningdek,muallif suzish badanni jismonan chiniqtirishda organizmni yanada sog‘lomlashtirishdagi ahamiyati bo‘yicha o‘z fikr va mulohazalarini berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Markaziy nerv sistemasi ta’siri, suvning harorati, suvning tozaligi, suvning gigiyenik holati, tashqi muhit, odamning suvga moslashishi, yoshga qarab suzish, o‘rta va katta yoshdagi bolalarning suvda suzishi.

В статье освещаются размышления о том, с какими дисциплинами неразрывно связано плавание как вид спорта и методика его обучения. Автор также поделился своими мыслями и размышлениями о роли плавания в физическом оздоровлении организма.

Ключевые слова. Влияние центральной нервной системы, температуры воды, чистоты воды, гигиенического состояния воды, внешней среды, адаптации человека к воде, возрастного плавания, плавания в воде детей среднего и старшего возраста.

The article gives an idea of the type of swimming sport and the methods of its teaching, which subjects are inextricably linked. Also, the author has given his own views and comments on the importance of swimming in improving the health of the body.

Key words. Influence of the central nervous system, water temperature, water purity, hygienic condition of water, external environment, human adaptation to water, age-related swimming, middle-aged and older children swimming in water.

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarini yangilash, rivojlantirish, ildamlantirish jarayoniga faol kirishilmoqda. Bu yo‘lda jismoniy tarbiya va sport ilmiga ham katta ahamiyat berilmoqda. Bejiz emaski, hukumatimizning qarorlarida jismoniy tarbiya va sportning aholi keng qatlamlari o‘rtasida yanada keng yoyish umumdavlat ishi, barcha xo‘jalik va jamoat tashkilotlari mehnat jamoalarining burchi ekanligi ta’kidlangan. Kishilarda sog‘lom turmush tarzini shakllantiruvchi yangidan-yangi aniq vazifalar belgilab berilgan. Hozirda, bolalarni go‘dakligidan boshlab yalpisiga va mustaqil jismoniy mashg‘ulotlarga keng jalb qilish, chiniqtirish, xususan, sog‘lom, baquvvat, chidamli chaqqon bo‘lib o‘sishlariga jiddiy e’tibor berish juda muhim bo‘lgan vazifalarimizdan biridir. Hozirgi kunda hamma ishonch-e’tibor yosh avlod va sportga qaratilyapti. Ya’ni hozirgi kunda qayerga bormaylik yangidan-yangi sport ishootlarini, zallarni, futbol maydonlarini, tennis kordlarini, suzish havzalarini va hokazolarni har qadamda ko‘ramiz. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

yangi qarorni imzolagan edilar. Dastur doirasida 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish maqsadlarida jami 995,2 mlrd so‘mdan ziyod mablag‘ sarflanishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, shundan 706,2 mlrd so‘mdan ortiq qismi ushbu yillarda jami 167 ta sport inshootlari, jumladan, 90 ta sport majmuasi va 77 ta suzish havzasini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash hamda jihozlash va qayta jihozlashga yo‘naltiradi.

Suzish bilan shug‘ullanish jismoniy mashqlarning eng foydali turlaridan hisoblanadi. Suzish odatda, anatomiya, biologiya, fiziologiya, pedagogika, psixologiya, biomexanika, bioximiya, tibbiyot va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq. Suzish darsining vazifasi inson uchun hayotiy zarur bo‘lgan suzishni o‘rgatish va odam organizmini chiniqtirish va sog‘lig‘ini mustahkamlashni o‘z ichiga oladi.

Suzish dars sifatida jismoniy tarbiya oliy o‘quv yurtlarining o‘quv dasturiga va jadvaliga kiritilgan. O‘rta maxsus bilim yurtlarining jismoniy tarbiya bo‘yicha o‘quv dasturlarida majburiy fakultativ kurs sifatida o‘rin olgan. Maktablarda sharoitga qarab jismoniy tarbiya darslarida suzishga o‘rgatish bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borilmoqda. O‘z maktabida sharoit bo‘lmasa yaqin atrofdagi basseynlar ijaraga olinmoqda yoki yoz oylarida ochiq suv havzalarida va bolalar dam olish oromgohlarida suzish mashg‘ulotlari o‘tkazilmoqda. Bu ishlarning hammasi davlat dasturiga muvofiq tasdiqlangan rejalar asosida olib boriladi. Chunki bizning jismoniy tarbiya sistemamizda suzish asosiy o‘rinni egallaydi.

Ma’lumki, suzish jismoniy tarbiyaning bir turidir, bas, shunday ekan, badanni jismonan chiniqtirishda organizmni yanada sog‘lomlashtirishda uning foydasi beqiyosdir. Chunki bolaning ham, katta kishining ham suvda suzganda bir necha emas, balki barcha mushaklari sistematik harakatga tushadi. Binobarin, odam gavdasi bir butun holda mutanosib rivojlanadi. Bejiz emaski, suzish bilan muntazam shug‘ullanib kelayotgan bolaning bo‘g‘inlari harakatchan, mustahkam, bir me’yorda harakatlanadigan, paylari, mushaklari yaxshi taraqqiy etgan bo‘ladi. Ayniqsa, odam gavdasining suvda gorizontal holda harakatlanishi uning tik turib bajargan harakatlaridan ma’lum darajada farq qiladi. Binobarin, bolaning tik turib, yurib, yugurib bajargan mashqlari uning pay mushak va bo‘g‘inlariga bir tomondan ta’sir ko‘rsatsa, suvda suzib bajargan mashqlari unga ikkinchi tomondan ta’sir ko‘rsatadi. Gavdaning rosa va asl bo‘lib rivojlanishida, ayniqsa, umurtqa pog‘onasining qiyshayib qolishi (skolioz)ning oldini olishda suzishning ahamiyati juda kattadir. Shu sabab ham suzish umurtqa pog‘onasi kasalliklarini davolashda keng tavsiya qilinadi.

Fanning vazifasi – talabalar bilan o‘quv mashg‘ulotlari ko‘rsatilgan o‘quv dasturlari asosida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar shaklida o‘tkaziladi. Shu mashg‘ulotlar jarayonida suzish sportining rivojlanish tarixi, O‘zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya tizimida suzishning o‘rni, suzish texnikasining ilmiy-nazariy asoslari, suzish mashg‘ulotlarida mashq qilish va o‘rgatish asoslari, suzishning usullarini o‘rgatish va o‘zlashtirish bo‘yicha tayyorlov mashqlari, suzish texnikasini takomillashtirish va o‘rgatishda maxsus sport mashqlari, ko‘krakda kroll va chalqancha kroll, delfin, brass usulida suzish texnikasini o‘rgatish, suzish mashg‘ulotlarida o‘rgatish metodlari, suzishda startdan chiqish va burilishlarni o‘rgatish, suvda cho‘kayotgan odamga birinchi yordam ko‘rsatish, suzish bo‘yicha musobaqalarni tashkil qilish va o‘tkazish, musobaqa hujjatlari, hakamlik qilish kabi vazifalarni amalga oshirish bilan birgalikda jismoniy sifatlarni rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar:

“Suzish va uni o‘qitish metodikasi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

– suzish va uni o‘qitish metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari;

– suzish sportining rivojlanish tarixi;

– O‘zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya tizimida suzishning o‘rni;

– suzish texnikasining ilmiy-nazariy asoslari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;

– suzish mashg‘ulotlarida mashq qilish va o‘rgatish asoslari;

– suzishning usullarini o‘rgatish va o‘zlashtirish bo‘yicha tayyorlov mashqlari;

– suzish texnikasini takomillashtirish va o‘rgatishda maxsus sport mashqlari;

– ko‘krakda kroll va chalqancha kroll, delfin, brass usulida suzish texnikasini o‘rgatish;

– suzish mashg‘ulotlarida o‘rgatish metodlarini bilishi, ko‘nikma hosil qilishi va amalda qo‘llay olishi;

– suzishda startdan chiqish va burilishlarni o‘rgatish;

– suvda cho‘kayotgan odamga birinchi yordam ko‘rsatish;

– suzish bo‘yicha musobaqalarni tashkil qilish va o‘tkazish, musobaqa hujjatlari, hakamlik qilish to‘g‘risida malakalarga ega bo‘lishi lozim.

Suvda suzish organizmni chiniqtirish manbai hamdir. Buni, albatta, dastlab suv muolajalaridan keyin boshlash kerak. Chunki suv o‘zinig fizik xossalari, ya’ni issiqlikni o‘ta o‘tkazuvchanligi, katta issiqlik sig‘imiga ega ekanligi va teriga mexanik ta’sir ko‘rsatishi bilan suvda o‘rganmagan organizmni shamollatib qo‘yish mumkin. Suv muolajalarini xususan, ularning turlarini muntazam ravishda har kuni muayyan shart-sharoitda bolaning yoshiga, sog‘lig‘iga qarab bajarish kerak. Suv muolajalariga suv vannalari, dush badanni ho‘l sochiq bilan artish, boshdan suv quyish, ho‘l choyshabga o‘ralish kabilar kiradi. Badanni ho‘l sochiq bilan artganda suv unga yengil-yelpi ta’sir ko‘rsatadi, tetik, bardam qiladi. Qon aylanishini moddalar almashinuvini oshiradi. Ho‘l sochiq bilan artinish muolajalari kattaroq yoshdagi bolalargagina lozim va bu aksariyat davolash profilaktika maqsadlarida bajariladi. Chunki badanda tana haroratidan past harorat tegib turgach teridagi mayda kapillyar tomirlar torayadi, natijada, issiqlik yo‘qolishi kamayadi. Qon oqimiga bo‘lgan qarshilik oshadi. Qon bosimi bir qadar ko‘tariladi va oqibati yurakka zo‘r keladi, uning urishini tezlashtiradi. Bular va yana nerv sistemasining ta’sirlanishi mushaklar tonusining oshishi, qon oqimining tezlashishi hammasi bir bo‘lib moddalar almashinuvini yaxshilaydi.Suzishga o‘rgatishni odatda, 4-5 yoshdan boshlash mumkin. Hozir esa ayrim maxsus sport uyushmalarida hatto, chaqaloqlikdan boshlab ham suzish o‘rgatilmoqda. Tibbiyotchilarning fikricha, bu jarayon bola organizmiga yana ham foydali ta’sir qilar ekan. Agar bolaning paylari mushaklari, qayishqoq, bo‘g‘imlari moslashuvchan, gavdalari egiluvchanligini hisobga olsak, kam deganda uni suzishga 7-8 yoshdan sport mashqlarini 9-11 yoshdan boshlagani ma’qul, shunda bola sog‘lom va baquvvat bo‘lib o‘sadi. Turmushda, hayotda jismoniy ishlarda pand yemaydi. Ko‘pchilikka ma’lum kishiga jismoniy tarbiya, jumladan, suzish ko‘p dori darmonlardan ko‘ra foydaliroq. Chunki sovuq suvga o‘rgangan chiniqqan bola organizmi sovuq shamoldan, yelvizakdan, ob-havoning dambadam sovib-isib turishidan, namlikdan qo‘rqmaydi, ularga tezda moslashib oladi. Bunday sovuq omillar ham uni bezovta qila olmaydi. Agar suzayotgan kishi havoni o‘pkasiga tez olib uzoq-uzoq chiqarsa, uning nafas maromi to‘g‘ri bajariladi va o‘pkaning hayotiy sig‘imi borgan sari ortib boraveradi. Bu esa, o‘z navbatida, har xil o‘pka kasalliklaridan, halloslab qolishlardan saqlaydi. Yana eng keragi bola organizmi kislorod tanqisligiga ko‘nikib

boradi, o‘rganadi. Suzayotgan kishining gavdasi odatda, gorizontal holatda bo‘ladi. Binobarin uning ichki a’zolari ham xususan, yurak ham shu holatni oladi. Bu esa uning ishini yengillashtiradi. Shu jihatdan olib qaraganda, odam tik turib mashqlar bajargandagiga qaraganda suvda suzganda yurakka nisbatan kamroq zo‘r keladi. Kezi kelganda shuni ham aytib o‘tish kerakki, suvga tushganda tik turmay harakatlanish lozim. Bola organizmiga suvdagi tinch holat emas, harakat holati zarur. U qancha ko‘p harakat qilsa, shuncha ko‘p foydali bo‘ladi. Suzishning boshqa suv muolajalaridan farqi va sog‘lomlashtirish omilining harakatidadir. Shunda suvning organizmga sovuq ta’siri ham sezilmaydi. Suzishning sport turlaridan biri bo‘lib, jahonga tarqalishiga dastlab uning organizmni sog‘lomlashtiruvchi ta’siri turtki bo‘lgan. Endi vaqti kelib suzish sportning eng ommalashgan ko‘rinishi sifatida o‘zining ma’lum bosqichlariga ega bo‘ladi.

Vaqt o‘tgan sayin davlatimiz shon-shuhratini himoya qiluvchi sportchilarimiz tobora ko‘paya bordi. Jismoniy tarbiya va sport turlari rivojlana boshladi. Suzish sporti ham taraqqiylasha bordi. Maxsus zamonaviy basseynlar soni ko‘paydi, eskilari ta’mirlandi. Yoshlar o‘rtasida suzishga bo‘lgan qiziqish ortdi. Mamlakatimiz rekordchisi, xalqaro klassdagi sport ustasi, “Do‘stlik 84” turnirining g‘olibasi Larisa Belakon, xizmat ko‘rsatgan sport ustasi, chalqancha suzish bo‘yicha jahonning sobiq rekordchisi, XXIV olimpiada sovrindori Sergey Zabolotnikov, chempionlar: Yevgeniya Vavilova, Marina Panina, Yelena Ovchar, Janna Bolotova, Yevgeniy Bender, Vladimir Xonyakin, Andrey Rumyantsev, Pavel Pak, Aleksandr Tolpeykin, Dmitriy Pankov, Rinat Shigayev, Dilshod Egamberdiyev turnirlarda sovrindor bo‘lgan. Andijonlik suzuvchi Nargiza Madumarova, Baxtiyor Madumarov, O‘zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya institutining suzuvchilaridan: Yo‘ldoshxo‘ja Saidmuhammedov, Qahramon Vahobov va boshqalardir. Shu zaylda suzish dars sifatida jismoniy tarbiya oliy o‘quv yurtlarining o‘quv dasturiga va jadvaliga kiritilgan. O‘rta maktab oliy va o‘rta maxsus yurtlarining jismoniy tarbiya bo‘yicha o‘quv dasturlarida majburiy fakultativ kurs sifatida o‘rin olgan. Hozirgi paytda ayrim maktablar o‘z maktabida sharoit bo‘lmasa, yaqin atrofdagi basseynlarni ijaraga oladi. Yoz oylarida ochiq suv havzalarida va bolalar yozgi dam olish oromgohlarida suzish mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Shu ishlarning hammasi davlat dasturiga muvofiq tasdiqlangan rejalar asosida olib boriladi. Chunki bizning jismoniy tarbiya tizimimizda suzish asosiy o‘rinni egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, suzish bilan muntazam shug‘ullanish muskullarning uyg‘un rivojlanishi, yurak-tomir va nerv sistemasi hamda nafas organlarining sog‘lom bo‘lishiga yordam beradi. Bundan tashqari, yosh avlodlarimizning qomatini to‘g‘ri qilishda, bo‘yi o‘smay qolgan bolalar uchun suzish sport turi suv va havodek zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sobirova O. Bolalar suzishni o‘rganing. – T.: Meditsina nashriyoti, 1987.
2. Sobirova O. Suzish san’atini o‘rgan. – T.: Meditsina nashriyoti, 1989.
3. Sobirova O. Suzish. – T.: Ibn Sino nashriyoti, 1993.
4. Tangirov Y., Levitskiy A.N. Suzish. – T.: Meditsina nashriyoti, 1986.

Sirojiddin SHODIQULOV,
Qarshi davlat universiteti katta o‘qituvchisi

KURASH TURLARI BO‘YICHA TEXNIK USULLARNING KLASSIFIKATSIYASI, SISTEMATIKASI VA ULARNING TERMINOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada kurash turlarida sportchining texnik harakatlarini tartibga solish va ushbu sohada mutaxassislar o‘rtasida muloqot qilish imkonini yaratish uchun kurash turlari texnikasining klassifikatsiyasi, sistematikasi hamda terminologiyasi haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Kurash, klassifikatsiya, kurashchilar, jismoniy tarbiya, sistematika, sport, raqobatchi, kurash texnikasi, terminologiya.

В статье рассказывается о классификации, систематике и терминологии техник видов борьбы для регулирования технических действий спортсмена в борьбе и создания возможности для диалога между специалистами в этой области.

Ключевые слова. Борьба, классификация, борцы, физкультура, систематика, спорт, конкурент, техника борьбы, терминология.

The article describes the classification, systematics and thermonology of the techniques of wrestling in order to regulate the technical movements of the athlete in the types of wrestling and to create an opportunity to communicate among specialists in this field.

Key words. Wrestling, classification, wrestlers, physical education, systematics, sports, competitor, wrestling technique, terminology.

O‘zbek xalqining an’anaviy sport turlaridan biri bo‘lmish kurash uch yarim ming yillik tarixga ega. Kurash o‘zbekcha so‘z bo‘lib, u qator qadimiy sharq adabiy manbalarida yakkama-yakka olishuv va ijtimoiy ko‘ngilochar sport turi sifatida tilga olingan. Kurash insonni kuchli, epchil, chiqamli va irodali qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi.

Bundan ming yil muqaddam paydo bo‘lgan afsonaviy Alpomish eposida kurash olis o‘tmish O‘zbekiston zaminida ommaviy tus olgan eng sevimli va nufuzli sport turi bo‘lganligi qayd etilgan. Qadimda va o‘rta asrlarda yashab ijod etgan qator faylasuf va tarixchilar o‘z asarlarida kurashni alohida ehtirom ila tilga olganlar. Sharqning buyuk mutafakkiridan biri bo‘lmish Abu Ali Ibn Sino kurash bilan shug‘ullanmoq jon va tan sog‘lig‘ini ta’minlashning eng yaxshi vositasidir, deya ta’rif etgan.

1998-yilda Xalqaro kurash assotsiatsiyasi tashkil qilindi. 1999-yildan boshlab jahon chempionatlari va Xalqaro kurash musobaqalari o‘tkazib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2015-yil 3-iyun PQ-3031-son “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-martdagi PQ-3583-son “O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligini tashkil etish to‘g‘risidagi”gi, 2018-yil 5-iyuldagi 507-son “Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish

jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorida hamda 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ta’kidlanishicha, biz bugun sport sohasida “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” musobaqalari bilan chegaralanishimiz kerak emas. Iqtidorli o‘smir va qizlarni tanlab olish va tarbiyalash bo‘yicha jiddiy seleksiya ishlarini amalga oshirish zarur. Bu sport tashkilotlari, ta’lim muassasalari va ota-onalar zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklaydi.

Ma’lumki, bugungi kunga kelib kurash bo‘yicha malakali sportchilarni tayyorlash-texnologiyasi, o‘quv-trenirovka jarayonini rejalashtirish va boshqarish, kurashchilarning jismoniy, texnik-taktik va psixofunksiyanal tayyorgarligi darajasini baholash, sport natijalarini shakllantirish, mashg‘ulot yuklamalari va musobaqa faoliyatini nazorat qilish hamda boshqa muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar miqdori borgan sari ortmoqda.

Kurashning ko‘p ming yillik tarixini o‘rganish haqiqatdan ham kurash azaldan polvonlarning jismoniy va ma’naviy yetukligi namunasi sifatida sharaf topganligini, qadrlanganligini tasdiqlaydi. Shu bois polvonlarning jismoniy baquvvatligi, navqiron qaddi-qomati yoki kurashchanlik, harakatchanlik, chaqqon-u epchillik jihatlari bor. Ularning keng davrada o‘zlarini qanday tutishi odob-axloq, ma’naviy qiyofasi, raqibiga muomalasi, jamiyatga, tevarak-atrofga munosabati, vatanparvarligi alohida o‘rin tutadi. Kurash shunchaki sport turi emas, balki insonning jismoniy, ma’naviy kamolotga erishish vositasidir. Ulug‘ ajdodlar kurashni tarbiya maktabi deb atashgan.

O‘zbekistonda kurash va belbog‘li kurash turlariga qiziqish yuqori bo‘lgan. To‘ylarda, sayllarda va har xil bayramlarda mazkur kurash turlarisiz tadbirlar o‘tmagan. Mustaqillik yillarida an’analar qayta tiklanib, hozirgi kunga kelib har bir viloyatda ikkala kurash turi ham yaxshi rivojlangan. Ikki milliy kurash turlaridan tashqari yunon-rim kurashi, erkin kurash, dzyudo kurashi va sambo kurashi yurtimizda keng tarqalgan va rivojlangan.

Yunon-rim kurashi O‘zbekistonda XX asrning boshida kirib kelgan, 30-yillarda keng tarqalgan. O‘sha davrlarda Toshkent sirkida Yo‘ldosh Oxunboboyev tomonidan katta musobaqa Hoji-Muxan Mungaytpasov g‘olib bo‘lganligi adabiyotlardan ma’lum. Yurtimizda yunon-rim kurashining rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan, shuningdik, bu kurash turi uch bosqichli – “Umid nihollari”, “ Barkamol avlod”, “ Universiada” sport musobaqalari dasturidan o‘rin egallagan. Yunon-rim kurashini yanada rivojlantirishda hozirgi o‘sib kelayotgan o‘smir va yoshlarning ko‘rsatkichlari Osiyo va Jahon arenasida yuqori natijalar bilan e’tirof etiladi.

Erkin kurash tarixining ildizi Qadimgi Yunonistonga va Misrga borib taqaladi. Ma’lumki, har xil sport turlari bo‘yicha kompleks sinovlar qadimgi yunonlar umumiy jismoniy tayyorgarligi asosini tashkil qilgan. Erkin usulda kurashish hamma sport turlari ichida katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

O‘zbekiston terma jamoasining bosh murabbisi Kursat Ablayev, Obid Nazirov, Raxmonberdi Axmedov tomonidan olib borilgan rivojlantiruvchi ishlar evaziga erkin kurash bo‘yicha ham alohida ko‘zga ko‘ringan sportchilar tayyorlana boshlandi.

XVI asr oxirlarida Yaponiyada djiu-djitsu samuraylarning harbiy va jismoniy tayyorgarligi tizimi sifatida qo‘llanilgan va o‘ta sir saqlangan. Zamonaviy dzyudo yaponcha djiu-djitsu yakka kurashidan kelib chiqqan deyish to‘g‘ri bo‘ladi. Dzyudoning asoschisi Dzigaro Kano talabalik tana va ruhiyatning uyg‘unlashuviga erishish mumkinligi ustida jiddiy fikr yuritdi. Dzyudoda eng asosiysi – bu kuch emas, balki yuqori mahorat, o‘tkirlashtirilgan texnikadir. Shuning uchun dzyudo bo‘yicha birinchi musobaqalar o‘tkazil-

ganda ishtirokchilarni vazn toifalariga qarab bo‘linmagan. 1956-yilda Xalqaro dzyudo federatsiyasi tashkil qilindi.

XX asrning 20-30-yillarida Rossiyada yangi kurash turi-sambo shakllana boshladi. O‘sha davrlarda, ya’ni Sho‘rolar hukumati paytida ko‘chadagi bezorilarga qarshi hamda harbiylarni jangovor tayyorlash masalasi sambo kurashi yordamida hal etila boshlandi. Ushbu sport turining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga V.S.Oshepkov asos solgan. Sambo bo‘yicha birinchi Jahon chempionati 1973-yilda Tehronda bo‘lib o‘tdi. O‘zbekistonda sambo bo‘yicha federatsiya 1964-yilda tuzildi. Sambo kurashidagi texnik harakatlar o‘zbek milliy kurashlaridan-kurashga yaqin. 2003-yil O‘zbekiston Osiyo sambo kurashish rivojlantirish Qo‘mitasi tashkil topdi va uning raisi etib xalqaro toifadagi sport ustasi Fazliddin Pulatov saylandi.

Kurash turlaridagi asosiy holatlar.

Kurashchining asosiy holatlari – sport tayyorgarligi jarayonida kurashchilar tomonidan qo‘llanilgan holatlardir.

Tik turgan holat – bellashuvni olib borish uchun zarur bo‘lgan, kurashchining tik oyoqlarda turgan holatidir. O‘ng, chap tomonlama, yalpi, past va baland tik turish turlari ajratiladi. Ular yaqin, o‘rta va uzoq masofalardan turib qo‘llaniladi.

O‘ng tomonlama tik turish – kurashchining (raqibga nisbatan) o‘ng oyog‘ini oldinga chiqib turgan holatidir.

Chap tomonlama tik turish – kurashchining chap oyog‘ini oldinga chiqib turgan holatidir.

Frontal tik turish – kurashchining tik turishdagi holati bo‘lib, bunda uning oyoq kaftlari gavdasining yalpi tekisligida turadi.

Baland tik turish – tik turishda butun bo‘yi bilan turgan kurashchining holatidir.

Past tik turish – kurashchining toz-son bo‘g‘imlari va oyoqlarini tizzalarda bukib egilib turishdagi holatidir.

Parter holati – kurashchining tizzalarda va qo‘llari bilan gilamga tiralib turgan holatidir. Parterda pastdagi va yuqoridagi kurashchi holatlari ajratiladi.

Ko‘prik – kurashchi gilamga nisbatan orqa bilan, kerilib, peshonasi hamda yelka kengligida yozilgan oyoq kaftlari bilan tirab turish holatidir.

Xavfli holat – kurashchi kuraklarining gilamga nisbatan 900 C dan kam bo‘lgan yaqinligi.

Kurash turlarining mazmuni, alohida har bir kurash turida kurashchilarning harakatlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligiga qaramasdan, umumiy asosga ega va bir xil belgilarga qarab ta’rif berilgan. Shuning asosida kurash turlari texnik usullarining yagona sistematikasi ishlab chiqilgan.

Kurash turlari texnikasi asosiy usullarining yagona tasnifi va tizimini ishlab chiqishda quyidagi vazifalar oldinga qo‘yilgan:

– texnik harakatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning turli-tumanligi va murakkabligini ochib bergan holda uning mohiyatini aks ettirish;

– gilamda amalga oshiriladigan harakatni kurash turiga ajratmagan holda aks ettirish;

– hamma kurash turlari uchun umumiylik aniqlashga yordam berish;

– har bir kurash turining o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish;

– har bir kurash turiga boshqa turlardan(shu qatorda milliy kurashda) musobaqa qoidasi bo‘yicha ruxsat etilgan usullarni o‘zlashtirish imkonini yaratish;

– asosiy texnik usullarni “maktabdagi bajarish”ga tasniflash;

– hamma kurash turlari uchun umumiy bo‘lgan texnik tushunchalar hamda ta’riflarni tuzish va har bir turning umumiy tamoyillarga asoslangan terminologiyasini yaratishga yordam berish.

Kurash turlarida sportchining texnik harakatlari ko‘p va turli tumanligi sababli u boshqa sport turlaridan farq qiladi. Kurash turlarining texnik harakatlarini tartibga solish va ushbu sohada mutaxassislar o‘rtasida muloqot qilish imkonini yaratish uchun kurash turlari texnikasining klassifikatsiyasi, sistematikasi hamda terminologiyasi ishlab chiqilgan. Klassifikatsiya – bilimlarning u yoki bu sohadagi bir-biriga tobe tushunchalar (sinflar, obyektlar, hodisalar) tizimidir. Klassifikatsiya obyektlarning umumiy belgilar va ular o‘rtasidagi qonuniy bog‘liqlikni hisobga olish asosida tuzilgan. Klassifikatsiya turli-tuman obyektlarda to‘g‘ri yo‘l tutishga yordam beradi hamda ular to‘g‘risidagi bilimlar manbai hisoblanadi. Kurash turlarining usullarini, ularning umumiy belgilariga qarab (klassifikatsiya) taqsimlash mutaxassislarga fan to‘g‘risidagi nazariy hamda amaliy bilimlarni rivojlantirishga imkon yaratadi va bir vaqtning o‘zida bu bilimlardagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi.

Kurash usullari o‘rtasida ichki bog‘liqliklar sistematika asosida ko‘rib chiqiladi. Sistematika – bu kurash texnikasini bir tizimga solish, ma’lum bir tartibda joylashtirish-ma’lum bir ketma-ketlikni belgilash demakdir. Sistematikada klassifikatsiyadan farqli ravishda obyektlarning ketma-ketligini aniqlash, belgilash uchun bir-biri bilan taqqoslanadi.

Kurash turlarida klassifikatsiya va sistematikaning vazifasi – kurash turlari mohiyatini aks ettirish hisoblanadi. Klassifikatsiya va sistematika tushunchalarini aniqlash bo‘yicha oldindan ish bajarmasdan turib, amalga oshirilmaydi (o‘tkazish, yiqitish, ag‘darish va h.k.).

Kurash turlari terminologiyasi – bu mutaxassislar o‘zlarining ilmiy va pedagogik ish faoliyatlarida foydalanadigan atamalar yig‘indisidir. Mazkur ko‘pgina fanlarni klassifikatsiya va sistematika asosida tuzilgan terminologiya fan mohiyati to‘g‘risida ma’lumotlar beradi hamda maqsadli ravishda takomillashtirish imkoniyati tug‘iladi. Bunday termin ilmiy asoslangan terminologiya deb ataladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, o‘quvchilarga kurash haqida nazariy ma’lumot berishda kurash turlari klassifikatsiyasi, sistematikasi, terminologiyasi orqali o‘rgatish o‘rinlidir. Masalan, klassifikatsiyada o‘quvchi kurash sohasini boshqa sinflar, hodisalar, obyektlar bilan bog‘lab o‘rganadi. Bu o‘quvchiga bilim salohiyatini oshirishga juda katta yordam beradi. Sistematikada bir-biri bilan taqqoslash, ketma-ketligini aniqlashni, terminologiyada esa o‘zi shug‘ullanayotgan soha (kurash) ning mohiyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Kurashchi kurashning klassifikatsiyasi, sistematikasi, hamda terminologiyasini bilishi raqibini mag‘lub qilishiga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir” mavzusida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatning IV qurultoyidagi nutqi. Xalq so‘zi. 2017-yil.

2. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. – T., 2015.

3. Abdullayev Sh.A., Xolmatov A.I Malakali kurashchilarning ilmiy-uslubiy asoslari. – T., 2015.

Matluba SHODIYEVA,
Qashqadaryo viloyati XTXQTMOHM, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, ''Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim'' kafedrasi mudiri

BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI KASBIY EHTIYOJLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan. Unda mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini kasbiy ehtiyojlar asosida takomillashtirish imkoniyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Kasbiy-metodik rivojlanish, kompetensiya, kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlar, kasbiy kompetentlik, kasbiy ehtiyoj.

В статье рассматривается важность совершенствования методической подготовки учителей начальных классов как научно-педагогической проблемы. В нем обобщены взгляды местных исследователей. Также существуют возможности для улучшения методической подготовки учителей начальных классов с учетом профессиональных потребностей.

Ключевые слова. Профессионально-методическое развитие, компетентность, личностные качества, имеющие профессиональное значение, профессиональная компетентность, профессиональные потребности.

The article examines the importance of improving the methodological training of primary school teachers as a scientific and pedagogical problem. It summarizes the views of local researchers. There are also opportunities to improve the methodological training of primary school teachers based on professional needs.

Key words. Professional-methodical development, competence, personal qualities of professional significance, professional competence, professional needs.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimiga amal qilishga erishishdir. Respublikada uzluksiz ta'lim tizimining tuzilmasi va mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajribaga tayangan holda tub islohotlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Buning uchun, avvalo, ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini ilg'or, ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan yangi va zamonaviy uslubiyot bilan ta'minlash, sifatli ta'lim muhitini yaratish uchun mas'ul bo'lgan o'qituvchi-pedagoglarni zamon talabi va jamiyat ehtiyojlari asosida kasbiy rivojlantirish, ularni o'qitish va ta'lim berish,

99

shuningdek, uzluksiz malakasini oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda katta yoshdagilarni o‘qitish, malakasini oshirishning asosiy vazifasi “Ta’lim to‘g‘risda”gi Qonunning 13-moddasida belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unga ko‘ra, “kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta’minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi”, deyilgan. Hozirgi kunda ta’lim taraqqiyoti katta yoshdagilarni nafaqat davriy malaka oshirish tizimida o‘qitish va ularga ta’lim berishni, balki, uzluksiz va mustaqil malaka oshirish tizimini joriy etishni taqozo etmoqda. “Ta’lim to‘g‘risda”gi Qonunning 15-moddasida “katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish’’ning ta’lim shakli sifatida belgilanishi hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtiradigan va o‘zlashtirgan bilimlarini o‘zlari tomonidan baholashga qodir bo‘lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan innovator o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish butun umr davomida o‘qitishning markaziy tarkibiy qismi bo‘lib, ta’lim berish hamda o‘qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshdagilarning ishtirok etishini ta’minlashga qaratilgan barcha shakllarini o‘z ichiga oladi, shuningdek, rasmiy, norasmiy va informal o‘qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi.

Respublikamiz mustaqil davlat sifatida demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan ekan, bu taraqqiyotni harakatga keltirishda va turmushda ro‘y berayotgan jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishda, jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy yangilanishining muhim subyekti bo‘lgan yoshlar, ularni barkamol shaxs qilib tarbiyalash, zamonaviy ta’lim berish tizimi oldiga ham muayyan vazifalar qo‘yadi. Mazkur vazifalar umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan belgilanadi. O‘qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalarida aks etadi. Bu esa o‘z navbatida, o‘qituvchining o‘z fanini o‘qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta’lim jarayonini loyihalash, tashkil qilish va baholash uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o‘qitish va tarbiyalash jarayonini ta’lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etish, uzluksiz va tizimli o‘z-o‘zini rivojlantirishni talab etadi.

Jamiyat ehtiyojlari kasbiy tayyorgarlik, uning maqsadi va mazmunini o‘zgartiradi. Keng ma’noda “faoliyatning muayyan turi uchun tayyorgarlik” – bu fazilatlar ushbu turdagi faoliyat majmui sifati, amaliy ko‘nikma va malakalar, holatlar va munosabatlar, zarur maqsadlarga erishish uchun ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlar, natijalardir. Kasbiy tayyorgarlik – maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasidir. Metodik tayyorgarlik murakkab tuzilishga ega jarayon bo‘lib, uning negizini ijobiy munosabat, motivlar va egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar, o‘qituvchi kasbining qadriyatlari tashkil etadi. Ushbu tayyorgarlik tarkibiga shaxs xarakterining kasbga taalluqli jihatlari, pedagogik layoqat, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi, ularni amaliyotda qo‘llashga imkon beradigan muayyan tajribalar kiradi.

Jamiyatdagi globallashuvning keskin o‘sib borishi, jahon miqyosida ta’lim tizimidagi islohotlar mazkur jarayonning faol ishtirokchisi va amaliyotga tatbiq etuvchi bo‘lgan

o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishni talab etadi. Buning uchun esa, dunyo ilm-fanida o‘qituvchi kompetensiyasini shakllantirish, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish orqali ularni kasbiy rivojlantirish bo‘yicha pedagog va uslubchi olimlar tomonidan olg‘a surilgan ilmiy-nazariy qarashlarni o‘rganish lozim.

G.E. Karlibayeva pedagogik faoliyatga tayyorgarlik murakkab tuzilishga ega jarayon bo‘lib, uning negizini ijobiy munosabat, motivlar va egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar, o‘qituvchi kasbining qadriyatlari tashkil etishini, shuningdek, ushbu tayyorgarlik tarkibiga shaxs xarakterining kasbga taalluqli jihatlari, pedagogik layoqat, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi, ularni amaliyotda qo‘llashga imkon beradigan muayyan tajribalar kirishini ta’kidlaydi.

M.I. Toshpo‘latova o‘z tadqiqot ishida metodik tayyorgarlikni takomillashtirish tizimiga quyidagicha ta’rif beradi: metodik tayyorgarlikni takomillashtirish tizimi – shaxsiy va kasbiy ahamiyatga molik xususiyatlar, shuningdek, umummadaniy (estetik, falsafiy, tarixiy), ilm-fanga oid (matematik, lisoniy, metodik), psixologik-pedagogik va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standarti talablari asosida innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotda foydalana olish metodikalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z ichiga oluvchi murakkab dinamik tizimdir.

I.Y. Raxmonov tegishli kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarlik tushunchasiga ijtimoiy, psixologik, gnoseologik kabi komponentlarni kiritish lozimligini ta’kidlaydi va ularga o‘z navbatida, “o‘qituvchining kasbga yo‘naltirilgan qiziqishlari, kasbiy faoliyat bazasini tashkil etuvchi hamda kasbiy tayyorgarligi yuzasidan metodik talablarni o‘zida aks ettirgan barcha normativ hujjatlar, zaruriy bilimlar tizimi, ko‘nikma va malakalar to‘plamini o‘z ichiga oluvchi faoliyatni amalga oshirish usullari”ni kiritadi.

T.T. Shaymardonovning fikriga ko‘ra, “pedagogning kasbiy kompetentligi va mahoratining rivojlanishida ma’lum fan asoslari sohasida unda yetarli nazariy hamda amaliy bilimlarning, ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish malakasining shakllanganligi hamda uzluksiz ravishda o‘z-o‘zini mustaqil kasbiy rivojlantirib borish motivatsiyasining qaror topganligi ham muhim omillardan sanaladi”. Muallif pedagoglardagi kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini, kasbiy (ma’naviy, shaxsiy va jismoniy) imkoniyat va kasbiy sifatlarini faoliyat samaradorligiga to‘laqonli yo‘naltirish kasbiy rivojlanganlikning yuqori darajasi bo‘lgan kasbiy kompetentlikning shakllanishiga asos bo‘ladi deb hisoblaydi. T.T.Shaymardonovning nuqtayi nazariga ko‘ra, “pedagogni o‘z-o‘zini uzluksiz kasbiy-pedagogik rivojlantirishga yo‘naltirish muhim hisoblanadi va bu orqali pedagog o‘z kasbiy o‘sishining maqsadi, shakllari, vositalari hamda individual trayektoriyasini mustaqil belgilaydi”.

M.T. Mirsoliyeva kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish jarayonining samaradorligini ta’minlashga doir omillarni ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab berdi: motivatsion omil, ijtimoiy omil, axborotli-mazmunli omil, faoliyatli omil, tashkiliy-metodik omil, didaktik omil.

M.T. Mirsoliyeva kasbiy tayyorgarlikka qo‘yiladigan zamonaviy talablar, kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik aspektlarini o‘rganish natijasida kasbiy tayyorgarlikning shakllanish bosqichlarini aniqladi:

1. Kasbiy faoliyatga motivatsion yo‘nalganlik, kasbiy tasavvurlarning shakllanishi, kasbiy bilimlarning o‘zlashtirilishi, kasbiy faoliyat talablarining anglanishi.

2. Kasbiy-faoliyatli yondashuvning qaror topishi, kasbiy ko‘nikma va malakalarning rivojlanishi, pedagogik qobiliyat va kasbiy sifatlarning shakllanishi.

3. Kasbiy faoliyat talablariga moslashish, kasbiy o‘zini-o‘zi anglash, rivojlantirish,

kasbiy ijodkorlik, faoliyatga innovatsion yondashuvning qaror topishi.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili va kuzatilgan tajribalar asosida metodik tayyorgarlikning nazariy va amaliy jihatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Nazariy metodik tayyorgarlik – bu tegishli fanni o‘qitishning umumiy qonuniyatlari, tushunchalari va nazariyalari, shuningdek, fanning mazmunini bilishning ma’lum darajasiga ega bo‘lishdir. Shu bilan birga o‘qituvchining mavzu mazmunidan kelib chiqadigan tushuncha va usulni, pedagogik harakatlarni tavsiflash, maktab darsliklarining mazmunini, o‘quv materiallarining izchilligi va ilmiyligini, ularning o‘quvchilar uchun tushunarli ekanligini tahlil qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Nazariy tayyorgarlik fanning nazariy asoslarini bilishdir. O‘qituvchining amaliy tayyorgarligi – bu o‘qituvchining o‘quv jarayonida pedagogik muammolarni hal qilishga tayyorligidir. Shunga muvofiq zamonaviy o‘qituvchi o‘qitish jarayonini tashkil qilishni, darsning mohiyati va vazifalarini chuqur anglashi va bu vazifalarni ado etish uchun darsning mazmuni, maqsadga erishish yo‘llari, vositalarini puxta belgilab olishi kerak.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, kattalar ta’limida innovatsion faoliyatga nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini oshirish orqali ijodiy, individual uslubni shakllantirishni, o‘qituvchilar o‘rtasida tadqiqot va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga doir o‘quv jarayoni ularga zamonaviy maktab nazariyasi va amaliyotida yangiliklarni ko‘rish qobiliyatini shakllantirishga, maktab oldida turgan muammolarga nostandart yechimlarni izlashga va ularni amalga oshirish bosqichiga olib chiqishga imkon beradi.

Shunga muvofiq o‘qituvchilarning kasbiy bilimlari, mahoratlarini rivojlantirish va yangilashga undaydigan shaxs, davlat va jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim xizmatlari bozorining shakllanishiga mos zamonaviy ehtiyojlar zaruriyatini yaratadi. O‘z navbatida, ehtiyojlar (ijodiy va ruhiy ehtiyojlarni qondirish), kompensatsiya (qoldirilgan bo‘shliqlarni to‘ldirish), adaptatsiya (ishlab chiqarish va ijtimoiy sharoitiga moslashuv, tayyorlov va qayta tayyorlov) uzluksiz ta’lim funksiyalarini tashkil etadi. Ayni paytda faollikka undovchi kuch bo‘lgan ehtiyoj hayot sharoitlariga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi, ularning o‘ziga xos tomonlarini belgilaydi, u yoki bu faoliyat usullari va ehtiyojni qondiradigan predmetlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi. Kattalar ta’limida pedagogik-psixologik jihatdan maqbul sharoitlar yaratilgan holda ularning ehtiyoji va qiziqishiga mos ravishda ta’lim berishdan iboratdir. Bu esa o‘z navbatida, murakkab jarayon hisoblanadi.

M.Sh. Nouls tomonidan asoslangan katta yoshdagi insonlarga ta’lim berishning zamonaviy nazariyasi va amaliyotining quyidagi tamoyillari o‘qituvchilarning kasbiy va metodik tayyorgarligini kasbiy ehtiyojlari asosida takomillashtirish imkoniyatini beradi:

1. Ta’lim oluvchining ijtimoiy-kasbiy ehtiyojlari. Ta’lim olayotganlarning individual ijtimoiy-kasbiy ehtiyojlarini, shuningdek, ularning kasbiy faoliyatiga talablarni namoyon etish ta’lim jarayonining boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi. Ta’lim oluvchilar bilan savol-javoblar, testlar o‘tkazish, guruhlarda muhokama qilish ushbu ehtiyojlarni aniqlash va ta’lim oluvchining ijtimoiy-ruhiy va kasbiy-shaxsiy portretini tuzishga imkon yaratadi.

2. Ta’lim oluvchini (ta’lim olish zaruriyatining asoslanganligi) motivatsiyalash. Ta’lim olayotgan shaxs unga o‘qish haqiqatan zarurligiga ishonch hosil qilishi zarur. Katta yoshdagi insonlar mazkur kurs yoki bo‘lim nima uchun ularga kerakligini asoslab berilishiga katta ahamiyat beradilar.

3. Ta’lim oluvchining beixtiyoriyligi (reflektivligi). Ushbu tamoyil o‘z navbatida, bilim olishning bosh asosi hisoblanib, ta’lim oluvchining ta’limga bo‘lgan ongli munosabatiga asoslangan.

4. Shaxsiy ehtiyojlarga asoslangan ta’limni individuallashtirish. Katta yoshdagi insonlarga ta’lim berish shaxsning ijtimoiy-ruhiy xususiyatlarini va ta’lim oluvchining kasbiy faoliyat yuklagan cheklanishlarni, bo‘sh vaqti mavjudligini, moddiy ahvoli va shunga o‘xshash xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Individual yondashuv asosida ta’lim olayotgan shaxsni baholash, uning kasbiy faoliyati, ijtimoiy kelib chiqishi va pedagogik jamoadagi o‘zaro munosabatining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil etish yotadi.

5. Ta’lim olishning mustaqilligi. Mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, unga javobgarlikni his etish – katta yoshdagi insonlar xulq-atvori va ongining asosiy jihati hisoblanadi. Ushbu tamoyil katta yoshdagi inson uchun o‘quv materiallari bilan asta-sekin tanishish, iboralar, atamalar, tasniflarni eslab qolish, ularni bajarish usullari va jarayonlarini anglab yetish imkonini ta’minlaydi.

6. Ta’lim olishning elektivligi. Bu ta’lim oluvchiga ta’lim maqsadlari, mazmunlari, shakllari, uslublari, manbaalari, vositalari, muddatlari, vaqti, o‘qitish joyini ta’lim natijalarini baholash imkonini taqdim etishni anglatadi.

7. Ta’lim olishda ta’lim oluvchining ijobiy, hayotiy tajribasidan foydalanish. Ta’lim olish bazasi va yangi bilimlarni shakllantiruvchi manba sifatida ta’lim oluvchining amaliy bilim va ko‘nikmalari, ijtimoiy-kasbiy tajribasi hisobga olinadi. Ushbu tamoyil ta’lim oluvchilarining ijodiy ishlarini rag‘batlantiruvchi ta’lim olishning faol usullariga asoslangan.

8. Yangi tajribani o‘zlashtirishga to‘sqinlik qiluvchi shaxsiy ko‘nikmalar va eskirgan tajribani to‘g‘irlash. Bunda aniq pedagogik faoliyat tomonidan pedagogga qo‘yilgan talablar vaqtga nisbatan qo‘yilgan talablar bilan qarama-qarshi turuvchi ham kasbiy, ham ijtimoiy tajriba sifatida foydalanish mumkin.

9. Ta’lim oluvchining amaliy faoliyatidagi ta’lim natijalarining talab qilinuvchanligi. Avvalambor, bu ta’lim oluvchining kasbiy faoliyati davomida olgan bilim va ko‘nikmalarining talab etilishidir. Ushbu tamoyillardan kelib chiqqan holda, ta’lim jarayonini tashkil etish va rejalashtirishdan avval ta’lim oluvchining kasbiy faoliyatini tadqiq va tahlil etish talab etiladi, bu esa o‘z o‘rnida ta’lim jarayonining maqsad va vazifalarini shakllantirishga imkon yaratadi.

10. Ta’limning tizimiyligi. Ta’lim maqsad va mazmuni, uning shakli, uslubi, o‘qitish vositasi va natijalarini baholash bilan muvofiqligidir. Tizimiylikni ham ta’lim uzluksizligi yoki ta’lim izchilligi sifatida, ya’ni avvalgi olingan bilim natijalari va ta’limga bo‘lgan yangi ehtiyojlarni hisobga olish deb tushunish mumkin.

11. Ta’lim oluvchining rivojlanishi. Ta’lim kasbiy-shaxsiy rivojlanishiga, o‘z bilimini oshirish qobiliyatini yaratishga, amaliy faoliyat jarayonida yangiliklarga ega bo‘lib borishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Shu o‘rinda xulosa qilish mumkinki, kattalarni o‘qitish tizimining samaraliligi bu tizimni ehtiyojga asoslangan holda tashkil qilish bilan belgilanadi. Kattalar ta’limida differensial yondashuv har bir tinglovchiga maqbul sharoitda qobiliyati, qiziqishi va ehtiyojiga mos holda ta’lim berish imkonini beradi. Albatta, bunday yondashuvning asosiy maqsadi ta’lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish va tinglovchilarning kasbiy ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Malaka oshirishga differensial yondashuv har bir tinglovchining o‘z kasbiy faoliyatidan kelib chiqqan holda o‘ziga zarur bo‘lgan bilim va malakalarni egallashga erishish, qobiliyati va ehtiyoji har xil bo‘lgan tinglovchilarga bir xil ta’lim berishdan iborat. Bu orqali o‘qituvchilarning ijtimoiy, kasbiy, maxsus va metodik tayyorgarligini takomillashtirish, o‘zini o‘zi rivojlantirish, bajarish orqali o‘rganish muhiti yaratiladi hamda ikkita eng muhim strategik maqsad – sifatli ta’lim olish imkoniyatini berish va inson kapitalini mehnat bozorida raqobatbardosh etib tarbiyalashga

erishiladi.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish quyidagi konseptual vazifalar asosida amalga oshirilishi zarur:

– kattalar ta’limi uzluksizlik tamoyillariga va kasbiy ehtiyojlarga asoslangan bo‘lishi;

– vaqt, makon, kasbiy va ijtimoiy omillarning inobatga olinishi;

– olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash, hamkorlik qilish, o‘z-o‘zini boshqarish va rivojlantirishga imkon berishi;

– jahon tajribasini hisobga olish.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, kattalar o‘qishi va ularga ta’lim berish hayot davomida ta’lim olishning muhim qismi bo‘lib hisoblanadi va hozirgi zamonda bunday ta’lim butun dunyodagi insonlar va jamiyat duch kelayotgan masalalarni yechishda muhim rol o‘ynamoqda. Shunga muvofiq o‘qituvchining umumiy pedagogik mahoratini, kasbga oid muhim fazilatlar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kattalar ta’limi tizimini joriy etish orqali o‘qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ichki an’analarini saqlab qolish va takomillashtirish mumkin. Shuningdek, o‘qituvchi ta’limning mazmun-mohiyatini yoritib berishga doir barcha pedagogik tushunchalarni bilishi, shundan kelib chiqadigan didaktik va metodik talablarni bajarishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta’lim to‘g‘risida / O‘zbekiston Respublikasining Qonuni / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.

2. М.Ш.Ноулс. Современная практика образования взрослых. Андрагогика против педагогики. 1970. https://lala.lanbook.com/teoriya-ehffektivnogo-obucheniya-vzroslyh-ili-10-principov-andragogiki.

3. Karlibayeva G.E. Innovatsion ta’lim texnologiyalari sharoitida fizika o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. Ped. fan. nomzodi. ... diss. – T.: 2012. – 130-b.

4. Mirsoliyeva M.T. Pedagogika kollejlari o‘quvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi: ped. fan. nomzodi. ... diss. – T.: 2011. – 135-b.

5. Raxmonov I.Y. Geometriyani o‘qitish jarayonida talabalarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi: ped.f.nom.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T.: 2012, – 160-b.

6. Toshpo‘latova M. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. (PhD). – T.: 2017. – 148-b.

7. Turg‘unov S.T. va boshqalar. O‘qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentliligini rivojlantirish. – T.: Sano-standart, 2012. – 172-b.

8. Ximmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi (texnika oliy ta’lim muassasalari “Kasb ta’limi” yo‘nalishlari misolida): Ped. fan. dokt. ... diss. – T.: 2018. – 248-b.

9. Shaymardonov T. Pedagog kadrlar malakasini oshirishi va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning elektron tizimi: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. (PhD). – T.: 2017. – 153-b.

Nigoraxon TULYAGANOVA,
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti stajyor tadqiqotchisi

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI BOSHQARUV SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Maqolada so'nggi yillarda faol rivojlanib borayotgan maktabgacha ta'lim tizimlarni boshqarishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim, axborotlashtirish, boshqaruv, axborot-kommunikatsiyasi, ta'lim tizimi, axborot texnologiyalari.

В статье рассматривается развитие внедрения информационно-коммуникационных технологий в управление системами дошкольного образования, которое активно развивается в последние годы.

Ключевые слова. Дошкольное образование, информация, менеджмент, информация и связь, система образования, информационные технологии.

The article discusses the development of the introduction of information and communication technologies in the management of preschool education systems, which has been actively developing in recent years.

Key words. Preschool education, information, management, information and communication, education system, information technology.

Informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari zamonaviy dunyoda alohida o'rin tutadi. Kompyuter ko'nikmalari, kundalik ishlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, internet imkoniyatlaridan foydalana olish – bu bugungi kunning voqeiyligidir.

Milliy ta'lim tizimining maktabgacha ta'lim darajasini axborotlashtirish axborot jamiyatining rivojlanish tendensiyalaridan biridir. So'nggi yillarda faol rivojlanib borayotgan jihatlaridan biri pedagogik tizimlarni boshqarishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (mexanizmlari) ni joriy etish bilan bog'liq.

Jadal o'zgaruvchan dunyo sharoitida texnologiyalarning doimiy takomillashuvi va murakkabligi, ta'lim sohasini axborotlashtirish asosiy ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim sohasini rivojlantirishning bu yo'nalishi, davlat hujjatlarida ta'kidlanganidek, eng muhim milliy ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Transformatsiya tufayli axborot texnologiyalarining roli nafaqat maktab tizimida, balki maktabgacha ta'limda ham tobora kuchayib bormoqda.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'quv faoliyatida ilmiy-amaliy bilimlardan foydalanishning to'liqligi va sifatiga erishish uchun ularning "ishlab chiqarish" jarayonlari chegarasida samarali axborot ta'minoti tizimini yaratish zarurligi aksio-

maga aylanadi. Buning uchun uning har bir elementi samarali ishlashi zarur.

Samarali “natijalar bilan boshqarish” uchun quyidagilar zarur:

– barcha to‘liqligini va kutilgan natija sifat ko‘rsatkichlarini ko‘p qirrali aniq ko‘rsatib berish;

– ta’lim jarayonining barcha darajadagi boshqaruvchilari (o‘qituvchidan maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorigacha (bundan buyon matnda MTT deb yuritiladi) o‘ziga xos boshqaruv sikllarining mohiyatini va ularning texnologik samaradorligini belgilovchi tayinlangan “javobgarlik hududi”da o‘z kasbiy funksiyalarini bajarish sifatini o‘zgartirish shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish maktabgacha ta’lim tashkiloti (MTT) direktorining boshqaruv faoliyatining mohiyatini tushunishga tuzatishlar kiritildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalash, rivojlantirish muammolarini ilmiy tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim direktorlarining yuqori darajadagi kasbiy yutuqlari, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, pedagogik jarayonni tashkil etishga yondashuvlarni o‘zgartirish bilan muvaffaqiyatli hal qilish mumkin.

Maktabgacha ta’limni boshqarishning axborotlashtirish mohiyati pedagogik tizim faoliyatini optimallashtirish, uning salohiyatini rivojlantirish va ijtimoiy buyurtmalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida zamonaviy kompyuter texnologiyalari va aloqa vositalaridan foydalanishga asoslangan boshqaruv faoliyatini axborot bilan ta’minlash jarayonidir.

Zamonaviy texnologiyalar va kompyuter dasturlari ta’lim sifatini boshqarishning “axborot tizimi”ni yaratish, direktorlarni tashkilot faoliyatining barcha jihatlari haqida tezkor va dolzarb ma’lumotlar bilan ta’minlash imkonini beradi: o‘quv jarayonini tashkil etish, bolalar sog‘lig‘ini yaxshilash hamda turli hisobotlar va murojaatlarni tayyorlash shular jumlasidan. Rivojlanishning hozirgi bosqichida maktabgacha ta’lim o‘qituvchilari diagnostika, nazorat va monitoring natijasida olingan ma’lumotlarni tahlil qilish uslublari va usullari haqida har doim ham yetarli ma’lumotga ega emaslar.

“Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqaruv sifatini oshirishda axborot texnologiyalari” loyihasining maqsadi – ta’lim jarayonini boshqarish muammolarini hal etishning kafolatlangan sifatini ta’minlovchi axborot texnologiyalari orqali maktabgacha ta’lim direktorlarining kasbiy faoliyatini optimallashtirish va samaradorligini oshirish. Ta’lim tashkilotlari boshqaruvchilarining kasbiy faoliyati yanada takomillashib, nazorat, tahlil va maqsadni belgilash masalalarida zamonaviy fan va amaliyot talablariga javob berishi uchun u tegishli (mohiyatiga yetarli) vositalarga ega bo‘lishi kerak. O‘z navbatida, talab dasturiy mahsulot ishlab chiqarish spetsifikatsiyasi va aniq mijozlar talablarini hisobga olishi kerak.

Loyiha maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlaridan maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydigan tashkilot amaliyotiga axborot-kompyuter muhitini joriy etish va zarur ma’lumotlarga tezkor kirishni ta’minlash uchun yagona axborot maydonini yaratishni taklif etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining faoliyati bevosita direktor va uning xodimlarining axborotga ega bo‘lishi, axborotni qanchalik tez qayta ishlashi va uni ta’lim jarayoni ishtirokchilari e’tiboriga yetkaza olishiga bog‘liq. MTT direktorining axborot texnologiyalari kompententligi deyilganda maktabgacha ta’limni axborotlashtirish sharoitida o‘z faoliyatining muvaffaqiyatini ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma, motivatsion va qiymat yo‘nalishlari va professional va shaxsiy fazilatlarni o‘z ichiga olgan shaxsning

yaxlit ta’limini tushuniladi.

AKTdan foydalanish boshqaruv faoliyatining sifati va madaniyatini yuqoriga olib chiqish, rivojlanish rejimida ishlash zaxiralarini yaratish imkonini beradi.

Boshqaruv sohasida AKTni joriy etish quyidagi ko‘rsatkichlarni oshirish imkonini beradi:

– mehnat va vaqtni tejash;

– boshqariladigan tizimning holati haqida xabardorlikni oshirish;

– boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligi;

– boshqaruv qarorlarining yetarliligi va unumdorligi;

– axborot jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirish;

– intellektual salohiyatni oshirish.

Zamonaviy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyati butun boshqaruv tizimi bo‘ylab to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari axborot oqimlarining keskin ortib borishidir. Axborot bilan ishlashning an’anaviy shakllari deyarli foydaliligini keltirib chiqardi va shu munosabat bilan kompyuter texnologiyalaridan boshqaruv maqsadlarida foydalanishning optimal varianti yo‘q. Axborotni saqlash, qayta ishlash, qabul qilish, uzatish, tahlil qilish, kompyuter tarmoqlari orqali qog‘oz oqimini kamaytirish boshqaruv faoliyati jarayonini tezlashtirish va, umuman, uning samaradorligini oshirish imkoniyatidir.

MTT direktorlarining boshqaruv faoliyatini uning axborotlashuvi sharoitida tahlil qilishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

1) boshqaruv obyektlarining avtomatlashtirilgan ish joyi (AIJ) ni tashkil etish;

2) MTT elektron axborot bankining tuzilishi va mazmunini ishlab chiqish;

3) maktabgacha ta’lim tashkilotlarining avtomatlashtirilgan axborot tizimini (AAT) modellashtirish;

4) o‘z faoliyati sohalarida MTT bazalarini loyihalash (AAT);

5) elektron to‘plam usullari va vositalaridan foydalanib zarur ma’lumotlarni olish (Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining Internet axborot resurslari, aloqa va axborot resurslari);

6) yig‘ma axborotni tahliliy jarayonlar va MTT elektron banki vositalari orqali qayta ishlashni tashkil etish;

7) turli axborot vositalari (qog‘oz, elektron) ga ta’sir etuvchi axborotlarni shakllantirish va uzatish.

Axborot texnologiyalarining joriy etilishi boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish imkonini bermoqda va bu maktabgacha ta’lim tashkilotlarini rivojlantirishda mantiqiy va zarur qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gorvits Y. M. Maktabgacha ta’limda yangi axborot texnologiyalari. Gorvits Yu. M., N. N. Podyakov A. A., (Rus Tilida) Chainova. – M., 1998.

2. Komarova T. S. Информатционно-коммуникатционно технологии в дошкольном образовании (Axborotlashtirish va maktabgacha ta’lim texnologiyalari).

3. Matsievskiy N. S. Overclock saytida. Veb-sahifalar mijoz optimallashtirish usullari / N. S. Matsievskiy-Moskva, 2009.

Alisher ABDUALIMOV,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tekshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikalari haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha yoshdagi bolalar, ta’lim berish, metodika, axloq, me’yor, kompetensiya.

В статье рассматриваются методы развития социальных компетенций у дошкольников.

Ключевые слова. Дети дошкольного возраста, образование, методология, этика, нормы, компетентность.

The article discusses methods of developing social competencies in preschool students.

Key words. Preschool children, education, methodology, ethics, norms, competence.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o‘sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, axloqiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, unda “men”obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko‘zda tutadi.

Boshlang‘ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subyekti sifatida yaxlit rivojlanishini talab etadi. Ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga xos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xil turlari shakllanadi. Ulardan asosiylari: munosabatda bo‘lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyat, o‘yin, oddiy mehnat va o‘quv faoliyatlaridir. Ta’lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o‘zlashtirib olmaydilar, aksincha, ularni tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirishda o‘ziga xos metodik, pedagogik, psixologik tayyorgarlik bilan ishlash davr taqozosiga aylandi. Chunki maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirish keng ma’noli tushuncha bo‘lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta’lim tashkiloti binosining holati, tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyachi yordamchilar, ota-onalar hamda bolalarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki innovatsion bo‘lishi lozimligini talab etadi. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida kompentensiyaviy yondashuv jarayonida pedagogik-psixologik, metodik, badiiy adabiyotlar soni va sifati, har bir yosh guruhiga mos va xos adabiyotlar bilan boyitib borish ham muhim masaladir. Bolalarni o‘ynab turib o‘ylashga undovchi

muammoli vaziyatlarni o‘yinlarda aks ettiruvchi ta’limiy rivojlantiruvchi o‘yin markazlari tashkil etish va ular faoliyatini muvofiqlashtirishda ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi va boshqa shu kabi omillar maktabgacha ta’lim mazmunini oshiradi.

Maktabgacha ta’limning sifat va samaradorligiga erishishda bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, bo‘sh vaqtlardan unumli foydalanish, qobiliyatlarini aniqlash va shunga qarab jarayonga ijodiy yondashish, bolalar uchun o‘tkazilgan mashg‘ulotlar va manbalarni bolalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan holatga keltirish maqsadida ratsional va tizimli tahlil qilishni ko‘zda tutadi. Buning uchun innovatsion usullardan biri bo‘lgan “Keys-stadi” texnologiyasidan maktabgacha ta’lim tashkilotida ham foydalanish bolalarni faol ta’lim olishga undaydi. Bu usulni qo‘llash orqali tarbiyachi bolani berilgan savolga to‘g‘ri javob berishga o‘rgatadi. Bolalarga ko‘proq kitob o‘qib berish yoki kitob sovg‘a qilish ularni so‘z boyligini oshirish bilan bir qatorda xotirasi va tafakkurini o‘stiradi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2019-yil 20-martdagi “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish’’ borasidagi 5 muhim tashabbusning 4-chisi “Kitobxonlikni keng targ‘ib qilish”ni MTTdan boshlash zarurligini ta’kidlash lozim. Tarbiyachilar vazifasi bolalar uchun qiziqarli bo‘lgan va ularning ijodiga keng erkinlik beradigan ta’lim imkoniyatlarini ta’minlashdan iborat bo‘lib qoladi.

Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash uchun maktabgacha ta’lim tashkilotining ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikdagi ishlari ham muhim sanaladi.

Bunda:

– ota-onalarning maktabgacha ta’lim tashkiloti borasidagi fikrlarini hisobga olish;

– ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;

– ota-onalarni o‘quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalb etish;

– ota-onalarning tashkilot hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo‘llabquvvatlashdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo‘lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo, erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobiy tomonlarini ko‘rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarak-atrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish lozim. Xo‘sh, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolaning tayyorgarligi qanday bo‘lishi kerak? degan muhim savol yuzaga keladi.

Bolalarni maktabga muvaffaqiyatli o‘qishi uchun ularni fanlar bo‘yicha mazmunli tayyorgarligi muhim emas. Chunki uni haddan ziyod yuklatish o‘qishga bo‘lgan xohishni susayishiga olib keladi. Asosiysi, uni psixologik jihatdan maktabga tayyorgarligi, bilishga qiziqishi, o‘zini nazorat qila olish malakalarini, kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini, nutqini, xotirasini, diqqatini, tafakkurini rivojlanishining ma’lum darajasini shakllantirishdir.

Ko‘rib turibmizki, bolalarni maktabga tayyorlash katta yoki tayyorlov guruhlarida emas, balki bolaning maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelgan kunidanoq boshlanishi lozim. Agar aniqroq aytadigan bo‘lsak, uni oldinroq ham boshlash mumkin. Chunki bolaning diqqati, qiziquvchan va ba’zi bir topshiriqlarni mustaqil qilishi qiyin bo‘lganidek, uni qisqa muddat ichida birgalikda qandaydir vazifalarni yechishga kelishishga o‘rgatish ham mushkul bir vazifadir. Bu borada, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining savodxonligi muhim sanaladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, tarbiyachi rivojlanmasa, maktabgacha ta’lim rivojlanmaydi. Tarbiyachining rivojlanishi esa, o‘z ustida tinimsiz izlanishi, ta’lim-tarbiyani uyg‘unlashtirgan holda yangiliklar yarata olish, xalq pedagogikasini chuqur bilishi bilan xorij tajribasi yangiliklarini o‘zlashtirib, o‘z faoliyatini boyitib borishi va ularni amaliyotda qo‘llay olishi bilan ahamiyatlidir. Maktabgacha ta’lim boshlang‘ich ta’limning poydevori sanaladi. Poydevor mustahkam bo‘lsa, imorat uzoq yillar qad ko‘tarib turadi. Shunday ekan kelajagimiz davomchisi bo‘lgan yosh avlodga har tomonlama komil inson qilib, ta’lim-tarbiya berish bugungi kun pedagogining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligini anglamog‘imiz zarur.

Maktabgacha ta’lim – bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq, jismoniy, ma’naviy va intellektual jihatdan maktabda o‘qishga tayyorlashni nazarda tutadi. Maktabgacha ta’limdagi bunday muhim vazifalarni amalga oshirishda tarbiyachi-pedagoglik kasbi ayniqsa, alohida ahamiyatga ega. Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga mas’uliyatli vazifalarni bajaradi. Bola shaxsining shakllanishida tarbiyachining yetakchi rol o‘ynashi, uning har bir bolani shaxs sifatida shakllanishida javobgar ekanligini taqozo etadi. Tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o‘yinlarda, mashg‘ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo‘ladigan muomalada ta’sir ko‘rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o‘rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazoratini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak hamda ularga o‘z vaqtida yordam ko‘rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi lozim. Shunday ekan, maktabgacha ta’limda tarbiyachilar bolaning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda uning jismoniy va psixik rivojlanishini ta’minlovchi, uni uzluksiz ta’limning keyingi bosqichi – maktabga borishiga zamin yaratuvchi, har tomonlama maqsadli yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishi kerak. Buning uchun avvalo, maktabgacha ta’lim sohasidagi tarbiyachi-pedagoglar kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishlari muhim hisoblanadi. Kasbiy-pedagogik kompetentlikning bosh ko‘rsatkichi bu insonga, shaxsga yo‘nalganlikdir. Kasbiy-pedagogik kompetentlik pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. Ta’limda kompetentlik bilan yondashuv tarbiyachilarni turli ko‘nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo‘naltiradi. Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo‘lgan ta’lim olishga, o‘qishga ishtiyoq uyg‘otib boriladi. Bu o‘rinda bolalarni ruhan ta’lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida, dastlabki o‘quv elementlarini o‘rgatish lozim. Buning uchun maktabga tayyorlov yoshidagi bolaning rivojlanishi va uning maktabga tayyorgarligi quyidagi ko‘rsatkichlari jihatdan ta’lim olishga tayyor bo‘lish kerak:

– jismoniy tayyorgarlik (bolaning mazmuniy jihatdan rivojlanishining fiziologik darajasi);

– psixologik tayyorgarlik (bola shaxsi tarkibining hissiy, mental (aqliy), irodaviy rivojlanish darajasi);

– ijtimoiy tayyorgarlik (bolaning mazmuniy jihatdan ijtimoiy rivojlanish darajasi). Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlargina emas, fikrlash ko‘nikmasi, kattalar va tengdosh o‘rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bola maktabga qadam qo‘yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki, uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashishi ko‘nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi

muhimroq hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta'lim muassasasida yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishga yordam beradi. Oqilona tashkil etilgan sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko'rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag'bat uyg'otadi. Bunda tarbiyachilar bola rivojlanishi qanday kechayotganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlari, buning uchun esa ularni doimiy ravishda nazorat qilib borishlari zarur bo'ladi. Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagogik jamoasining o'rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda mos keladigan maqsadlar qo'yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo'llab-quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishlari kerak. Tarbiyachilar bolalarni aynan bir xil, o'xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta'minlashlari uchun ularning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek, tarbiyachilar bir xil yoshdagi turli bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e'tibor bilan munosabatda bo'lishlari kerakligini mutaxassislar alohida ta'kidlashadi. Bugungi kunda ta'limning yetakchi ustuvor yo'nalishlaridan biri ta'lim jarayonining kommunikativ yo'nalishi hisoblanadi. Chunki u shaxslararo munosabatlarni tartibga solishga, kommunikativ muammolarni hal qilishga qodir shaxsni shakllantirish, uning zamonaviy ijtimoiy-madaniy makonda muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlashi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda tarbiyachilarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish hamda bolalarning maktab bilimlarini o'rganishga tayyor bo'lish malakasini shakllantirib borishi talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi bola yaxshi bo'lishga, hamma narsani to'g'ri bajarishga intiladi hamda tengdoshlarining harakatlarini baholaydi, kattalar va bolalar bilan munosabatlarni rivojlantiradi. Albatta, bu intilish kattalar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Kommunikativ kompetensiyani maktabgacha ta'lim muassasalari yo'nalishi bo'yicha qaraydigan bo'lsak, maktabgacha yosh – bu shaxsning jadal rivojlanish davri, bu hissiy va intellektual sohalarning birligi sifatida ong yaxlitligini shakllantirish, turli xil faoliyatlarda bolaning mustaqilligi va ijodiy individualligi asoslarini shakllantirish bilan bog'liqligini, yana shuningdek, J. Ravenning ''…kompetensiya – bolaning qiziqish darajasiga qarab individual ravishda namoyon bo'ladi'', degan fikrlarini tushunib yetgan holda kollej o'quvchilarida nutq madaniyati va fikrlash ko'nikmalarini birgalikda shakllantirilgandagina amalga oshirish mumkinligini anglashimiz lozim bo'ladi. Buning uchun o'quvchilarda so'z boyligini oshirish mashqlarini olib borishda o'zlari ham bolalardek rolga kirishib bajara oladigan, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalana olishga va to'g'ri fikr-mulohaza chiqarishga o'rgatib borishimiz muhimdir. O'zbek xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan, bolalar uchun sevimli bo'lgan ertak janrlaridan foydalanishda ijobiy va salbiy qahramonlarning tilidan so'zlayotganda bularning hayotga bo'lgan munosabatlarini ifodalashda o'quvchining so'z boyligi va nutqining grammatik tuzilishini rivojlantirishga yordam beradigan til vakolatlarini shakllantirish eng katta imkoniyatlarga ega. O'quvchilar ertaklarni aytib berishda qahramonlar tilidan so'zlay olishga, ichki his-tuyg'ularini uyg'ota olishga, bolalarning so'zlash mahoratini sezilarli darajada boyitishga harakat qilishda o'zlarining shaxsiy harakatlarining faollashishi,

tasvirni yaratishda, g‘oyalarni amalga oshirishda ijodkorlikning namoyon bo‘lishi, harakatlar, yuz ifodalari, intonatsiya yordamida badiiy obrazni uzatish, o‘z nutqining o‘zini o‘zi boshqarish darajasini oshirish, uni takomillashtirishga intilish, bolalar bilan gaplashayotganda uyatchanlik, qo‘rqoqlik, ishonchsizlikni yengish kabi bir qancha hislatlarni shakllantirgan bo‘lmog‘i lozimdir. Pedagogika kollejlarida maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilarga nutq madaniyatini o‘rganib olishlari uchun o‘qituvchilar tomonidan mashg‘ulotlar muntazam ravishda amalga oshirilib borishi muhimdir. Mashg‘ulotlar ko‘proq o‘yin tarzida, ertaklarni sahnalashtirib jonli yetkazib bera olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirib borishga, o‘quvchilarning o‘zlariga mustaqil ravishda milliy xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalangan holda yangi obrazlarni yaratishga o‘rgatib borish ham nutq boyligining ortishiga, fikrlash doirasining kengayishiga olib keladi. O‘quvchilar izlanishlari natijasida bir-birlari bilan erkin muloqatga kirishishda diologik nutqdan foydalanish qoidalarini, o‘zlari o‘ylab topayotgan ertak qahramonlarining boy sarguzashtlarini yaratish maqsadida o‘zbek tilining izohli lug‘atidagi jumlalarni izlab topishga harakatlari natijasida monologik nutqini ham rivojlantirib boradi. Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz mumkinki, pedagogika kollejlarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda mustaqil va amaliy topshiriqlarni birgalikda bajarib borishlari, o‘zlari erkin holatda yangi g‘oyalarni izlab topish uchun ijodiy muhitning yaratilib berilishi o‘quvchilarda fikrlash ko‘nikmalari va nutq boyligining oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. – T.: O‘qituvchi, 1993.

2. Xasanboyeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – T.: Ilm ziyo, 2006.

3. Sodiqova Sh.A.. Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur sarchashmalari, 2013.

4. ‘‘Ilk qadam’’ davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan.

5. Гершунский Б.С. Компьютеризация в сфере образования: Проблемы и перспективы / Б.С.Гершунский. – М.: Педагогика, 1987. – С.264.

6. Полонский В.М. Словарь понятий и терминов по образованию и педагогике/ В.М. Полонский. – М., 2000. – С.367.

Gulbahor SIDIKOVA,
Farg‘ona davlat universiteti, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI JISMONIY RIVOJLANTIRISH VA ULARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada jismoniy madaniyatni maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash tizimidagi pedagogik mexanizm mohiyati haqida so‘z yuritilgan va bu mexanizmni rivojlantirish masalalari yuzasidan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Jismoniy madaniyat, maktabgacha yosh davri, jismoniy faollik, sog‘lomlashtirish, umumiy rivojlanish, mashqlar.

В статье говорится о сущности педагогического механизма в системе воспитания дошкольников физической культурой и излагаются мнения по вопросам развития этого механизма.

Ключевые слова. Физическая культура, период дошкольного возраста, физическая активность, оздоровление, общее развитие, упражнения.

The article deals with the essence of the pedagogical mechanism in the system of education of preschool children by physical culture and presents opinions on the development of this mechanism.

Key words. Physical education, preschool age, physical activity, health improvement, general development, exercise.

Jismoniy madaniyat jamiyatning, umuman, insoniyat rivojlanishining barcha bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etgan. Zamonaviy jamiyatda ham uning roli sezilarli darajada oshganligi haqiqat. Buning sababi shundaki, bugungi kunda og‘ir jismoniy mehnatning ulushi sezilarli darajada kamaydi. Agar yuz yil oldin moddiy ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan energiyaning to‘qson sakkiz foizi odamlar va uy hayvonlarining mushak harakatlari tufayli yaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu ko‘rsatkich ikki-uch foizni tashkil qiladi. Jismoniy faollikning yetishmasligi (gipokinesiya va jismoniy harakatsizlik) yangi, ilgari noma’lum bo‘lgan kasalliklarning paydo bo‘lishiga olib keldi (endokrin va onkologik) va yurak-qon tomir, nafas olish, tayanch-harakat va ovqat hazm qilish tizimlari kasalliklari kabi yanada keskin namoyon bo‘lishi kuzatilmoqda. Mutaxassislar buni, avvalambor, motor faolligining sezilarli pasayishi bilan, hayotning neyro-emotsional tarkibiy qismi sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashadi. Yuqoridagilar zamonaviy sivilizatsiyaning salbiy hodisalari o‘rnini bosuvchi kompensator sifatida zamonaviy jamiyatda tizimli jismoniy mashqlarning o‘rni tobora ortib borayotganidan dalolat beradi. Jismoniy tarbiya maktabgacha ta’lim muassasalarining yetakchi vazifalaridan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar sog‘lig‘i insonning umumiy rivojlanishining asosidir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti butun insoniyat

tarixidagi eng insonparvar shiorni e’lon qildi: “2000-yilga kelib – sayyoramizdagi har bir insonga sog‘lik!” Shu bilan birga “SALOMATLIK” tushunchasi jismoniy madaniyatning rolini butunlay yangi darajaga ko‘taradi, u insonning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hayotning boshqa biron bir davrida jismoniy tarbiya dastlabki olti yildagidek umumiy ta’lim bilan chambarchas bog‘liq emas. Maktabgacha davri bolada salomatlik, uzoq umr ko‘rish, har tomonlama vosita tayyorligi va uyg‘un jismoniy rivojlanish asoslarini yaratadi. V.A. Suxomlinskiy ularning ma’naviy hayoti, dunyoqarashi, aqliy rivojlanishi, bilimga bo‘lgan kuchi, o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchi bolalarning sog‘lig‘iga, xushchaqchaqligiga bog‘liqligini ta’kidlagan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi jismoniy tarbiyaning butun tizimi, avvalambor, organizmning yurak-qon tomir, nafas olish va immun tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Ushbu rivojlanishning asosiy vositasi harakatlardir. Shuning uchun bolalik davrida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish o‘ta muhimdir, bu tanaga kuch to‘plash va kelajakda shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta’minlash imkonini beradi. Ammo aksariyat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari hali ham bu borada nomutaxassis bo‘lgan tarbiyachilar tomonidan olib boriladi. Bu esa mashg‘ulotlarning sifat va samarasiga ta’sir etmay qolishi mumkin emasligi barchaga ma’lum. Shu bois mashg‘ulotlarni jismoniy tarbiya yo‘riqchisi tomonidan tashkil etishi o‘ta muhim. Davomli tarzda sifatli, samarali olib borilgan mashg‘ulotlar bola uchun tanaga kuch to‘plash va kelajakda shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta’minlash imkonini beradi. Jismoniy madaniyatni shakllantirish jarayoni katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nafaqat jismoniy barkamollik, ayni paytda faol bilim olish faoliyati, intellektual, hissiy sohani jadal rivojlantirish, o‘z-o‘zini anglashni shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish imkoniyati bilan ayricha ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari paytida ularning harakatga bo‘lgan tabiiy ehtiyojini qondirish diqqat markazida bo‘lmog‘i lozim. Bunda “mushak quvonchi hissi” kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga bolalarning sport faoliyatiga qiziqishini, ularda qatnashish istagini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Bolalarni an’anaviy mashg‘ulotlar doim ham qiziqtiravermaydi, bu holda ular tezda zerikishadi va chalg‘iy boshlaydilar. Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida jismoniy madaniyat natijaga emas, balki jismoniy mashqlardan zavq olish jarayoniga yo‘naltirilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini rejalashtirishda biz quyidagi omillarni hisobga olamiz:

– mashqlar bolaning yoshi va funksional imkoniyatlariga mos kelishi kerak;

– yelkama-kamar, orqa, qorin, oyoq mushaklariga ta’sir o‘tkazish;

– dars oxirida tanaga doimiy ravishda ortib boradigan yukni va uning kamayishini ishlatish;

– bolalarni yosh imkoniyatlari bilan tashkil etish usullarini bilish va ularni muvofiqlashtirish;

– mashqdan so‘ng ochiq o‘yinlar tinch yurish bilan yakunlanishi kerak;

– motorli faoliyatni tashkil qilish bolada ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otishi lozim.

Jismoniy tarbiya bir vaqtning o‘zida aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi muammolarini har tomonlama hal qiladi. Bolalarning jismoniy tarbiyasini tashkil etishning barcha shakllarida (mashg‘ulotlar, ochiq o‘yinlar, mustaqil jismoniy faollik va boshqalar) tarbiyachining e’tiborini ongli ravishda o‘z yosh qobiliyatlariga qarab harakat qiladigan, fikrlaydigan bolani tarbiyalashga qaratiladi. Ana shu jihatlarning diqqat markazida

bo‘lishi pedagog kompetentligining ko‘rsatkichlaridan biridir. Bunda dvigatellik qobiliyatini muvaffaqiyatli egallash, atrofdagi dunyoda qanday harakatlanishni bilish, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni faol ravishda yengib, ijodiy izlanishlarga intilish ko‘zlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya nazariyasi doimiy ravishda rivojlanib, bolalar ta’limining turli qirralarini qamrab olgan izlanishlar natijasida olingan yangi bilimlar bilan boyib boradi. Bolalar muassasalarining ommaviy amaliyotida tasdiqlangan tadqiqot ma’lumotlari dasturlar, o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar va bolalar bilan amaliy ishlarga kiritilib, butun o‘quv jarayonining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya nazariyasi jismoniy tarbiyaning butun tizimini takomillashtirishga yordam beradi.

Bolalarning jismoniy tarbiyasini amalga oshirish quyidagilarni anglatadi:

1. Bolalarning jismoniy salomatligi va motor rivojlanish darajasini tahlil qilish va baholay olish.

2. Jismoniy tarbiya vazifalarini ma’lum bir davr uchun (masalan, o‘quv yili uchun) shakllantirish va bolalarni har birining xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning eng muhimlarini aniqlash.

3. Ta’lim jarayonini muayyan sharoitlarda eng maqbul vosita, shakl va usullarini tanlab, ma’lum bir tizimda tashkil etish.

4. Maqsadlarga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni oldindan bilib, yakuniy natijaning kerakli darajasini loyihalash.

5. Erishilgan natijalarni dastlabki ma’lumotlar va qo‘yilgan vazifalar bilan taqqoslash.

6. O‘ziga tegishli kasbiy mahorat, o‘z-o‘zini baholash, uni doimiy ravishda takomillashtirish.

Bolalarning motor faolligi darajasi va ularning so‘z boyligi, nutqni rivojlantirish, fikrlash o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatlar o‘rnatiladi. Jismoniy mashqlar ta’siri ostida tanadagi jismoniy faollik uyquni yaxshilaydigan, bolalarning kayfiyatiga foydali ta’sir ko‘rsatadigan va ularning aqliy va jismoniy ish faoliyatini oshiradigan biologik faol birikmalar sintezini kuchaytiradi. Bola tabiatan, doimiy ravishda harakatlanishga tayyor bo‘ladi, u harakatda dunyoni o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tadjiyeva M., Xusanhodjayeva S. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – T., 2017.

2. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika (darslik). – T.: Fan va texnologiya, 2012.

3. Haydarov F., Muslimov N. Pedagog kadrlar tayyorlash istiqboli. “Pedagogik ta’lim” jurnali. 2009, 6-son. 8-9-betlar.

4. Kodirov V. Didaktik o‘yinlarning bolalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishdagi metodik imkoniyatlari. AnDU Ilmiy xabarnomasi, 2020-yil, 1-son.

Buvsara DJURAYEVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

BO'LAJAK TABIIY FANLAR O'QITUVCHILARINING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishiga va boshqarishiga yordam beradigan, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirishning metodologik jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Axborotlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta'lim, internet, ko'nikma, metodika, metadologiya, mediata'lim, mediakompetensiya, masofaviy ta'lim, web sayt.

В статье рассмотрены методические аспекты развития навыков работы с современными информационными технологиями, которые помогут будущим учителям естественных наук эффективно организовывать и управлять учебно-воспитательным процессом.

Ключевые слова. Информатизация, информационно-коммуникационные технологии, современное образование, интернет, навыки, методика, метадология, медиаобразование, медиакомпетенция, дистанционное обучение, веб-сайт.

The article considers the methodological aspects of developing the skills of working with modern information technologies that will help future science teachers to effectively organize and manage the educational process.

Key words. Informatization, information and communication technologies, modern education, Internet, skills, methodology, metadology, media education, media competence, distance learning, website.

Insoniyatning XXI asrga qadami uning barcha faoliyatlaridagi globallashuv bosqichiga to'g'ri keldi. Globallashuv jarayoni, insonlarni hozirgi zamon texnikasi rivojlangan hamda yangi texnologiyalar tufayli axborotning yagona muhitida faoliyat ko'rsatishi lozimligini uqtirmoqda.

Hozirgi zamon o'qituvchisi, o'z mutaxassisligi fanini o'qitayotganda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining barcha afzalliklaridan bemalol foydalana oladigan, o'quvchi va talabalarda bu texnologiyalarni amalda ishonch bilan qo'llash malakasini shakllantirish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Ta'limni axborotlashtirishning bosh maqsadi, ta'limda yangi axborot texnologiyalarini qo'llash asosida, inson faoliyatini global miqyosda ixchamlashtirish va jamiyat talablariga munosib yangi dunyoviy tafakkurga ega bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashning sifati va samaradorligini keskin ko'tarishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son Qaroriga muvofiq, xalq ta’limi sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan rahbar, mutaxassis va pedagog xodimlarni (keyingi o‘rinlarda – xalq ta’limi xodimlari) qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, umumiy o‘rta ta’limning ilmiy asoslarini yaratish, shuningdek, ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta’lim standartlarini kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik qo‘llanmalarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirishning ilg‘or shakl va usullarini joriy etish, o‘quv-metodik resurslarini ishlab chiqish, ta’lim dasturlarini takomillashtirishga, umume’tirof etilgan xalqaro ta’lim standartlari va talablari, ilg‘or pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsiya texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini sifatli tashkil etishga ko‘maklashish tizimini yanada takomillashtirishni taqoza etadi.

Xalq ta’lim vazirligi (Sh. Shermatov) Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (A. Toshkulov) bilan birgalikda “Ustoz-shogird” tizimi orqali ustuvor bo‘lgan fan sohalari (matematika, kimyo, biologiya, fizika, ona tili va adabiyot, xorijiy tillar, psixologiya, boshlang‘ich ta’lim) bo‘yicha xalq ta’limi tizimi xodimlari va oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish choralari ko‘rilishini ta’kidladi.

Xalq ta’limi tizimini ilmiy-metodik jihatdan ta’minlash, fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar o‘tkazish, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, umumiy o‘rta ta’limning dolzarb muammolari yuzasidan tizimli asosda ilmiy-tadqiqot dasturlari va loyihalarini amalga oshirish, ilmiy, ilmiy-amaliy konferentsiyalar, seminarlar, yig‘ilishlar tashkil etish, doktorantura yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy xodimlarning kasbiy darajasini doimiy oshirib borish, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash, rahbar kadrlar va metodistlarning malakasini oshirish, umumiy o‘rta ta’lim sohasidagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish va mamlakatimizda joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, xorijiy mamlakatlarning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan xalqaro aloqalarni rivojlantirish, umumiy o‘rta ta’limni tashkil etishning yangi texnologiyalari, vositalari va shakllarini ishlab chiqish, sinovdan o‘tkazish va ekspertiza qilishda ishtirok etish, kelajak maktabi, uning rahbari va o‘qituvchisining modelini yaratish asosida xalq ta’limi xodimlarining kasbiy standartlarini ishlab chiqish va doimiy tarzda rivojlantirib borish, ilmiy-tadqiqot faoliyatining ta’lim jarayoni bilan aloqalarini mustahkamlash borasida chora tadbirlar ishlab chiqilishi, oliy ta’limning asosiy vazifalari etib belgilandi.

Yuqoridagi yuksak islohatlarni amalga oshirish uchun, olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishim “Bo‘lajak tabiiy fanlar o‘qituvchilarining axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi”, “Ta’limda axborot texnologiyalari fani misolida” mavzusida bo‘lib aynan ustuvor bo‘lgan fan sohalari (kimyo, biologiya, fizika va geografiya) bo‘yicha bo‘lajak pedagoglarning axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasini va mediakompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur fanni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali yuqori samaradorlikka erishish uchun imkoniyatlar yaratadi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish borasida xorijiy olim-

lardan B. Bachmair, G. Kress, D. Spanhel, LauXesus, Rolf Shulmayster va boshqalar. MDH mamlakatlari olimlaridan A.V. Fyodorov, A.V. Sharikov, A.A. Novikova, V.L. Kolesnichenko, G.V. Onkovich, I.A. Karuna Maslovalar va boshqalar, mediatexnologiyalarining ilmiy-amaliy asoslarini yoritishda A.A. Abduqodirov, J.G‘. Yo‘ldoshev, R. X. Djurayev, R. Ishmuhamedov, ta’limda zamonaviy axborat kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari bo’yicha Taylakov, A. Hayitov salmoqli izlanishlar olib borishgan. Ularda axborot texnologiyalarining ilmiy tavsifi hamda interfaol metodlar yoritilib, darsning texnologik xaritasi, o’quv jarayonini loyihalash haqida zarur xulosalar taqdim etilgan.

Xususan, A. Abduqodirov, R. Ishmuhamedov va A. Pardayevlar mualliffligida chop etilgan “Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasasi pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar)” kitobida, talaba (yoki o’quvchi)larni o’qitish jarayonida treninglar, ochiq munozaralar, yakka va juftlikda, kichik guruhlar va jamoada ishlashni tashkil qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilarni pedagogik jarayonga tayyorlash masalalariga bag‘ishlangan uslubiy tavsiyalar va maslahatlar mavjud, lekin aynan “Bo‘lajak tabiiy fanlar o‘qituvchilarining axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi”ni rivojlantirishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar yetarli emas. Mahalliy va xorijiy pedagoglar ilmiy ishlari tahlili Bo‘lajak tabiiy fanlar o‘qituvchilarining axborot texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmasi rivojlantirish metodikasi tushunchasining yagona aniqlangan tavsifi yo‘qligini ko‘rsatib berdi.

Ta’limda axborot texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmasi rivojlantirish borasida olib borilgan ilmiy ishlar, izlanuvchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi, ammo yuqorida nomlari zikr etilgan olimlar oliy ta’lim muassasalari talabalarining axborot texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganishni o’z oldilariga maqsad qilib qo‘ymaganlar.

Shu sababdan “Bo‘lajak tabiiy fanlar o‘qituvchilarining axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi” media-kompetentligining shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida pedagogik eksperimenti Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika institutlarida o‘tkazildi.

Qo‘qon davlat pedagogika instituti			**Navoiy davlat pedagogika instituti**			**Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika instituti**		
Umumiy talabalar soni	Ishtirokchi talabalar soni		Umumiy talabalar soni	Ishtirokchi talabalar soni		Umumiy talabalar soni	Ishtirokchi talabalar soni	
322 ta	291 ta		322 ta	271 ta		250 ta	192 ta	
Bo‘lajak tabiiy fanlar o‘qituvchilarining axborot texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmasining rivojlanganligini (%)lar hisobida baholanish ko‘rsatkichi								
60-69,9%	70-89,9%	90-100%	60-69,9%	70-89,9%	90-100%	60-69,9%	70-89,9%	90-100%
203 ta-69%	52 ta-19%	34 ta-12%	182 ta-65%	57 ta-21%	32 ta-12%	115 ta-60%	48 ta-25%	29 ta-15%

Natijalarga ko‘ra, bizga tadqiqot muammosining innovatsion tashkiliy-didaktik shakllarini nazariy-metodologik asoslash, amaliy ishlab chiqish, tajribadan o‘tkazish va oliy ta’lim muassasalari talabalarining axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasini

rivojlantirish metodikasini amaliyotga tatbiq qilishdan iborat qilib belgilash imkonini beradi.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

– axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasining zaruriyati va imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslash;

– bo‘lajak tabiiy fanlar o‘qituvchilarning mavjud axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan bilim va ko‘nikmasini rivojlantirish omillarini bilish;

– bo‘lajak tabiiy fanlar o‘qituvchilarning ta’lim tizimida o‘qitiladigan fanlari bo‘yicha elektron darsliklar, elektron video darslar, virtual stend, laboratoriyalar yaratish va dars ishlanmalar tayyorlash bo‘yicha axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqilishi;

– bo‘lajak tabiiy fanlar o‘qituvchilari ta’lim tizimida masofali o‘qitish kurslarini mustaqil yaratish mexanizmini ishlab chiqish;

– oliy ta’limning mediata’lim muhitini yaratishga yo‘naltirilgan, mediakompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlarini aniqlash hamda ularning samarasini tadqiqiy tekshirish;

– oliy ta’lim muassasalari talabalarining axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini va mediakompetentligi ko‘rsatkichlari va darajasini tajriba yo’li bilan aniqlash;

– oliy ta’lim muassasalari talabalarining axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasini va mediakompetentligini rivojlantirish borasida ilmiy asoslangan aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Yuqorida belgilangan chora-tadbirlar, axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasining faol ishga tushirilishi, o‘quvchi-yoshlar, pedagog o‘qituvchilar, mediasavodxonligini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim sohasida axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasini va mediata’limni yanada rivojlantirish uchun rivojlangan davlatlar bilan shu sohada xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, qayta tayyorlash va malaka oshirish o‘quv kurslarida o‘quv rejalariga qisqa soatlik ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni kiritish, mediakompetentlik tushunchalarini yoritib beruvchi uslubiy-metodik qo’llanmalar yaratish hamda tinglovchilar va talabalarga yetkazish yo‘li bilan erishish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni. – T., 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori. – T., 2021.

3. Hamdamov R., Begimqulov U., Tayloqov N. “Ta’limda axborot texnologiyalar” O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, – T., 2010. 11-27-30-betlar.

4. Tayloqov N.I. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim muassasalarida axborotlashgan ta’lim muhitini yaratish. Uzluksiz ta’lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish masalalari muammolari va yechimlari. – T., 2016. 20-b.

Dilobar BAXRITDINOVA,
Ziyoda YULDASHEVA,
Qashqadaryo VXTXQTMOHM, “Maktabgacha,
boshlang‘ich va maxsus ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchilari

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KITOBGA MUHABBAT HISSINI TARBIYALASH

Annotatsiya

Maqolada ko‘ngil xazinasi qulfi bo‘lmish kitob xususida juda chiroyli fikrlar keltirilgan bo‘lib, kitob o‘qish madaniyati va kitobxonlik, kitobga muhabbat hissini shakllantirishda o‘qituvchilar bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Kitob, o‘quvchi, yozuvchi, badiiy asar, yosh kitobxon, mutolaa.

В статье содержатся красивые идеи о книге, являющейся ключом к сокровищу сердца, и описывается роль учителей в культуре чтения, формировании любви к книгам.

Ключевые слова. Книга, читатель, писатель, произведение искусства, молодой читатель, чтение.

The article contains some beautiful ideas about the book, which is the key to the treasure of the heart, and describes the role of teachers in the culture of reading and reading, the formation of a love of books.

Key words. A book, a reader, a writer, an artistic work, a young bookshop, a read.

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, insoniyat hayotiga turli yangiliklarning kirib kelishi ta’lim sohasida ham bir qator o‘zgarishlar qilinishini taqoza etmoqda. Hozirgi kunda ta’lim sohasida erishilgan yutuqlarni saqlagan holda, bir xillikdan, bir qolipga tushib qolishdan saqlanmoq zarur. Ta’limning kishi xotirasini rivojlantirishga asoslangan turidan inson tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, o‘quvchilar egallagan bilimlarni amaliyotda qo‘llash, ularda amaliy ko‘nikma va malakalar hosil etishga qaratilgan turiga o‘tishga harakat qilish shu kunning talabi. Shunga erishilsagina Vatanimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlod tarbiyasi oldiga qo‘yilgan vazifa oqilona hal etilishi mumkin.

Chinakam ma’nodagi jamiyatni bunyod etish uchun barcha sohada tub qayta qurish talab qilinadi. Bu ham jismoniy, ham aqliy mehnat qilishga, ijtimoiy va davlat ishlarining turli jabhalarida, fan va madaniyat sohasida faollik bilan ish olib borishga tafakkurli, ongli hamda o‘qimishli kishilarni yetishtirishni ko‘zda tutadi. O‘z navbatida bunday yuksak vazifalar ta’lim oldiga ulkan talablar qo‘yadi. Faqat, chinakam badiiy asarlargina bolalarga kuchli ta’sir ko‘rsatib, ana shu yuksak talablarga javob bera oladi. Shu sababli bunday kitoblar pedagogika nuqtai nazaridan ham alohida ahamiyatga egadir.

Bolalar yozuvchilari bolalarga mos, ularni qiziqtiradigan va ulkan ishlarga otlantira-

digan asarlar yozib, yorqin, kuchli badiiy obrazlar yaratib, yosh avlodning ongi, xarakteri va irodasini o‘stirib chiniqtirishda va har qanday qiyinchiliklarni yenga oladigan, mehnatsevar kishilar qilib tarbiyalashda xalqqa, davlatimizga katta yordam berishlari kerak.

Ularning bolalar uchun yozilgan badiiy asarlarining ravshan va ravon tili uning g‘oyaviy mazmunini tushunishga yordam berishi bilan birga, kitobxonning nutqini o‘stiradi, boyitadi. Xalq tilining kuchi, boyligi go‘zalligini bilib olishga imkon beradi, muhabbatini oshiradi.

Hozirgi zamon bolalar adabiyotining eng yaxshi asarlari katta badiiy kuchi, boy, ravon, obrazli, ifodali tili bilan ajralib turadi. Bunday asarlar kitobxonning sevimli do‘stiga, hamroxiga aylanib qoladi.

Alisher Navoiy o‘zining “Mahbub-ul qulub” (Ko‘ngillarning sevgani) kitobining 3-qismida tilni “Ko‘ngil xazinasining qulfi” va so‘zni shu “xazinaning kaliti”, deb ta’riflaydi. Navoiy tilga asosiy so‘zlashuv vositasi sifatida katta e’tibor berib, kishilarni qisqa va mazmunli, o‘rinli va mantiqli so‘zlashga chaqirdi. Bu, shubhasiz, bolalar yozuvchilariga ham talluqlidir. Ma’lumki, yozuvchilar kishi ruhining muhandislari hisoblanadi. Bu esa bolalar yozuvchilari zimmasiga katta va mas’uliyatli vazifa yuklaydi.

Insonni bolalarga, avvalo, buyuk qahramon, noma’lum mamlakatlarni kezgan qo‘rqmas sayyoh, afsonaviy pahlavon, haqiqat uchun kurashchi, o‘z orzu-xayollariga sodiq, irodali qilib ko‘rsatish kerak. Buning uchun esa barchamiz: ota-ona, tarbiyachi, o‘qituvchilar bolalar adabiyotiga murojaat etmog‘imiz darkor.

Bolalar adabiyoti – bolalar va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy ommabop va publitsistik asarlar majmui. Ularni bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalar xususida yosh kitobxon tushunchasi darajasida ma’lumot beradigan sho‘x va o‘ynoqi, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan asarlarni tushunish qon-qonimizga singib ketgan. Shu sababli ham yozuvchilarimiz:

– Vatan – kindik qoni to‘kilgan muqaddas Ona tuproqqa sadoqat, ustozlar va ota-onalar hurmatini sharaflash ruhidagi she’r-u dostonlar yaratadilar;

– hazilkash, sho‘x, o‘yinqaroq, topqir bolakaylar haqida hazil-huzulga boy yumoristik she’r-u hikoyalar, doston-u qissalar bitadilar;

– bolalarni ilm-ma’rifat nuridan bahramand bo‘lishga chorlovchi – maktab, kitob va boshqa turli o‘quv qurollarini madh etuvchi asarlar bitadilar va hokazo.

Mutolaa vaqtlarida o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan ehtiyojni tarbiyalash va shakllantirish hamda ularni o‘qiganlar yuzasidan o‘ylash, muallif asarda ko‘targan asosiy muammolarni anglab yetish, kitobdan talay hayotiy muhim savollarga javob izlashga o‘rgatish kerak. Bunday kitob o‘qish onlari haqiqiy mutolaa jarayonini ifoda etadi. Ushbu jarayon mashg‘ulotdagi bajariladigan ishlarning bir qismi bo‘lgani uchun ham adabiy tayyorgarlikda uzluksiz adabiy ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi.

Avvalambor, sinfdan tashqari o‘qish darslarida adabiy materiallarni mutolaa qilib borishning ahamiyati hech kimda shubha uyg‘otmaydi: bu materiallar minimumi milliy ma’naviyat tarbiyasini amalga oshirishning qudratli omilidir. Shuningdek, darslarda gazeta va jurnallarni ko‘zdan kechirib borish ham (aslida shundan boshlash kerak) o‘qituvchi uchun tamomila yangi hodisa emas. Bugungi kunda bu boradagi ilg‘or ish tajribalarini to‘plash, umumlashtirish, mazmuni va metodikasini boyitish taqozo etiladi. Bunday tadbirlar ilg‘or ish tajribalaridagi yetakchi yo‘nalishlarni aniqlash imkonini beradi.

Kitob o‘qish madaniyati tushunchasi o‘z ichiga nimani o‘qish, qanday o‘qish, o‘qilgandan qanday foydalanish va qancha o‘qish kerak, degan o‘zaro mushtarak savollarni o‘z ichiga oladi. Bugun metodik terminlar sirasiga “kitob o‘qish yadrosi” tushunchasini

kiritish lozim. Bu yadro, albatta, o‘qilishi zarur bo‘lgan mualliflar va asarlar ro‘yxatidan iborat.

O‘quvchi kitobdan ma’lumot olishga doir ayrim bilim va malakalarni, chunonchi, konspekt, ko‘chirmalar ola bilishi, lug‘atlar va ma’lumotnomalardan foydalanishi kerak. “O‘qilganlarni anglab yetish va o‘z munosabatini og‘zaki va yozma shakllarda ta’riflay bilish – shaxsiy kundalikka qilinadigan yozuvlar, taqrizlar, devoriy gazetaga maqolalar, ijodiy insho – miniaturalar, muhokama – insholar, qisqa sharhlar, kitob haqida suhbatlar, annotatsiyalar va shu kabilar”.

Kitob o‘qish mutolaa madaniyatini egallash bilan chambarchas bog‘liq. Kitobxon asar tanlaganda, dastavval uning singdirilgan ma’nosini o‘ylaydi. U sarlavhada qo‘yilgan masala ustida o‘ylab ko‘radi. Unda qanday muammo ko‘tarilgan bo‘lishi mumkinligini taxmin qiladi. So‘ngra “So‘z boshi”ga qaraydi, kitobning o‘zini varaqlaydi.

Badiiy asarlarda tarixiy ma’lumotlarni aks ettiruvchi muqaddima deyarli bo‘lmaydi. Bu holat metodikaning alifbo qoidalarini buzish sanalmaydi. Kitobxon mavqeida turib aytadigan bo‘lsak, mutolaa izchilligi o‘z tabiiy izida bo‘ladi. U avval, kitobni o‘qib chiqadi, keyin esa, agar, kitob yoqqan bo‘lsa, endi uni muallifi va o‘qilganlar bilan bog‘liq boshqa hamma narsalar qiziqtiradi. Har qanday bilim ongda savol tug‘ilgan, keyin esa javob qidirish boshlangan chog‘dagina (o‘zining nimanidir bilmayotganligini anglash) faol qabul qilinadi.

Har xil manbalardan olingan parchalar qatori bir yirikroq badiiy asardan mumkin qadar ko‘proq parchalar tanlash maqsadga muvofiq. Birinchidan, o‘quvchilarda shu asar haqida yaxlitroq taassurot paydo bo‘ladi, ikkinchidan, suhbat chog‘ida qahramonlarning xatti-harakatlari, ijobiy va salbiy tomonlari, bir butun asarning badiiy jihatlari ochila boradi.

O‘quvchilarning kitobxonlik tajribasi va kuzatishlarini jalb etishning sodda shakllaridan ham foydalanish zarur: ifodali o‘qish, muallif haqida ma’lumot berish, syujet mazmunini qisqa qayta bayon etish, lavha tahlili, sevimli qahramon haqida hikoya qilish, illyustratsiyalarni sharhlash.

O‘quvchilarda darsdan tashqari o‘qish uchun tavsiya etiladigan asarlarning hajmi haqida adabiyotni o‘qitish metodikasida turlicha fikrlar bor. Rus pedagog olimi L.A. Sheymanning tavsiyasiga ko‘ra, II-IV sinflarda 5-20 bet (II sinfda 5-10 bet, III da 10-15 bet, IV da 15-20 bet). Uzluksizlik har kuni o‘qish bilan ta’minlanadi. Shuningdek, masalaning boshqa qirrasi ham bor: hajmi kattaroq parchalarning dastlabkisida so‘z o‘rganishga e’tibor ko‘proq qaratilsa, keyingilarida takror ishlatilish xususiyatiga ko‘ra, avvalgi leksika jadal o‘zlashadi, notanish so‘zlar esa kamayib boradi. Natijada, astasekin matnlar ham hajman kattalashadi. Bunda ularning parchani qanday tushunganliklariga e’tibor berib, darsda bajariladigan ishlarni rejalashtiradi va o‘zi tuzgan rejaga tuzatishlar kiradi. Shuningdek, o‘quvchilar bilmagan ayrim so‘zlarga izoh beradi. Ba’zi gaplar mazmunini anglashga yordam beradi. Asardan olingan parchada oldingi qismlarda aks etgan bir xil voqealar haqida gapirib berishi ham maqsadga muvofiq.

O‘qiganlar yuzasidan suhbatlar asar syujetini gapirib berishdan iborat bo‘lib qolmasligi kerak. Shuning uchun ham muammoli ta’limni yo‘lga qo‘ymoq darkor. O‘qituvchi o‘quvchilarni o‘qiganlarini muhokamaga chorlovchi savollar yordamida o‘ylashga, mushohada yuritishga, isbotlashga o‘rgatishi kerak. Buning uchun esa o‘qituvchi “Siz nima deb o‘ylaysiz?”, “Nega…?”, “Nima uchun…?” kabi savollar berishi lozim. Kitob o‘qish vaqti ko‘p bo‘lmasa ham bir asar muhokamasiga qaratilmog‘i lozim. Adabiy asarning g‘oyaviy-mavzuviy tahlili odatdagi adabiy materialni o‘rganish paytdagi kabi

chuqur, lekin umumiy rejada, har bir qismni mufassal matniy o‘rganishsiz olib boriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni bo‘lar-bo‘lmasga har qadamda to‘xtatavermasligi, har bir noaniq aytilgan gaplarini tuzatavermasligi lozim. Eng avvalo, darsda erkinlik sezilib turishi lozim.

Haqiqatdan ham, boshlang‘ich ta’lim jarayonida kichik yoshdagi o‘quvchilarda kitobxonlikni bolalar adabiyoti yordamida shakllantirishda “O‘qish” darslari, sinfdan tashqari darslar bo‘yicha tashkil etiladigan mashg‘ulotlar muhim o‘rin tutadi. Mashg‘ulotlar jarayonida turli metodikalar va o‘yinlar orqali berilgan bilimlar o‘quvchilarga nazariy bilim olish, bu borada ma’lum ko‘nikma va malaka hosil qilish imkoniyatini yaratadi. Natijada, ularning ijodiy tafakkur maydoni kengayadi.

O‘qitish jarayonida o‘quvchilar ongida kitobga muhabbat hissini shakllantirish, ularga ilmiy-nazariy asosga ega bo‘lgan bilimlarni berish, chuqurlashtirib borish, o‘quvchilarning bilim egallash imkoniyatlarini hosil qilish uchun pedagogik shart-sharoit yaratishdan iborat bo‘ldi. Shuning uchun ham kichik yoshdagi o‘quvchilarda kitobga muhabbat hissini shakllantirishda o‘qituvchilar quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim:

– kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga bolalar adabiyoti haqidagi bilimlarni berish;

– o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirib borish;

– o‘quvchilarda ijodiy izlanuvchanlikka nisbatan chuqur hurmatni uyg‘otish;

– o‘quvchilarda ijodiy izlanuvchanlikka ongli yondoshuvni qaror toptirish;

– o‘quvchilarda ijodiy tafakkur ko‘nikma va malakalarining shakllanishi uchun shart-sharoit yaratish;

– barcha darslarning samaradorligini tahlil etib borish;

– har bir dars, mashg‘ulotning ijtimoiy hayot bilan aloqadorligiga erishish.

Ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyaga keng o‘rin berish va h.k.

Xulosa qilib aytganda kitob o‘qish jarayonida o‘quvchilarda mavzu yuzasidan:

– qiziqishni qoniqish hissi uyg‘onsa;

– badiiy dunyoda “o‘zining” qiziqishlarini qondirsa;

– o‘zini takomillashtirsa;

– o‘zini namoyon etsa;

– o‘quvchilarga bolalar adabiyotini o‘rgatishda faqat suhbat metodikasiga tayanmagan holda turli qiziqarli metodikalar, o‘yinlar tashkil etilsa.

– o‘qituvchilar uchun bu qiziqarli o‘yinlar xususida ma’lumotlar bazasi tashkil etilsagina, o‘quvchilarda kitobga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008-yil.
2. Abdullayev “Sinfdan tashqari o‘qish”, O‘qituvchi nashriyoti, 1982-yil.
3. www. ziyonet. uz.

Xolboy IBRAIMOV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ‘‘Pedagogika va psixologiya’’ kafedrasi, pedagogika fanlari doktori, professor
Komila TODJIBAYEVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

INKLYUZIV TA’LIMNI AMALIYOTGA JORIY ETISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI: AQSH VA YEVROPA MISOLIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada inklyuziv ta’limga doir chet el mamlakatlarida ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan metodikalar haqida so‘z boradi. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashning Widening participation, Mainstreaming, Integration, Inclusion deb nomlangan yo‘nalishlari va imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash uchun zarur bo‘lgan metodik va texnologik bazalar haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar. Inklyuziv ta’lim, maxsus ta’lim usullari, o‘qitish texnologiyalari.

В статье освещены основные методики инклюзивного образования, разработанные и реализованные за рубежом. Представлены основные формы работы с детьми с ограниченными возможностями. Это Widening participation, Mainstreaming, Integration, Inclusion. Освещена необходимая методическая и технологическая база для работы с детьми с ограниченными возможностями.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, методики специализированного образования, технологии обучения.

The article highlights the main methods of inclusive education, developed and implemented abroad. The main forms of work with children with disabilities are presented. These are Widening participation, Mainstreaming, Integration, Inclusion. The necessary methodological and technological basis for working with children with disabilities is highlighted.

Key words. Inclusive education, methods of specialized education, teaching technologies.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim muammosi nisbatan yangi tendensiya hisoblansada, biroq xorijiy mamlakatlar, xususan, AQSH va Yevropa mamlakatlarida inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy qilish bilan bog‘liq katta tajriba mavjud. Inklyuziv ta’lim bilan bog‘liq loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish ishlari G‘arbda XX asrning 70-yillaridan boshlangan. Ushbu loyihalar samaradorligi o‘quv-metodik qo‘llanmalarni yaratish, inklyuziv ta’limning huquqiy asoslarini takomillashtirish, imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik, pedagogik va ijtimoiy himoya qilish, inklyuziv ta’limni amalga oshirishda yuzaga keluvchi iqtisodiy va texnologik muammolarni hal etish kabilarda o‘z ifodasini

topgan.

AQSH va Yevropa davlatlarida imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashning to‘rtta asosiy yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, bu yo‘nalishlar bilan tanishib chiqamiz:

1. Kengaytirilgan qamrov (Widening participation) – ya’ni ta’limga qamrov darajasining ortishi. Ushbu yo‘nalish Yevropa mamlakatlari, xususan Buyuk Britaniyada keng qo‘llaniladi. Uning asosiy maqsadi imkoniyati cheklangan insonlar, etnik ozchilini tashkil qiluvchi millatlar va jamiyatning muammoli qatlami vakillari uchun ta’limiy imkoniyatlarni kengaytirishdan iboratdir. Ushbu yo‘nalish mazkur loyihalarda ishtirok etuvchi ta’lim muassasalari bilan tuziladigan yuridik kelishuvlar va ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hisobiga amalga oshiriladi.

2. Aktuallashtirish (Mainstreaming). Ushbu yo‘nalish turli tadbirlar, hayriya aksiyalari va ommabop tomoshalarda imkoniyati cheklangan insonlar va sog‘lom insonlarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish, ularni hamkorlik qilishga o‘rgatish kontekstida namoyon bo‘ladi.

3. Integratsiya (Integration). Imkoniyati cheklangan bolalarni bevosita ommaviy ta’lim muassasalariga jalb etishni nazarda tutadi. Bunda ularning shaxsiy, jismoniy va psixologik o‘ziga xosliklari inobatga olinadi.

4. Inklyuziya (Inclusion). Bu yo‘nalishda imkoniyati cheklangan bolalar mutlaqo sog‘lam bolalar bilan teng huquqli asosda ta’lim muassasalariga jalb qilinadi va ular uchun teng sharoitlar yaratiladi. Shu orqali, inklyuziv ta’limda har qanday diskriminatsiyalarga barham beriladi va ta’lim jarayonining ochiqligi barcha uchun ta’minlanadi. Ushbu yo‘nalish ta’lim muassasalarini modernizatsiya qilish va yangi o‘quv dasturlarni qabul qilish hisobiga amalga oshiriladi.

Bizning ilmiy tadqiqot ishimiz inklyuziv ta’lim mavzusida bo‘lganligi sababali yuqorida keltirilgan to‘rt yo‘nalishdan, asosan, inklyuziv ta’limga to‘xtalib o‘tamiz.

Ommaviy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni yo‘lga qo‘yish imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Bugungi kunda dunyoning 50 ga yaqin mamlakatlarida, xususan, Germaniya, Norvegiya, Fransiya, Ispaniya, AQSH, Kanada va boshqa ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish inklyuziv ta’lim asosida amalga oshirilmoqda.

Skandinaviya davlatlarida (Daniya, Shvedsiya va Norvegiya) 30 yildan ortiq vaqt oralig‘ida diqqat yetishmasligi sindromi va giperaktiv tashxisli bolalarga ta’limiy yordam ko‘rsatishga qaratilgan dastur amalga oshirilmoqda.

Norvegiyada bolalarga pedagogik-psixologik yordam ko‘rsatish tizimi har bir imkoniyati cheklangan bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ular uchun individual ta’lim dasturini ishlab chiqishni taqazo etadi. Uni amalga oshirish uchun bir qancha chora-tadbirlar amalga oshiriladi va biz ularning asosiylariga to‘xtalib o‘tamiz:

1. Ota-onalar va mutaxassislar orasida inklyuziv bilimlarni yoyish texnologiyasi. Ushbu texnologiya imkoniyati cheklangan bolalar va ularning ota-onalari mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha tashkilotlarga (ta’lim muassasalari, sprot to‘garaklari, sog‘lomlashtirish markazlari, tibbiy-reabilitatsiya markazlari va boshqa ommaviy joylar) inklyuziv bilimlarni yetkazishni nazarda tutadi. Ushbu ma’lumotlar turli bannerlar, brashyuralar, davriy nashrlar, ilmiy nashrlardan iqtibos va aforizmlar ko‘rinishida tarqatilishi mumkin. (P.s.: Keyingi yillarda ushbu tendensiya O‘zbekistonda ham ko‘zga tashlanmoqda va ko‘p tashkilot va muassasalarda autizm, autistik spektr buzilishi

(RAS) kabi tashxisga ega bolalarning o‘ziga xosliklarini ko‘rsatuvchi roliklar, banner va afishalar ko‘zga tashlanmoqda.)

2. Rivojlanishida turli nuqson va muammolari bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga jalb etish texnologiyasi. Bunda diqqat yetishmasligi sindromi, Turette sindromi, Asperger sindromi, aqliy zaiflik bilan og‘rigan bolalarni ommaviy ta’lim muassalariga jalb etish nazarda tutiladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan individual o‘quv ishlarini tashkil etish quyidagilar hisobiga amalga oshiriladi:

1. Variantiv o‘quv dasturlarini ishlab chiqish (imkoniyati cheklangan bolalarning o‘z tengqurlari bilan bir sinfda, biroq turli daraja va mazmundagi o‘quv dasturlari orqali bilim olish huquqi qonun yo‘li bilan himoyalangan);

2. Sinf bilan frontal ishlashni kamaytirib, o‘qituvchi va mutaxassislar bilan individual ishlashni kuchaytirish;

3. Imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan ishlashga yordam beruvchi metodikalarni qo‘llash orqali:

– o‘quvchilarning turli templarda o‘zlashtirishlarini hisobga olish (masalan, ingliz tili darsidan topshiriqni tez bajargan bolalar, sinf xonasidagi shkafdan ingliz tilidagi kitoblarni olib o‘qib turishlariga imkoniyat yaratish);

– o‘quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda turli murakkablik darajasidagi topshiriqlarni berish;

– boshqa o‘quvchilarga xalaqit bermagan holda, alohida yordamga muxtoj bolalarga topshiriqlarni bajarishda individual yordam ko‘rsatish. Bunda sinfda nafaqat o‘qituvchi balki uning yordamchisi (tyutor) bo‘lishi ham muhim sanaladi;

– joriy nazoratlarni doimiy ravishda o‘tkazish va alohida yordamga muhtoj o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalari haqida doimiy ma’lumotlarga ega bo‘lib borish.

3. Diqqat yetishmasligi sindromi va boshqa yondosh tashxislarni (komorbid buzulishlar) diagnostika qilish texnologiyasi. Ushbu texnologiya ichida uch xil metod keng qo‘llaniladi. Bu so‘rovnomalar, bolalarni sinfda kuzatish metodi va testlar.

Yuqorida sanab o‘tilgan texnologiyalar nisbatan kam aholi zichligi va yuqori turmush darajasiga ega bo‘lgan Norvegiya davlatida keng tarqalgan. BMT tomonidan 1990-yildan beri aniqlab kelinadigan inson taraqqiyoti (kamoloti) indeksi (Human Development Index) ko‘rsatkichiga ko‘ra, 2020-yilda Norvegiya birinchi o‘rinni egallagan. (P.s.: Inson taraqqiyoti (kamoloti) indeksi jamiyatda insonning barkamolligi ta’minlanishini ifodalovchi integral ko‘rsatkichdir.)

Hozirgi vaqtgacha AQSHda “Inclusion” nomli dastur amaliyotga tadbiq etilgan bo‘lib, 1973-yilda qabul qilingan “Reabilitatsion akt” va “Nogiron bolalarni o‘qitish to‘g‘risida”gi Qonun ushbu dastur uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu Qonunga ko‘ra, AQSH maktablarida maxsus ta’limni moliyalashtirish va ta’limiy dasturlarni tanlashga individual yondashish masalalari muvaffaqiyatli hal etilgan. Ushbu Qonun dunyoda birinchilardan bo‘lib, integratsiyani ya’ni imkoniyati cheklangan bolalarni maxsus ta’lim muassasalarida emas, balki, ommaviy umumta’lim maktablarida ularga zaruriy yordam va sharoitlarni yaratgan holda o‘qitish usulini yoqlab chiqadi.

Inklyuziv ta’lim bu barcha o‘quvchilar uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini hisobga olgan holda ta’lim muassasalarida ta’lim olishda teng huquqlilikni ta’minlashdir. Ushbu ta’limiy model imkoniyati cheklangan bolalarni mutlaqo sog‘lom bolalar bilan bir muassasa va bir sinfda tahsil olishi uchun imkon beradi. AQSHda bu qoida hattoki Daun sindromli bolalar uchun ham ta’luqli bo‘lib, ushbu

sindromli bolalar ommaviy maktablarda ta’lim olish huquqiga egadirlar.

AQSHda inklyuziv ta’lim muassasalari rivojlanishdagi anomaliyalar (psixologik, aqliy, ijtimoiy, emotsional, nutq bilan bog‘liq) darajalaridan qat’iy nazar barcha imkoniyati cheklangan bolalar uchun ochiq va ular uchun zaruriy sharoitlar, albatta, yaratiladi.

Inklyuziv yondashuvda har bir maktab yoki ta’lim muassasasi o‘z faoliyatini o‘quv dasturlarini rejalashtirish bosqichida imkoniyati cheklangan bolalarning ta’limiy ehtiyojlarini ham hisobga oladi va Individual ta’lim dasturini (ID) ishlab chiqadi. Individual ta’lim dasturini ishlab chiqishda quyidagi me’zonlar hisobga olinadi: dasturni amaliyotga qo‘llash imkoniyati, natijaviylik baholash imkoniyati va faollik. Imkoniyati cheklangan bolaning o‘qish joyini belgilash uning ehtiyolari va jismoniy holatini hisobga olgan holda tanlanadi.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchi:

– oddiy sinfda o‘qishi va zaruriy individual yordamni olishi;

– oddiy sinfda o‘qishi va zaruriy individual yordamni olish bilan birga tor doiradagi mutaxassis hizmatidan foydalanishi;

– kunning bir qismini oddiy sinfda, bir qismini esa maxsus sinfda o‘tkazishi;

– maxsus sinfda barcha mutaxassis va o‘qituvchilar yordamida tahsil olishi;

– reabilitatsion dastur asosida turli mutaxassislar yordamida o‘quv faoliyatini davom ettirishi mumkin.

“Inclusion” dasturi doirasida AQSHda 1980-yillardan boshlab yangi tipdagi ta’lim muassasalarining qurilishi va eski muassasalarning ta’mirlash ishlari boshlandi. Bunda turli darajadagi nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning individual ehtiyojlari hisobga olinishi majburiy etib belgilandi. Shu maqsadda davlat katta moliyaviy mablag‘ni ta’lim muassasalarini rekonstruksiya qilish uchun ajratdi va qurilish standartlarini buzgan muassasalar keskin jazolandi.

AQSH siyosati imkoniyati cheklangan bolalar yoki fuqarolarni muayyan tashkilot xizmatlaridan foydalanishlarida xuddi oddiy fuqarolar singari to‘siqsiz va qiyinchiliksiz bu ishni amalga oshirishlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Zaruriy hollarda o‘quvchilarga quyidagi xizmat turlari taklif etiladi:

– imo-ishora tilida so‘zlashuvchi tarjimonlar;

– dars materiallarini yozib olish uchun individual yordamchilar (volontyor yoki amaliyot davrini o‘tayotgan talabalar);

– maxsus pedagog va psixolog xizmati.

Ko‘zi ojiz o‘quvchilarga maxsus o‘rgatilgan itlar xizmatidan foydalanish uchun ham shart-sharoitlar yaratiladi. Yuqorida sanab o‘tilgan texnologiyalar har bir shtat miqyosida nafaqat ta’limiy xizmatlardan foydalanish uchun, balki ish bilan ta’minlanish va ishlash jarayonida ham kafolatlanadi.

O‘zbekistonda ham inklyuziv ta’lim amaliyotini joriy etishdan oldin bir qancha chora-tadbirlar kompleksni muvaffaqiyatli amalga oshirish lozim deb o‘ylaymiz:

– mutaxassislar (pedagoglar, psixologlar, defektologlar, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari)ni professional faoliyatga tayyorlashda yoki qayta tayyorlashda ularning inklyuziv kompetentligini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor berish. Chunki “xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’lim dasturlari yetarli darajada rivojlanmagan, mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari dasturlarida o‘qituvchilarning inklyuziv ta’lim bo‘yicha maxsus tayyorgarligini ta’minlash lozim”;

– imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limga jalb etish va ularning manfaat va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

– xavfsiz va rivojlantiruvchi inklyuziv ta’lim muhitni yaratish bo‘yicha mutaxassisligidan qat’i nazar barcha pedagoglar uchun seminar-trening va master klasslar tashkil etish;

